

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
GEOGRAFIYA KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya etildi”

Tabiatshunoslik va geografiya fakulteti dekani

_____ dots. B.Xo‘jamqulov

“ _____ ” _____ 2012 yil

“51440500 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari IV - bosqich talabasi Azizova Mohigulning **“Qashqadaryo viloyati sanoat tarmoqlari rivojlanishi va joylashish xususiyatlari ”** mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Talaba _____ M.Azizova

Ilmiy rahbar _____ M.Fayzullayev

“ _____ ” _____ 2012 yil

“Himoyaga tavsiya etildi”

Geografiya kafedrası mudiri

_____ dots. L.N.Erdonov

“ _____ ” _____ 2012 yil

Qarshi shahri - 2012 yil

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA
TOPSHIRIQ**

“TASDIQLAYMAN”

Kafedra mudiri: _____

“ _____ ” _____ 20 ____ y.

Talaba *Azizova Mohigul*

Ta'lim yo'nalishi: *5140500- Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari*

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi: **“Qashqadaryo viloyati sanoat tarmoqlari rivojlanishi va joylashish xususiyatlari”**

Bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyoti o'tilgan joyi: *Viloyatdagi asosiy yirik sanoat korxonalari, statistika boshqarmasi*

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: **k.o'q. Fayzullayev M.A.**

ISH REJASI

Bitiruv malakaviy ishi bo'limi	Bajarish muddati
i bob. O'zbekiston sanoat tarmoqlari rivojlanishining mintaqaviy xususiyatlari	
1.1. Respublika xo'jaligining umumiy ta'rifi	2010 yil noyabr
1.2. Mamlakat sanoati va uning tarmoqlar tarkibi	2010 yil dekabr
1.3. Og'ir, yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlanishining hududiy jihatlari	2011 yil yanvar
ii bob. Qashqadaryo viloyati sanoat tarmoqlari rivojlanishining iqtisodiy geografik xususiyatlari	
2.1. Viloyat xo'jaligining umumiy ta'rifi	2011 yil mart
2.2. Viloyat sanoat tarmoqlari shakllanishi va rivojlanishining geografik jihatlari	2011 yil mart
2.3. Sanoat tarmoqlari rivojlanishining asosiy muammolari va istiqbolli yo'nalishlari	2011 yil aprel
“Kirish” va “Xulosa” qismlarni tayyorlash	2011 yil may
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish	
Ilovalarni tayyorlash	

Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun zarur bo'lgan materiallar:

a) adabiyot manbalari: *Prezident asarlari, statistka, O'zbekiston va chet el olimlari ilmiy maqolalar*

b) qonuniy – meyoriy hujjatlar: mavzuga oid: *Prezident farmonlari, Hukumat qarorlari, qonunlar*

v) statistik va boshqa ma'lumotlar: *O'zbekistonning yillik statistik to'plami, viloyat statistika boshqarmasi va mahalliy materiallardan foydalanildi*

Tasvirlash materiallari: *grafik, jadval, kartasxemalar va b.*

Topshiriq berilgan kun: *2011 yil 15 noyabr*

Ishni topshirish muddati: *2012 yil 2 may*

Ilmiy rahbar:

k.o'q. Fayzullayev M.A.

Kafedra mudirining bitiruv ishini himoyaga qo'yish haqidagi xulosasi:

Kafedra mudiri: _____

2011 yil “ _____ ”

“ _____ ”

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining yigirma yillik mustaqillik davrida hayotning barcha soha va tarmoqlarida olamshumul yutuqlarni qo‘lga kiritib, dunyo hamjamiyatidan munosib o‘rin egallab, milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlab, tom ma‘nodagi ozod va suveren davlatga aylandi. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning 2010 yil 12 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida **“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”** mavzusida so‘zlagan ma‘ruzasida Vatanimiz, xalqimizning ana shu tarixan qisqa bir davrda erishgan ulkan yutuq va marralari har tomonlama chuqur tahlil etib berildi. Yurtboshimiz bu haqda gapirar ekan, quyidagi raqamlarga alohida e‘tibor qaratdi. Avvalo, mustaqil taraqqiyotimiz mobaynida O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o‘sishi 3,5 barobarni, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 barobarni, aholining real daromadlari 3,8 barobarni tashkili etgani alohida ta‘kidlandi.

Prezidentimiz o‘z ma‘ruzasida **“ertangi kun talablaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish yo‘lidagi izchil harakatlarimizni kuchaytirishimiz, ularni yangi, yanada yuqori bosqichga ko‘tarishimiz darkor”**

Ayniqsa, Vazirlar Mahkamasining 2011 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yil iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor vazifalariga bag‘ishlangan majlisida I.A.Karimov ma‘ruzasida 2011 yil yakunlarini baholab mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori barqaror o‘shish sur‘atlari va makroiqtisodiy mutanosibligi saqlanib qolayotganligini qayd etib, O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o‘shish sur‘atlari 2009 yilda 9 foiz, 2010 yilda 8,1 foiz, 2011 yilda 8,5 foizni tashkili etganligi, bu dunyodagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri ekanligini ta‘kidladilar. Bularni barchasi iqtisodiyotimizning yuqori sur‘atlar bilan barqaror o‘shib borayotgani va mamlakatimizda ro‘y berayotgan ulkan ijobiy o‘zgarishlardan dalolat beradi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uni barcha sohalaridagi xavfsizligini va mustaqilligini ta‘minlash, eksport salohiyatini yuksaltirish va jahon hamjamiyatidagi o‘rnini yaxshilab borish ko‘p jihatdan uning ichki geosiyosiy tuzilmasi-viloyatlar (mintaqalar) salohiyatidan har tomonlama foydalanishga bog‘liq.

Yaqin kelajakda mo‘ljallangan strategik maqsadlarga erishi respublika va uning hududlarida mavjud mehnat va agroiqlimiy resurslar, mineral xom ashyo va boshqa imkoniyatlardan samarali foydalanishni talab qiladi. Shu nuqtai naardan qaralganda respublikadagi o‘z salohiyatiga ega bo‘lgan Qashqadaryo viloyati respublika mehnat

taqsimotidagi oʻrni, demografik va ekologik vaziyati, xoʻjaligining tarmoqlari hamda hududiy tarkibi, ixtisoslashuvi muhim geografik xususiyatini kasb etadi.

Mintaqalar investitsion salohiyatini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning dolzarb muammolari va ustuvor yoʻnalishlarini belgilash uchun keng koʻlamdagi ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish darkor.

Mazkur malakaviy ishda Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotining asosiy tarmoqlar hamda hududiy tarkibi, ixtisoslashuvi, ijtimoiy sohalarini rivojlantirish, transport va boshqa infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish masalalariga qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi. Mamlakat iqtisodiyotini hududi jihatdan oqilona tashkili etishning iqtisodiy siyosatning yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Mintaqalar tabiiy, iqtisodiy va mehnat salohiyatidan samarali foydalanish iqtisodi mustaqillikka erishish va iqtisodiy oʻsishni taʼminlash respublika aholisi farovonligi va hayot sharoitlarini yaxshilashning asosiy shartlaridan biridir. Tuzilish jihatidan takomillashuvi ham foydalanilmagan manbalar va iqtisodiy imkoniyatlardan yuksak darajada va samarali foydalanish vujudga kelgan hududiy nomutanosiblikni bataraf etish hamda hozirgi kundagi mintaqalarda mavjud tabiiy iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan sanoat tarmogʻining oqilona hududiy tarkibini shakllantirish bugungi kundagi ustuvor vazifalardan biridir. Sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishni hududiy jihatdan tartibga solish, maqsadli dasturlari (kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq joylarida ish bilan bandlik, energetika mustaqilligini taʼminlash va boshqalar) orqali amalga oshiriladi.

Shu bilan bir qatorda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda viloyat iqtisodiy oʻsishning hududiy omillaridan yetarli darajada foydalanilmayapti, aniq maqsadni koʻzlab ishlab chiqilgan mintaqaviy sanoat siyosatini amalga oshirish bugungi kunning talabidir. Sanoatning hududiy tarkibi mintaqaviy tovarlar xizmatlar kapital va mehnat bozori ehtiyojlari va imkoniyatlariga muvofiq kelmayapti, sanoat korxonalarining joylashtirishni tartibga solish va ragʻbatlantirishning iqtisodiy usullari keng joriy etilmayapti. Bu esa mintaqalar sanoat rivojlanishidagi tafovutlarning yuqori darajada saqlanib qolishiga, mavjud resurslardan nooqilona foydalanishga olib kelmoqda.

Tadqiqotning oʻrgananlik darajasi. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va sanoatning tarkibini takomillashtirish masalalari koʻplab mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng oʻrganilgan. Mintaqalar sanoat taraqqiyoti oʻrtasidagi tafovutlarni bartaraf etish, sanoat ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlantirishning ayrim jihatlari xorijiy iqtisodchi, iqtisodiy geograf olimlar L.A.Bauman, R.Bennet, D.Vedley, Y.Gamilton, E.P.Gorbunov, E.Y.Isserman, G.M.Kalashnikova, V.V.Kistanov, N.N.Kolosovskiy, N.N.Nekrasov, G.A.Privalovskaya, A.E.Probst, E.F.Silayev, A.Smit, I.V.Nikolskiy, A.T.Hayitov va boshqalarning ilmiy ishlarida oʻz aksini topgan.

O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishning joylashtirish va uning oqilona hududiy tarkibini shakllantirish muammolari respublikamiz olimlari M.Abdusalomov, E.A.Ahmedov, T.M.Ahmedov, L.Erdonov, I.Toirov, SH.N.Zokirov, S.K.Ziyodullayev, O.B.Otamirzayev, A.S.Soliyev, N.S.Sultonov, N.T.To'xliyev, A.T.Yusupovlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan.

Biroq yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning mazkur soha rivojiga qo'shgan hissalarini inkor etmagan holda shuni ta'kidlash lozimki, mazkur tadqiqotlarda xo'jalik yuritishning yangi shakllari faoliyati bozor munosabatlari shakllarining harakteri va xususiyatlari hamda ularning sanoat ishlab chiqarishning hududiy tarkibiga ta'siri masalalari to'liq hisobga olinmagan. Bozor munosabatlaraiga o'tish sharoitida mintaqalar tabiiy iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanish, ijtimoiy muammolarni hal etish va atrof muhitni muhofaza qilish nuqtai nazaridan sanoat ishlab chiqarishning samarali hududiy tarkibini shakllantirish jarayonlari yetarli darajada o'rganilmagan. Bu esa ushbu tadqiqot mavzusining tanlanishiga sabab bo'ldi.

Mavzuni to'laroq o'rganish uchun mahalliy materiallarda keng foydalanish bilan birga sanoatning yetakchi tarmoqlari (tabiiy gaz bilan bog'liq korxonalar, paxtachilik va boshqalar).

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotiga o'tish sharoitida Qashqadaryo viloyati sanoatini hududiy tashkili etishni tahlil qilish muammolarini aniqlash va shu asosda viloyat sanoatini rivojlantirish bo'yicha ilmiy amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning obyekti. Tadqiqotning obyekti etib Qashqadaryo viloyatining sanoat tarmoqlari tanlandi.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti. Sanoatning hududiy tarkibi shakllanishi va rivojlanishini tartibga solish usullari va mexanizmi tadqiqot ishining predmeti hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik guruhlash taqqoslash va boshqa usullar qo'llanilgan.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar hal etish ko'zda tutilgan;

- ❖ Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida O'zbekiston mintaqalari sanoatining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;
- ❖ Qashqadaryo viloyati sanoat salohiyatining shakllanishi va rivojlanishi omillarini aniqlash;
- ❖ Mintaqa sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlarini ochib berish;
- ❖ Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida sanoatning hududiy tarkibini takomillashtirish ilmiy amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

❖ Kichik biznes va tadbirkorlik yilida mini korxonalarni barpo etish va uni afzalliklarini yoritish;

Tadqiqot metodlari. Viloyat hududidagi sanoat korxonalarining tahlili, kartografik, statistik, tizimli yondashish, kuzatish, ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishish, to'plangan ma'lumotlardan foydalanildi.

Tadqiqot metodologik asosi. Mazkur tadqiqot ishini bajarishda metodologik jihatdan ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishga bag'ishlangan Respublika Prezidentining ko'rsatma va asarlari, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanidan yaratilgan ilmiy g'oya va tushunchalar, mintaqalar rivojlanishi hamda sanoat tarmoqlari bilan shug'ullangan olimlarning ishlariga tayanildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

❖ Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida sanoat ishlab chiqarishi oqilona hududiy tarkibini shakllantirishning uslubiy asoslari ishlab chiqarilgan;

❖ Mustaqillik yillarida viloyatda sanoat ishlab chiqarishi rivojlanishining asosiy tendensiyalari aniqlangan;

Qashqadaryo viloyati sanoat salohiyatiga baho berish asosida uni respublika sanoat ishlab chiqarishdagi mavqeini oshirish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar tayyorlangan;

Viloyat sanoat ishlab chiqarishning hududiy xususiyatlari ochib berilgan;

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi, ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishda mintaqalarda sanoat taraqqiyoti darajasi o'rtasidagi tafovutlarning qisqarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Malakaviy ish natijalaridan sanoat korxonalarida va ularga yaqin hududlarda sanoatning hududiy tarkibini takomillashtirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqarishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishining tarkibiy tuzilishi. Mazkur malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati ko'rsatilgan.

Bitiruv malakaviy ishning hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob, oltita bo'lim, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va jadvallardan iborat.

I BOB. O‘ZBEKISTON SANOAT TARMOQLARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI

1.1. Respublika xo‘jaligining umumiy ta‘rifi

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan kundan beri o‘tgan tarixan qisqa davr ichida katta iqtisodiy yutuqlarga erishdi, ana shu davr mobaynida yuz bergan olamshumul o‘zgarishlar, qo‘lga kiritilgan natijalar va eng asosiysi – iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda to‘g‘ri va oqilona yondoshish mamlakat ichidagina emas, balki jahon hamjamiyatida ham haqli ravishda tan olindi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti ko‘p tarmoqla hududiy-ishlab chiqarish majmuasidan iborat bo‘lib, uning poydevorini ixtisoslashgan tarmoqlar tashkil etadi. Yoqilg‘i, mashinasozlik, rangli metallurgiya, kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoati, ko‘p tarmoqli qishloq xo‘jaligi kabilar ana shunday makroiqtisodiy tarmoqlar turlariga kiradi.

O‘zbekistonda iqtisodiy taraqqiyot uchun zarur bo‘lgan imkoniyatlar mavjud. Eng avvalo agroiklimiy sharoitlarning qulayligi, zaminimizda D.I.Mendeleyev davriy jadvalining deyarli barcha elementlarini topilganligi, serunum yerlarimiz borligi va, ayniqsa, xalqimizning mehnatservarliligi milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari rivojlanishining asosiy omillari xisoblanadi.

Respublikamiz hududida xo‘jalik tarmoqlari, xususan sug‘orma dehqonchilik, savdo, hunarmandchilik qadimdan rivojlanib kelgan. Bunga o‘rta asrlarda uning Buyuk Ipak yo‘lida, o‘ziga xos uning muhim bo‘g‘ini sifatida joylashganligi ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘z navbatida sug‘orma dehqonchilik madaniyati, faqat qishloq xo‘jalik ekinlarini yerlarni sug‘orish asosida yetishtirishgina emas, balki u bilan bog‘liq boshqa tarmoqlar – fan, xalqaro savdo, shaharsozlik kabilan rivojlanishi bilan keng ma‘noda tavsiflanadi. Binobarin, aytish mumkinki, vatandoshlarimiz tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, jumladan, al-Xorazmiy, al-Beruniy, at-Termiziy, Abu Ali Ibn Sino, al-Farg‘oniy, Bobur va boshqalarning olamshumul ilmiy ishlari ham sug‘orma dehqonchilik madaniyati (sivilizatsiyasi) bilan hamohang va chambarchas bog‘liqdir. Hozirgi kunda esa mustaqil respublika milliy iqtisodiyoti, jahonning ko‘pgina yetakchi mamlakatlari qatorida, bozor munosabatlari sharoitida shakllanib va rivojlanib bormoqda. Eng muhimi ko‘pchilik mamlakatlar jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida o‘zining milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda bir qator qiyinchiliklarga uchragan davrda, respublikamizda bu soha yuqori va barqaror sur‘atda yuksalib bormoqda.

Ma‘lumki, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni turli mamlakatlarda umumiy qonuniyatlar negizida ro‘y beradi va asta-sekin rivojlanib boradi. Shu bilan birga bunday mamlakatlarning har biri bu borada o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar xo‘jalik tarkibi va yo‘nalishi, mamlakatning geografik o‘rni, tabiiy-iqlim sharoitlari, mavjud tabiiy boyliklar, milliy urf-

odatlar, aholi mentaliteti bilan belgilanadi. Aytib o‘tilgan ana shu omillar e‘tiborga olinib, respublikamizda bozor munosabatlariga o‘tishning milliy modeli shakllantirilgan.

Ushbu modelni va respublika rahbariyati tomonidan bozor munosabatalriga o‘tishning asosiy tamoyillarini amalga oshirish jarayonida 1996 yilda milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanish pallasiga o‘tdi. Buning asosiy mazmuni-yalpi ichki mahsulot o‘sinh sur‘atining barqarorlik darajasiga erishuvchi va uning aholi o‘sinh ko‘rsatkichlaridan kamida 4 martadan ziyodroq sur‘atda ko‘payib borishi demakdir.

Umuman mustaqillik yillarida yalpi ichki mahsulot o‘shishi bo‘yicha uch asosiy davrni ajratish mumkin. Birinchi 1991-1995 yillarni o‘z ichiga olib, bu davrni turli iqtisodiy-siyosiy omillar tufayli yuzaga kelgan depressiv davr, deb atash mumkin. Bunda asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar oldingi yilga va 1990 yilga nisbatan past bo‘lgan. Xususan, 1992 yilda o‘sinh, aslini olganda – kamayish juda sezilarligi qayl etiladi (88,9 %.). Ikkinchi davr 1997-2003 yillarni o‘z ichiga oladi. Bu yillarda yalpi ichki mahsulot (YAIM) qiymati oshib borgan, ammo barqaror bo‘lmagan. Eng

-jalval

**O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy rivojlanish ko‘rsatkichlari
(oldingi yilga nisbatan foizda)**

	1996	1997	1998	1999	2000	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010
Yalpi ichki mahsulot	101,7	105,2	104,3	104,3	103,8	104,2	104,0	104,2	107,4	107,0	107,5	109,5	109,0	108,1	108,5
Sanoat ishlab chiqarishi	102,6	104,1	103,6	105,7	105,9	107,6	108,3	106,0	109,4	107,2	110,8	112,1	112,7	109,0	108,3
Iste‘mol mollari	108,1	115,4	107,8	108,4	106,2	107,6	108,4	108,5	113,5	116,6	110,7	118,6	117,7	113,9	112,0
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	94,4	105,8	104,1	105,6	103,1	104,2	106,0	107,3	108,9	105,4	106,7	106,1	104,5	105,7	106,8

Jadval O‘zR Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari.

muhimi umumiy o'sish koeffitsiyenti aholi ko'payishidan yuqoriroq bo'lsada, bu nisbat 1:4 ko'rinishga bo'lmagan.

Uchinchi davr 2004 yildan boshlanadi va bu davrni barqaror o'sish yillari sifatida baholash mumkin. Sababi, bu davrda YAIM ning yillik ko'payish ko'rsatkichi muntazam ravishda 7,0 foizdan ortiq bo'lgan. Agar aholi ko'payish sur'atining 1,6-1,8 foiz atrofida deb olsak, nisbat 4 va undan ortiqrog'ni tashkil qiladi. Demak, makroiqtisodiy rivojlanish mamlakatimiz aholisining ijtimoiy holatini yildan-yilga yaxshilanib borishini ta'minlamoqda.

So'ngi 10 yil mobaynida (2000-2010 yillarda) YAIM o'sishi qariyb ikki martani tashkil qilgan, aholi jon boshiga hisoblaganda esa u 1,7 barobarga ortgan.

Sanoat ishlab chiqarish ko'rsatkichlari ham umumiy tarzda ko'tarilib borgan. Bu esa mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini sanoatlashib borishidan darak beradi. Ayniqsa eng oxirgi yillarda uning o'sish sur'atini yanada yuqori darajada ekanligi diqqatga sazovordir. Ta'kidlash lozimki, bunday darajaga asosan rangli metallurgiya, mashinasozlik sanoat tarmoqlarining jadal rivojlanib borishi negizida erishilgan. Sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'ati, oldingi yilga nisbatan hisoblanganda, xususan 2004 va 2006-2009 yillarda ancha yuqori bo'lgan. Yana shuni ta'kidlash o'rinliki, sanoat ishlab chiqarishning ko'rsatkichlari deyarli barcha yillarda (faqat 1997-1998 va 2010 yillar bundan mustasno) YAIM darajasidan ortiqroq bo'lgan.


O'zbekiston milliy iqtisodiyotining an'anaviy tarmog'i – qishloq xo'jaligida ham o'sish kuzatiladi. Biroq, bu o'sish, sanoat va yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlaridan farqli ravishda, bir tekis emas. Sababi, agroiqtisodiyot sohasining eng muhim xususiyati, ya'ni uning bevosita tabiiy-iqlim sharoiti bilan bog'liqligi uning turli sur'atlarda rivojlanishiga olib keladi.

Shuningdek, respublikamizda savdo, pullik xizmat, investitsiya, tashqi iqtisodiy aloqalar ham muntazam rivojlanib obrmoqda. Bu esa milliy iqtisodiyot tarkibidagi ijobiy o'zgarishlar, tarmoqlar tuzilishining diversifikatsiyasi, ya'ni turlanishi, globallashuv va xalqaro integratsiya, ijtimoiy sohalarga jiddiy e'tibor berilishi natijasida yuzaga kelmoqda.

Milliy iqtisodiyotda bozor islohotlarini amalga oshirish chuqurlashtirilib borilmoqda. Jumladan, 2010 yil yakunlari bo'yicha, yalpi ichki mahsulotning 81,7 foizi nodavlat sektorida yaratilgan va bu ko'rsatkich avvalgi yillarga qaraganda muntazam ko'tarilish xususiyatiga ega.

Yalpi ichki mahsulotning deyarli 1/4 qismini sanoat ishlab chiqarishi ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligining bu boradagi hissasi 17.8 foiz, transport va aloqa 11,4, savdo 9,0, qurilish 6,4 foizga barobar.

1-rasm. Yalpi ichki mahsulotning tarkibiy tuzilishi



Umumiy jarayon shundan iboratki, yalpi ichki mahsulotni yaratishda eng avvalo sanoat hissasi oshib borishidir. Bu ijobiy holat hisoblanadi, chunki mustaqillikning dastlabki yillarida gorizontalar (hududlararo) iqtisodiy aloqalarning buzilishi sababli sanoat, xususan og'ir sanoat tarmoqlari yaxshi rivojlanmadi va, natijada, milliy iqtisodiyotning sanoatlashuv darajasi ancha pasaydi. So'nggi yillarda esa amalga oshirilayotgan sanoatni mahalliyashtirish, xorijiy investitsiyalar hisobidan qo'shma korxonalar qurish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash darajasini oshirish va, umuman, mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishini jadal rivojlantirib borish Davlat dasturini amalga tadbiiq etish natijasida umumiy sanoat ishlab chiqarishining ulushi sezilarli darajada ortdi. Mazkur jarayon kelajakda ham saqlanib qolinadi.

Ayni vaqtda agroiqtisodiyot tarmog'ining nisbiy ko'rsatkichlari pasayib bormoqda. Bu, bir tomondan, boshqa tarmoqlarning ustuvorroq rivojlanib borishi bilan izohlansa, ikkinchidan, qishloq xo'jaligining ba'zi tarmoqlarida, masalan, paxta yetishtirishda yakuniy ko'rsatkichlarning pasayib borishi bilan bog'liqdir.

Asosiy tarmoqlarda sanoat ishlab chiqarishining qishloq xo'jaligiga nisbatan tezroq rivojlanishi birinchi xususiyat bo'lsa, xizmat (servis) sohalarning yuqoridagi tarmoqlarga nisbatan ustivorroq sur'atda rivoj topishi makroiqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlaridagi ikkinchi eng muhim jarayon hisoblanadi. Masalan, xizmat ko'rsatish sohalarning yalpi ichki mahsulot ichidagi hissasi 2005 yilda 39,5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 45,0 foizga yetdi.

Bozor islohotlarining yana bir asosiy ko'rsatkichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanib borishidir. Bu boradagi umumiy jarayon mazkur sohaning yildan-yilga yuksalishida o'z ifodasini topadi. 2010 yil yakunlari bo'yicha yalpi ichki mahsulotning 52,5 foizi aynan ichki tadbirkorlik zimmasiga tushadi. Uning 1/5 qismidan ko'prog'i mikrofirmalar, 20 foizga yaqini xususiy tadbirkorlar va qolgani kichik korxonalar to'g'ri keladi.

Demak, o‘zi “kichik” deb atalsada, uning milliy iqtisodiyotdagi mavqei “kattadir”. Ta’kidlash lozimki, kichik tadbirkorlik – biznesning ulushi kelgusida yanada ko‘tarilib boradi. Bunga prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan 2011 yilni “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” deb e’lon qilishi va bu borada maxsus Davlat dasturining qabul qilinishi katta amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi. Ushbu sohaning bevosita ijtimoiy ahamiyatini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik zarur, chunki, jami iqtisodiyot tarmoqlarida band bo‘lgan aholining 72-75 foizini ham aynan kichik tadbirkorlik ta’minlaydi. Qolaversa, respublikada o‘ta dolzarb bo‘lgan aholi bandligi muammosining yechimi ko‘p jihatdan shu soha rivojiga bog‘liq.

Kichik tadbirkorlikning hissasi ayniqsa qishloq xo‘jaligi, qurilish, pullik xizmat va savdoda yuqori. Masalan, jami qishloq xo‘jaligi mahsulotining 98 foizi, qurilishining 54-55, pullik xizmat mahsulotining yarmidan ko‘prog‘i, savdoning yarmiga yaqini aynan kichik tadbirkorlikka to‘g‘ri keladi.

Yuqorida qayd etilganidek, mamlakatimizning jahon iqtisodiyotiga, globallashuv jarayoni tizimiga kirib borishi, uning eksport salohiyatining muntazam ortib borishi ro‘y bermoqda (bu haqda darslikning keyingi mavzularida batafsil ma’lumot beriladi). Bu borada, albatta, investitsiya hajmining ko‘payishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa mamlakat iqtisodiyoti tarkibini tubdan o‘zgartirish va uni diversifikatsiyalash eng avvalo shu omilga asoslanadi.

So‘nggi yillarda respublikamiz hududlarida qulay investitsiya muhitini yaratishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Bu esa xususan xorijiy investitsiyalarni mamlakatimizga jalb etishda muhim hisoblanadi. 2010 yilda milliy iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga 9,7 mlrd. AQSH dollari miqdorida investitsiyalar kiritilgan. Oldingi yilga nisbatan o‘shish 113,6 foizni tashkil qilgan (investitsiyaning umumiy hajmida o‘shish 109,2 % bo‘lgan). Jami investitsiya miqdorining $\frac{1}{4}$ qismidan ko‘prog‘i xorijiy investitsiyalarga to‘g‘ri keladi, uning $\frac{3}{5}$ qismini esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb etilgan investitsiyalar tashkil qiladi. Umuman olganda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqaror o‘shib borishini ta’minlash investitsiya hajmini muntazam ravishda ko‘paytirib borishga bog‘liq. Investitsiya qurilishga, qurilish esa iqtisodiy o‘shishga zamin yasaydi, iqtisodiy taraqqiyot, o‘z navbatida, aholning ijtimoiy holatini yaxshilashga asos bo‘lib xizmat qiladi. 2010 yil yakunlari bo‘yicha, investitsiyalar umumiy hajmining 71,6 foizi bevosita ishlab chiqarish tarmoqlariga yo‘naltirilgan. So‘ngi yillarda investitsiyalarning hududiy tarkibida Toshkent shahri, Buxoro hamda Qashqadaryo viloyatlari (xususan chet el investitsiyalarini jalb etishda) yetakchilik qilishmoqda.

Ma’lumki, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning pirovard maqsadi aholi turmush sharoiti va darajasini yaxshilash, ijtimoiy muammolarni izchil hal qilib borishdan iboratdir. Bu xususan chakana savdo, pullik xizmat, aholi daromadlarining oshib borishi katta ahamiyatga ega.

Birgina 2010 yilda chakana savdo aylanmasi 2009 yilga nisbatan 114,7 foizga ortgan. Bu davrda pullik xizmatlar hajmi 113,4 foizga o'sgan. Aholiga pullik xizmat ko'rsatishning 3/5 qismidan ko'prog'ini rasmiy sektor ta'minlaydi. Uning qolgan qismi esa yakka tadbirkorlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarga to'g'ri keladi.

1.2. Respublika sanoati va uning tarmoqlar tarkibi

Ba'zi olimlar fikricha, jamiyat asosan uch bosqichda rivojlanib borgan: sanoatgacha, sanoat va sanoatdan keyin ("postindustrial") davr yoki jamiyat. Respublikamiz iqtisodiyoti, umuman olganda, ikkinchi, ya'ni sanoat bosqichida turibdi. Shu bois, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish ko'p jihatdan aynan ishlab chiqarish jarayonining sanoatlashuviga bog'liq.

Sanoat, qisqacha aytganda, asosan tabiatdan olingan xom ashyoga qayta ishlov berish natijasida o'zining dastlabki holatini o'zgartirgan mahsulot turlarini o'z ichiga oladi. Dastlabki sanoat tarmoqlari bevosita tabiatdan olingan. Masalan, tog'-kon sanoati, baliqchilik, qurilish materiallari sanoati shular jumlasidandir.

Hozirgi davrda sanoat korxonalarini va ular yaratadigan mahsulot nihoyatda xilma-xil. Ularning turlari innovatsiya jarayonida va o'zgaruvchan iste'mol ehtiyoji ta'sirida yanada ortib bormoqda. Binobarin, bunday murakkab tarkibga ega bo'lgan sanoat ishlab chiqarishini boshqarish va o'rganish uchun sanoat korxonalarini turli guruhlariga ajratiladi. Ularning eng asosiysi sanoat tarmoqlaridir. Sanoat tarmoqlari ma'lum mezonlarga asoslanadi; bu tarmoqlar xom ashyo birligi, mahsulotni qaysi maqsadda yaratilganligi hamda texnologik jarayonning umumiylikiga ko'ra asoslanadi.

Sanoat tarmoqlari, o'z navbatida, og'ir va yengil, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi yirik guruhlariga birlashtiriladi. Bozor munosabatlariga o'tgan davlatlarda esa sanoat korxonalarini mulkchilik shakliga qarab davlat va nodavlat tasarrufidagi korxonalariga bo'linadi.

Sanoat korxonalarini va tarmoqlarini qator omillar ta'sirida joylashtiriladi yoki hududiy tashkil etiladi. Bu omillarning asosiylari xom ashyo, elektr energiya, transport, mehnat resurslari iqtisodiy geografik o'rin va boshqalar hisoblanadi. Shu bilan birga, hozirgi davrda ilmiy-texnika, iste'mol, ekologiya, bozor iqtisodiyoti kabi omillarning ahamiyati ham oshib bormoqda. Umumiy jarayon shundan iboratki, ***sanoat ishlab chiqarishining xom ashyo, energiya va mehnat talabini tobora kamayib bormoqda.*** Bu esa mazkur soha iqtisodiy samaradorligini oshirishning eng muhim omilidir. Ayni vaqtda sanoat tarmoqlarining ilmtalab, kam metal, xom ashyo va ishchi kuchi talab qiluvchi xususiyatlari kuchayib bormoqda

O‘zbekiston hududida qadimdan, ba’zi sanoat turlari mavjud bo‘lgan (tog‘-kon sanoati, metal eritish, to‘qimachilik va b.). Ular bu yer uchun an’anaviy sanalgan hunarmandchilik asosida rivojlanib borgan. Hozirgi zamon sanoatining dastlabki korxonalari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida vujudga kelgan. Masalan, Farg‘ona vodiysida neft konlarining topilishi va ishga tushirilishi, paxta tozalash, ko‘nchilik zavodlari shular jumlasidandir.

O‘tgan asrning birinchi yarmida yengil, oziq-ovqat sanoatiga katta e‘tibor berilgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida respublikamiz hududida og‘ir sanoat korxonalari ham barpo etilgan. Ular front chizig‘idan ko‘chirilgan yoki front ehtiyoji uchun qurilgan korxonalar bo‘lgan (mashinasozlik, kimyo zavodlari, Bekobod metallurgiya zavodi va h.k.). Angren ko‘mir koni ham huddi shu davrda topilib, undan yoqilg‘i olish yo‘lga qo‘yilgan.

20 asrning ikkinchi yarmi, eng avvalo, rangdor metallurgiya, neft-gaz (xususan gaz), kimyo, elektr energetika kabi og‘ir sanoat tarmoqlarining faol rivojlanib borishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, bu davrda qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat (to‘qimachilik, yog‘-moy, konserva, vino va noalkogol ichimliklar ishlab chiqarish va b.) sanoati korxonalari ham ko‘plab qurilgan. 80-yillarda yirik korxonalarining, masalan, to‘qimachilik kombinatlarining qator filliallari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Farg‘ona viloyatlarida barpo etilgan va ular mahalliy xom ashyo hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida sobiq Ittifoqning parchalanishi, “gorizontal” ishlab chiqarish alohalarining buzilishi natijasida sanoat ishlab chiqarishida, ayniqsa og‘ir sanoatda muvaqqat muammolar vujudga kelgan. Bu muammolar iqtisodiyotni davlat rejalashtirish tizimidan bozor munosabatlariga almashtirish (o‘tkazish) bilan ham bog‘liq bo‘ldi. Biroq shunga qaramay, bu davrda qisman xorijiy investitsiyalar asosida yirik zamonaviy korxonalar barpo etildi. Asaka avtomobil zavodi, Buxoro (Qorovulbozor) neftni qayta ishlash zavodi, Qo‘ng‘irot soda zavodi, Tolimarjon IES, SHo‘rtang gaz-kimyo majmuasi yuqoridagilarga misol bo‘la oladi, respublikamizning qator tuman va shaharlarida to‘qimachilik korxonalari (“teks”lar) vujudga keldi, yirik korxonalar qayta ta’mirlandi.

Ayni vaqtda sanoat ishlab chiqarishida uning ijtimoiy tashkil etish shakllari, xususan mujassamlashuv, ixtisoslashuv, kooperatsiya va kombinatlashuv, bozor munosabatlari sharoitidan kelib chiqqan holda rivojlanib bormoqda. Kichik, ixtisoslashgan va bozor konyuturasiga tez moslashadigan korxonalar soni ko‘paymoqda.

Aytish mumkinki, O‘zbekiston sanoati yaqin o‘tmishdagi qiyinchiliklar davridan barqaror rivojlanish bosqichiga o‘tdi. Eng so‘nggi yillarda mamlakatimizning milliy iqtisodiyotni sanoatlashtirish siyosati, ishlab chiqarishda tarkibiy o‘zgarishlarni mahalliyashtirish

(“lokalizatsiya”) jarayonlarini amalga oshirish negizida sanoat ishlab chiqarishi yanada tez sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Masalan, birgina 2010 yilda u 8,3 foizga ko‘paydi.

Sanoatning respublika yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi muntazam ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda uning 1/4 qismiga yaqini sanoat ishlab chiqarishiga to‘g‘ri keladi. Makroiqtisodiyotning mazkur tarmog‘i 16 mingdan ziyod korxonalarni, birlashtiradi, ularda 620 ming kishiga yaqin ishchi-xizmatchilar band. Bu korxonalarining ko‘pchiligi oziq-ovqat, mashinasozlik va metalni qayta ishlash, yengil hamda qurilish materiallari sanoatidan iborat. Demak, aytish mumkinki, aynan shu tarmoqlar korxonalar darajasidagi mujassamlashuvining nisbatan past ko‘rsatkichlariga ega. Bu tabiiy hol, chunki hozirgi sharoitda o‘ta yirik korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligi uncha yuqori emas.

2010 yil ma’lumotlariga ko‘ra, jami sanoat korxonalarining aksariyati, yaratilgan mahsulotning 83,3 foizi nodavlat sektoriga to‘g‘ri keladi. Sanoatda band bo‘lganlar tarkibida esa ushbu sektorning ulushi yaqin 90 foizga teng.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdi-ki, sanoat mahsulotini ishlab chiqarishda yoqilg‘i, rangdor metallurgiya, mashinasozlik va metalni qayta ishlash hamda yengil sanoat yetakchilik qiladi. Sanoatda band bo‘lgan aholining eng katta qismi esa yengil sanoatga to‘g‘ri keladi. Ikkinchi va uchinchi o‘rinlarda mashinasozlik va metalni qayta ishlash, oziq-ovqat sanoatlari turadi. Shu bois, mazkur sanoat tarmoqlari sermehnattalab hisoblanadi.

-jadval

**O‘zbekiston sanoatining tarmoqlar tarkibi
(mahsulot hajmi bo‘yicha, jamia nisbatan foizda)**

Sanoat tarmoqlari	1995 y.	2000 y.	2005 y.	2010 y.
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Elektr energetika	14,8	8,5	11,3	8,4
Yoqilg‘i	13,7	15,3	16,3	19,2
Qora metallurgiya	1,3	1,3	2,3	2,4
Rangdor metallurgiya	10,1	10,2	17,1	11,3
Kimyo va neft kimyosi	5,3	6,0	5,2	5,1
Mashinasozlik va metalni qayta ishlash	8,9	9,9	13,0	16,2
O‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va selyuloza-qog‘oz sanoati	1,1	1,4	0,9	1,1
Qurilish materiallari sanoati	6,6	5,4	3,6	5,0
Yengil sanoat	19,9	19,1	16,6	13,4
Oziq-ovqat sanoati	9,3	13,3	8,2	12,6
Sanoatning boshqa tarmoqlari	9,0	9,6	5,5	5,3

Jadval O‘zR Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Tabiiyki, sanoat ishlab chiqarishining asosiy fondlarida og'ir sanoat tarmoqlari oldinda turadi. Ushbu xususiyatni yoqilg'i sanoatida ishlovchilar hissasi ham tasdiqlab beradi. Shuningdek, rangdor va qora metallurgiya sanoat korxonalarining ham fond sig'imi katta.

Mustaqillik yillarida yoqilg'i-energetika va oziq-ovqat xavfsizligiga katta e'tibor berildi. Shu bilan birga, ko'pchilik boshqa sanoat tarmoqlari ham rivojlanib bormoqda. Masalan, 1995-2007 yillar mobaynida jami sanoat mahsuloti 2,2 martaga oshgan. O'sish xususan o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoatida (7,2 marta), mashinasozlik va metalni qayta ishlash tarmog'i (4,8 marta), oziq-ovqat (4,0 marta), kimyo va neft kimyosi sanoatida (3,4 marta) yuqori bo'ldi.

Eng so'ngi yillarda mashinasozlik va metalni qayta ishlash, kimyo va neft kimyosi hamda yohochni qayta ishlash va sellyuloza-qohoz sanoati tarmoqlari jadal rivojlanib bormoqda. Masalan, 2001 yilda umumiy sanoat mahsuloti o'rtacha 104,2 foizga o'sgan holda, bo' ko'rsatkich mashinasozlik va metalni qayta ishlash tarmog'ida bundan deyarli 6 marta ortiqroq bo'lgan. 2002 yil natijalari bo'yicha oziq-ovqat (avvalgi yilga nisbatan 119,2 %), 2003 yilda – mashinasozlik va metalni qayta ishlash, 2004 yilda – qora metal va mashinasozlik, 2005 yilda – mashinasozlik va yog'ochni qayta ishlash, 2006 yilda oziq-ovqat, mashinasozlik va yog'ochni qayta ishlash, 2007 yilda yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qohoz sanoati hamda kimyo va neft kimyosi, 2008 yil natijalariga ko'ra yog'ochni qayta ishlash, yoqilg'i va mashinasozlik, 2009 yilda ham aynan shu tarmoqlar ustuvor darajada rivojlanib borgan. 2010 yil natijalari bo'yicha esa umumiy o'sish 108,3 foizga teng bo'lgan holda, bu ko'rsatkich yengil sanoatda 117,3 %, kimyo va neft kimyosida 115,4 %, oziq-ovqat sanoatida 113,1 foizni tashkil qilgan.

2010 yil yakunlariga ko'ra, respublikamizda 51,7 mlrd kVt/m elektr energiya, 3,9 mln t. neft va gaz kondensati, 731,4 ming t. po'lat, 691 ming t. tayyor prokat, 1135 ming t. har xil mineral o'g'itlar, 217,7 ming dona yengil avtomobillar, 6872 ming t. sement, 1125 ming t. paxta tolasi, 83,6 mln kv.m ip gazlamalari, 236 ming t. o'simlik yog'i, 1217 ming tonna un va boshqa sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

Mustaqillikdan oldingi 1990 yilga taqqoslasak, elektr energiya (56,3 mlrd kVt/s), po'lat (1014,5 ming t.), prokat (955,2 ming t.), mineral o'g'itlar (1761,8 ming t.), sement (6385 ming t.), paxta tolasi (1635,7 ming t.) kabi ba'zi bir mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi kamaygan. Bunday holatning yuzaga kelishi ko'p omillarga jumladan, bozor munosabatlariga o'tish davrining qiyinchiliklari, talab yoki ehtiyojning kamayishi, sifat ko'rsatkichlarining yaxshilanishi va boshqalarga bog'liq bo'lgan.

Shu bilan birga alohida qayd etish joizki, mamlakatimizda sobiq Ittifoq davrida mavjud bo'lmagan mutlaqo yangi mahsulot turlari, masalan, yengil va yuk avtomobillari, avtobuslar,

soda, kealiy o'g'itini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi, neft va yog'och mahsulotlari ancha ko'paydi va h.k. Ayni vaqtda sanoatni modernizatsiyalash, yangi zamonaviy texnologik jihozlashga, uning tarkibiy tuzilishini boyitishga, ya'ni diversifikatsiya qilishga katta e'tibor qaratildi. Xususan, ichki bozorni xaridorgir, sifatli xalq iste'mol mollari bilan to'yintirishga ahamiyat berildi. Mamlakatimizning bunday sanoat siyosati yaqin kelajakda ham saqlanib qoladi. Bevosita sanoat ishlab chiqarishda esa ikki qarama-qarshi jarayon davom etadi: bir tomondan yirik sanoat tarmoqlari tarkibida yangi sanoat tarmoqlari vujudga keladi, ikkinchi tomondan, iqtisodiy integratsiya asosida tarmoqlararo majmualar shakllanib boradi.

1.3. Og'ir, yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlanishining hududiy jihatlari

Yoqilg'i-energetika majmui. Yoqilg'i va elektr energetika sanoati bir-biri bilan yaqindan bog'liq. Shu sababli ularni yagona tarmoqlararo sanoat majmuasi sifatida ko'rish mumkin. Qolaversa, aynan shu majmua har qanday mamlakat yoki mintaqa iqtisodiyotida katta ahamiyatiga ega. Chunki, barcha ishlab chiqarish tarmoqlari bevosita yoki bilvosita yoqilg'i va elektr energetika sanoatiga asoslanadi. Binobarin, mustaqil davlatning umumiy iqtisodiy xavfsizligi, eng avvalo, uning yoqilg'i-energetika sohasidagi mustaqilligiga ham bog'liq.

Respublikada **yoqilg'i sanoati** tarkibiga ko'mir, neft va gaz qazib chiqarish kiradi. Hozirgi O'zbekiston hududida dastlabki neft konlari XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Farg'ona viloyatida ochilgan (Chimyon, SHO'rsuv), 1924 yilda Qo'qon shahrida "O'zbekneft" tresti tashkil qilingan.

Hozirgi paytda neft zahiralari bo'yicha Qashqadaryo viloyati yetakchilik qiladi. Bu yerda eng yirik kon Ko'kdumaloq hisoblanadi. Shuningdek, neft konlari Surxondaryo (Ko'kaydi, Lalmikor), Andijon (Polvontosh, J.Olamushuk), Namangan (Mingbuloq) viloyatlarida ham bor. U qisman Buxoro viloyatida ham qazib olinadi. Istiqbolli hududlar esa, eng avvalo, Qoraqalpog'istonning Orolbo'yi va Ustyurt platosi, Surxon vodiysi hisoblanadi. Hozirgi kunda Oqshaloq, Shaxpaxti, Urga kabi konlardan neft olinmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda bir yilda o'rtacha suyultirilgan gaz bilan hisoblangan 3,0-4,0 mln tonna neft qazib olinadi. Uning asosida neftni qayta ishlash sanoati ham rivojlanib bormoqda.

Tabiiy gaz sanoati respublikamizda neft sanoatidan keyinroq, lekin aksariyat hollarda "yo'l-yo'lakay" neft va gazni birgalikda qazib olish bilan bog'liq bo'lgan. Ushbu sanoat tarmog'ining keng ko'lamda rivojlanishi 1950-1960 yillarda Buxoro viloyatida juda katta zahiraga ega bo'lgan Gazli konini ishga tushirilishi bilan boshlangan. Jumladan, 1955 yilda Jarqoq, 1956 yilda Gazli konlari ochilgan. Aynan shu konlar asosida Jizzax – Buxoro – Samarqand – Toshkent (1958-1960 yy.), Buxoro-Chelyabinsk (1963 y.), Buxoro-Ural (1965 y.), O'rta Osiyo – Markaz

(1967 y.) magistral gaz quvurlari qurib, ishga tushirilgan. Markaziy Osiyo respublikalari uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan Buxoro-Toshkent-Frunze (Bishkek)-Olma-ota gaz quvuri ham o'tgan asrning 60 nchi yillarida qurilgan.

Hozirgi vaqtda o'rtacha bir yilda 58-60 mlrd. kub m. atrofida (2009 y.-61.4, 2010 y.-60.1 mlrd kub m.) gaz qazib olinadi. Respublikamizda gaz sanoatining kelajakda rivojlanishi ko'p jihatdan Ustyurt platosida Rossiya kompaniyalari bilan borilayotgan geologik-qidiruv ishlar natijalariga bog'liq. Umuman neft-gaz zaxiralari qidirib topishdi. O'zbekiston Rossiya, J.Koreya, Malayziya, Eron mamlakatlari bilan hamkorlik qiladi. Mustaqillik davrida yoqilg'i sanoatining birmuncha faolroq o'sishi 1993 va 2008 yillarda kuzatiladi.

Barcha yoqilg'i sanoat turlarida bo'lganidek respublikamizda ko'mir qazib olish ham avvalgi yillarga qaraganda qisman kamaygan. Faqat eng keyingi yillarda bu ko'rsatkichning ko'tarilib borish alomatlari sezilmoqda. Masalan, 2004 yilda respublikada jami 2699 ming t ko'mir (qo'ng'ir ko'mir 2641 ming t) qazib olingan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar 2010 yilda taxminan 1,3-1,5 martaga oshgan. Jami ko'mirning 97,4 foizi qo'ng'ir ko'mirga to'g'ri kelib, u to'la-to'kis ochiq usulda qazib olinadi.

Ko'mir sanoatining geografiyasi neft yoki gaz sanoatiga nisbatan keng emas, u faqat Toshkent (Angren) va Surxondaryo (Sharg'un, Boysun) viloyatlarida birmuncha rivojlangan, xolos. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, qo'ng'ir ko'mirning iqtisodiy ahamiyati toshko'mirga qaraganda ancha past. Jumladan, turli sabablarga ko'ra, bu ko'mir turidan qora metallurgiyada foydalanib bo'lmaydi; boz ustiga, qo'ng'ir ko'mirni, odatda, ko'p saqlab bo'lmaydi. Transport qilish ham noqulay, u sernam va serkul hisoblanadi. Shu bois, Angren qo'ng'ir ko'miridan asosan IESlarida foydalaniladi.

Mazkur majmua tarkibida **elektr energetika** alohida o'rin tutadi. Elektr energiya turli manbalardan ishlab chiqariladi va uning eng muhim xususiyati bu sanoat tarmog'i rivojlanish va joylanishini belgilab beradi. Gap shundaki, elektr energiyasini yoqilg'i turlariga o'xshab omborxonalarda saqlab, to'plab bo'lmaydi, uni ayni vaqtda, sinxron ravishda iste'mol qilinishi kerak.

Mamlakatning yoqilg'i-energetika balansi iqtisodiyotda turli manbalardan ishlab chiqarilgan yoqilg'i va elektr energiyasidan foydalanish nisbati bilan tavsiflanadi. O'z navbatida, elektr energiya ko'mir, yonuvchi slanets, torf, neft va gaz, quyosh radiatsiyasi, radioaktiv elementlar (uran) shamol, "priliv va otliv", suv asosida ishlab chiqariladi. Qaysi manbadan foydalanishga qarab elektr stansiyalar asosan ikki katta guruhga bo'linadi— issiqlik va suv elektr stansiyalari.

Issiqlik elektr stansiyalari (IES) ko‘proq ko‘mir, torf, yonuvchi slanets asosida ishlab chiqarish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yoqilg‘ining boshqa turlari, jumladan neft yoki tabiiy gazdan foydalanish uncha maqbul emas, sababi ular kimyo sanoti uchun muhim xom ashyo bazasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.


Dunyo mamlakatlari elektr energetikasida issiqlik, atom va suv elektr stansiyalarining ulushi har xil. Bunday holat joyning relyefi va gidroenergetika resurslari, foydali qazilmalariga bog‘liq. Masalan, yer usti tuzilishi tog‘lardan tashkil topgan mamlakatlarda (Gruziya, Tojikiston, Qirg‘iziston va b.) elektr energiya asosan suv elektr stansiyasida ishlab chiqariladi. Bu turdagi elektr stansiyalaridan olingan mahsulot ancha arzon hisoblanadi, chunki suv-suvligicha qolaveradi, IESlarda esa yoqilg‘i turlari tiklanmaydigan tarzda sarflanadi¹.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda elektr energetika respublika yalpi sanoat mahsulotining 8-10 foizini ta‘minlamoqda; unda jami sanoat xodimlarining 6-9 foizi band. Har yili o‘rtacha 50-52 mlrd kVt/s miqdorida elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Elektr stansiyalarining tarkibida IES yetakchilik qiladi va ular jami elektr stansiyalar ishlab chiqqan elektr energiyaning 85-87 foizini tashkil qiladi. Suv elektr stansiyalariga (SES) esa bor-yo‘g‘i 13-15 % to‘g‘ri keladi. Elektr stansiyalar quvvatida ham nisbat tahminan shunday: umumiy quvvatning 86,3 foizi IES zimmasiga tushadi.

Avval ta‘kidlaganimizdek, so‘nggi 15-20 yilda respublikada elektr energiyasini ishlab chiqarish turli sabablarga ko‘ra birmuncha qisqargan. Taqqoslash uchun: 1990 yilda jami 56,3 mlrd kVt/s elektr energiya olingan, uning 11,8 foizi SESga to‘g‘ri kelgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bu davrdagi pasayish asosan IES hisobidan sodir bo‘lgan. 1990 yilda SESda 66,48 mlrd kVt/s elektr energiyasi ishlab chiqilgan bo‘lsa, 2010 yilda bu ko‘rsatkich 51,7 mlrd kVt/s-ni tashkil etgan. Umuman olganda, ushbu sanoat tarmog‘ining nisbatan tezroq rivojlanishi 1999-2000 yillarda qayd etiladi.

2-rasm. Elektr energiyasini ishlab chiqarishda yetakchi viloyatlar (respublikaga nisbatan foizda)

¹ So‘ngi yillarda jahon miqyosida atom elektr stansiyalariga munosabat ancha salbiy tus oldi. Bunga eng avvalo Yaponiyada yuz bergan kuchli yer qimirlashi va natijada Srukosima AESning ishdan chiqishi, uning atrof-muhitga radiatsion ta‘siri bo‘ldi.



Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, so‘ngi yillarda Toshkent viloyatida respublikaning yaqin 2/5 qism elektr energiyasi ishlab chiqarilgan; ikkinchi o‘rinda Sirdaryo viloyati turadi. Shuningdek, Navoiy va Qashqadaryo viloyatida ham ushbu ko‘rsatkich sezilarli darajada. Jami 4 ta viloyat O‘zbekistonning 91,0 foiz elektr energiyasini ta‘minlaydi.

Yana 1990 yil bilan taqqoslamochi bo‘lsak, bunda eng avvalo elektr energetika sanoati geografiasining kengayganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, mustaqillikdan oldin Qashqadaryo viloyatida ushbu sanoat tarmog‘i deyarli yo‘q darajada edi. Shu bilan birga ta‘kidlash joizki, elektr energiyasi ishlab chiqarishning qisqarish jarayoni barcha viloyatlarda ko‘zga tashlanadi. Jumladan, ko‘rilayotgan davrda Toshkent viloyatining ko‘rsatkichi 24,9 mlrd kVt/soatdan 17,8 ga, Sirdaryo viloyatida 8,6 dan 6,7 ga, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 3,4 dan 2,6 ga, Farg‘ona viloyatida 2,0 mlrd kVt/soatdan 0,6 mlrd kVt/soatga tushib qolgan. Umumiy qisqarishning hatto Qashqadaryo viloyatida yangi barpo etilgan Tolimarjon IES ham qoplay olmagan. Demak, asosiy o‘zgarishlar IES hisobidan bo‘lib, ular ushbu tipdagi elektr stansiyalarning belgilangan quvvatidan to‘la foydalanmaslikka bog‘liq. Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmining qisqarishi esa turli sabablarga, jumladan, ishlab chiqarishda energiya sarfining pasaytirish, qo‘ng‘ir ko‘mir qazib olinishining kamayishi kabilar oqibatida yuz bergan.

Hozirgi vaqtda respublikamizning eng yirik IES Sirdaryo, Toshkent, Navoiy, Yangi Angren, Tolimarjon stansiyalari hisoblanadi.

Avval qayd etilganidek, mamlakatimizda ishlab chiqariladigan elektr energiyaning 1/10 qismidan ko‘prog‘i SESlarga to‘g‘ri keladi. Jami mavjud elektr stansiyalarning loyihaviy quvvati 1710 mVt (IES – 10756 yoki SES larga qaraganda deyarli 6 marta ziyod).

Dastlabki SES Toshkent viloyatida 1926 yilda Chirchiq yaqinida qurilgan. Bugungi kunda Chirchiq-Bo‘zsuv kaskadi 20 ga yaqin elektr stansiyalarini birlashtiradi. Bir suv manbaida bunchalik ko‘p elektr stansiyalarning qurilishi, ya‘ni “zanjiri” bo‘yicha Chirchiq-Bo‘zsuv kaskadi MDH davlatlarida eng yirik hisoblanadi. Ushbu qator elektr stansiyalar orasida eng yirigi Chorbog‘ SES hisoblanadi. Shuningdek, Xo‘jakent SES ham ancha katta quvvatga ega. Chorbog‘

SES bosh elektr stansiya bo‘lib, u quyi elektr stansiyalarning barqaror ishlash rejimini ta‘minlab turadi.

-jadval

Asosiy issiqlik elektr stansiyalari haqida qisqacha ma‘lumot

T/r	IES nomi	Ishga tushirilgan yili	Energiya bloklari soni	Loyixaviy quvvati, MVt	Yoqilg‘i turi
1	Sirdaryo	1972	10	3000	gaz, mazut
2	Yangi Angren	1985	7	2100	gaz, ko‘mir
3	Toshkent	1963	12	1920	gaz
4	Navoiy	1961	11	1270	gaz
5	Angren	1957	8	600	ko‘mir
6	Farg‘ona	1956	6	215	mazut
7	Muborak	1985	2	100	gaz
8	Taxiatosh	1961	5	720	gaz
9	Tolimarjon	2004	1	800	gaz

Jadval muallif tomonidan tuzilgan.

Mazkur stansiya energetika-irrigatsiya rejimida qurilgan, binobarin, uning yirik suv ombori viloyat qishloq xo‘jalik yerlarini sug‘orishda katta ahamiyatga ega. Jumladan, yirik Parkent kanali ham shu suv omboridan boshlanadi. Shu bilan birga, Chorbog‘ SES va uning suv ombori atrofida sport, baliq ovlash, rekreatsiya ob‘ektlari rivojlangan.

Toshkent viloyatidan tashqari uncha katta bo‘lmagan SES (Andijon viloyati va Xorazm viloyatida) ham ishlab turibdi. Umuman olganda esa, SES respublikamiz orografik va gidrografik vaziyatga ko‘ra, qo‘shni – Tojikiston va Qirg‘iziston respublikalariga qaraganda uncha rivojlanmagan.

O‘zbekiston elektr stansiyalari yuqori quvvatli elektr o‘tkazgich tarmoqlari (liniyalari) bilan yagona energetika tizimini tashkil qiladi. Yaqin o‘tmishda Qashqadaryo viloyatidan Surxondaryoga, Toshkent viloyatidan Farg‘ona vodiysi viloyatlariga yuqori voltli elektr o‘tkazuvchi tarmoqlar qurildi.

Metallurgiya majmuasi. Ushbu majmua o‘z tarkibiga qora va rangli metallurgiya, turli xil rudalarni qazib olish, ularni boyitish va bevosita metal eritish kiradi. Uning dastlabki bosqichlari xomashyotalab hisoblanganligi sababli tog‘-kon sanoati foydali qazilmalar joylashgan hududlarda tashkil etiladi.

O‘zbekiston sanoat ishlab chiqarishida metallurgiya majmuasi 13,7 foiz mahsuloti bilan ishtirok etadi. Majmua tarkibida esa rangdor metallurgiya sanoatining ulushi yuqori bo‘lib, u 11,3 foizni (qora metallurgiya 2,4 %) tashkil qilgan holda, bu borada yoqilg‘i sanoatidan keyingi ikkinchi o‘ringda turadi.

So‘nggi yillarda majmua tez sur‘atlarda rivojlanib bormoqda. Xususan qora metallurgiya sanoatining ko‘rsatkichlari yuqori. Masalan, 1995-2010 yillar mobaynida jami sanoat mahsuloti

2,2 marta ko'paygan bo'lsa, qora metallurgiyada bu ko'rsatkich deyarli 3 barobarga teng bo'lgan. Shuningdek, mazkur sanoat tarmoqlarida band bo'lgan aholi soni ham ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda rangdor metallurgiya sanoat korxonalarida 65 ming, qora metallurgiya korxonalarida esa 9 ming kishi band. Har ikkala tarmoqda ishlovchilar jami sanoat ishchi-xodimlarining 1/10 qismini tashkil qiladi.

Qora metallurgiya sanoatining asosiy korxonasi Bekobod shahridagi respublikada yagona O'zbek metallurgiya kombinati hisoblanadi. O'zining texnologiya jarayoniga ko'ra bu to'liq shaklga ega bo'lmagan metallurgiya kombinatidir. Sababi, bu yerda asosiy metallurgiya siklining domna pechida cho'yan eritish qismi mavjud emas, metallomdan po'lat va prokat ishlab chiqariladi.

Korxonada Ikkinchi jahon urushi yillarida qurilgan. Uning aynan Bekobod shahrida joylashtirilishiga qator omillar bilan, shuningdek, shaharning qulay transport geografik o'rni, qurilish va elektr energiya manbaining borligi ta'sir etgan. Shahar yaqinida Farhod SES, uning o'zida esa 1914 yilda qurilgan qadimgi Xilkovo sement zavodi joylashgan.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda to'liq siklli qora metallurgiya siklini barpo etish uchun tegishli shart-sharoitlar mavjud emas. Qolaversa, yirik sanoat zahiralari ega bo'lgan temir ruda koni yoki konslanuvchi toshko'mir koni ham mamlakatimiz hududida aniqlanmagan. Shu bois, bu tarmoq yoki bevosita metallurgiya jarayonining birlamchi, ya'ni cho'yan erituvchi bug'ini respublikada tashkil etilmagan.

Biroq shunga qaramasdan, korxonada ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi tobora ko'payib bormoqda. Agar 2004 yilda bu yerda 602,2 ming tonna po'lat eritilgan bo'lsa, 2010 yilda u 731,4 ming tonnaga yetdi. Tayyor prokat ishlab chiqarish ham huddi shunday darajada ortib borgan: 2004 yilda 550,7 ming t., 2010 yilda – 691,6 ming tonna yoki bu davrda 125,6 foizga ko'paygan.

Kombinatda po'lat eritish hajmining ortib borishi, eng avvalo, elektr pechlarini ishga tushirish bilan bog'liq bo'lgan. Hozirgi vaqtda jami olinadigan po'latning 85-86 foizi aynan shu elektr pechlariga to'g'ri keladi.

Qora metallurgiyaga qaraganda rangli metallurgiya mamlakatimizda kengroq tarqalgan va uning iqtisodiy ahamiyati ham yanada yuqoriroq. Bu, o'z navbatida, respublikamizda ushbu sanoat tarmog'i uchun mustahkam xom ashyo bazasining mavjudligiga asoslanadi. Ilgarigi mavzularda qayd etilganidek, O'zbekiston hududida mis, oltin, volfram, molibden, uran kabi metallar koni ko'plab topilgan.

Ma'lumki, rangli metallurgiya qator muhim xususiyatlarga ega. *Birinchi*dan, ruda tarkibida kerakli metalning miqdori (ulushi) o'ta oz. Shuning uchun juda katta hajmli tog' jinslari

qazib olinadi va qayta ishlanadi. *Ikkinchidan*, ruda tarkibida bir emas, bir necha metal komponentlari bor. Bu esa olinadigan xom ashyoni kombinat usulida har tomonlama (kompleks) qayta ishlashni talab qiladi. *Uchinchidan*, rangli metallarni eritish nihoyatda ko'p elektr energiyani iste'mol qiladi, demak, ushbu sanoat tarmog'ining yuqori texnologik bosqichlari elektr manbalariga yaqinroq joylashtirilishi kerak. Nihoyat, *to'rtinchidan*, rangli metallarni eritish ekologik jihatdan ancha xavfli hisoblanadi. Shu sababdan, yirik kombinatlar atrofida ayrim muammolar vujudga keladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, rangli metallurgiya korxonalarini hududiy tashkil etish nisbatan murakkab bo'lib, bunda qator omillar ta'siri muvofiqlashtirilishi zarur bo'ladi. Bevosita tog'-kon sanoati rayonlarida esa landshaft shakllari buziladi, "yomon" yerlar (vodlend) vujudga keladi. Bunday texnogen landshaftlarda rekultivatsiya masalalari ham keskin tus oladi.

Mamlakatimiz oltin, mis, uran, volfram olish bo'yicha ko'zga ko'rinarli mavqega ega. Aynan ular respublika eksport salohiyatiga ham o'z hissalarini qo'shishadi. Bu xususda avvalambor Navoiy va Olmaliq tog' metallurgiya kombinatlarini alohida ta'kidlash joiz. Navoiy TMK viloyat sanoati mahsulotining asosiy qismini ta'minlaydi. Uning xom ashyo bazasi ko'proq shu viloyatning o'zida, qisman unga tutash bo'lgan hududlarda joylashgan. (masalan, Buxoro viloyatining G'ijduvon tumaniga qarashli Zafarobod shaharchasida).

Olmaliq TMK ham katta ishlab chiqarish salohiyatiga ega. Bu yerda mis, oltin va boshqa metallar olinadi. Uning negizida Angren-Olmaliq tog'-kon sanoati rayoni yoki hududiy majmuasi shakllangan. Xom ashyo Toshkent viloyatidan tashqari Jizzax viloyatidan ham olinadi.

Rangli metallurgiya sanoatining uchinchi yirik korxonasi Chirchiq shahridagi O'tga chidamli va qiyin eruvchi metallar kombinati sanaladi. U asosan Jizzax viloyatining Qo'ytosh, Samarqand viloyatining Ingichka volfram konlaridan xom ashyo oladi.

Shunday qilib, qora va rangli metallurgiya Toshkent va Navoiy viloyatlarida rivojlangan. Olmalik, Navoiy, Chirchiq, Marjonbuloq, Uchquloq, Yangiobod, Qiziltog', Chig'iriy kabi sanoat markazlari va punktlari shakllangan. Shuningdek, rangli metallurgiya sanoatiga tegishli ayrim kichik korxonalar boshqa viloyatlarda, jumladan Namangan (Chodak) hamda Buxoro (Zafarobod) viloyatlarida ham mavjud.

Kelajakda rangli metallurgiya sanoati Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida ham rivojlanishi mumkin. Samarqand viloyatidagi Zarmitan oltin koni, Surxondaryoning Xonjiza polimetal konlari bunga asos bo'la oladi. 2004 yildan boshlab Xonjiza koni Olmaliq TMK tasarrufiga berilgan.

Kimyo va neft kimyo sanoati. Kimyo va neft kimyo sanoati o'z nomiga mos holda ikki qismdan, ya'ni neft hamda neft kimyo tarmoqlaridan iborat. Bevosita kimyo sanoatining rivojlanishi va hududiy tashkil etilishi o'ziga xos, betakror xususiyatlarga ega.

Shu o'rinda, eng avvalo unutmaslik lozimki, bu sanoat tarmog'i tarmoq hosil qiluvchi mezonlarga ko'ra yagona hisoblanadi, u texnologik jarayon birligi bo'yicha tashkil topgan. Kimyo sanoatining joylashuvi o'ta murakkab: bir tomondan ushbu sanoat tarmog'ining korxonalari erkin joylashuv imkoniyatlariga ega. Boshqacha qilib aytganda, kimyo sanoatining xom ashyo bazasi keng, u mineral resurslar, o'simlik va hayvonot xom ashyosi, turli xil sanoat ishlab chiqarishi chiqindilari asosida, hatto havodagi azot hisobidan ham rivojlanishi mumkin. Bu sanoat tarmog'i boshqa sanoat turlari, jumladan, rangdor va qora metallurgiya, o'rmon, yog'och va sellyuloza-qog'oz, oziq-ovqat sanoat korxonalari bilan texnologik bog'liq holda rivojlanib boradi. Binobarin, kimyo sanoatiga ishlab chiqarishning kooperatsiyasi va kombinatlashuvi yuqori darajada tegishlidir, uning negizida murakkab energiya ishlab chiqarish sikli ham shakllanadi.

Ikkinchi tomondan, kimyo sanoati korxonalarini hududiy tashkil etish birmuncha cheklangan. Sababi, u ekologik jihatdan ancha "xavfli" bo'lganligi tufayli, bunday korxonalarni istagan joyda qurish mumkin emas. Neft kimyosi sanoati esa, odatda neftni qayta ishlash markazlarida rivojlanadi. Neftni qayta ishlash zavodlari asosan 3 variantda: xom ashyo, qulay transport geografik o'rin va iste'mol omillari ta'sirida joylashtiriladi. Ulardan ko'proq uchraydigani bunday zavodlarni iste'mol rayonlarida tashkil etish hisoblanadi. Chunki, turli neft mahsulotlarni keltirgandan ko'ra bevosita neft xom ashyosini keltirib, undan joylarda kerakli mahsulotlar ishlab chiqarish ma'qulroq (bunda transport xarajatlari ham keskin qisqaradi).

O'zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud: turli xil tuz konlari, tabiiy gaz va qisman neft, dorivor o'simliklar, rangdor metallurgiya korxonalarining borligi va h.k Ular asosida ushbu tarmoq korxonalari tashkil etilgan.

Mustaqillik yillarida kimyo va neft kimyo sanoati jadal rivojlanib bordi. Masalan, 1995-2010 yillar mobaynida respublika jami sanoat mahsuloti 2,5 marta ko'paygan holda, mazkur tarmoq mahsuloti 3,6 barobar oshdi. Ayniqsa kimyo-farmatsevtika va lak-bo'yoq sanoati jadal rivojlandi. Umuman olganda esa, kimyo va neft-kimyo sanoatining tez rivojlanib borishi 1993, 1998-2002, 2006-2007 yy. va so'ngi 2010 yilda kuzatiladi. 2010 yil ma'lumotiga ko'ra, mazkur sanoat mamlakat jami sanoat mahsulotining 5,1 foizini beradi, unda band bo'lgan sanoat xodimlarining ulushi 6,4 % (40 ming kishi atrofida). Kimyo va neft kimyo sanoatining asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati ham 5,0 foizga yaqin.

Kimyo sanoatining asosiy mahsulotlari mineral o'g'itlar, oltingugurt kislotasi, kimyoviy tolalar, kalsiy va kaustik soda, o'simlikni himoya qilish vositalari va boshqalar. 2010 yilda 1314

ming tonna, sun'iy ammiak, 1135 ming t. mineral o'g'itlar, 1190 tonna oltingugurt kislotasi, 16 ming t. kimyoviy tolalar, 23 ming t. soda (2009 y. -77 ming t.), 3,4 ming tonna har xil o'simlikni himoyalash vositalari (2009 y.-4.1 ming t.) ishlab chiqarilgan. Eng so'nggi yillarda sun'iy ammiak, mineral o'g'itlar va, oltingugurt kislotasini ishlab chiqarish o'sib bormoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasining Qo'ng'iro't shahri yaqinida yirik zamonaviy kimyo zavodining qurilishi (Mahalliy tuz konlari asosida) kalsiy sodasini katta miqdorda ishlab chiqarishga olib keldi. Ushbu zavod negizida kimyog'arlar shahrchasi – Elobod barpo etildi. Yaqin kelajakda Ustyurtda SHo'rtangaz-kimy o'xshash yangi majmua ishga tushiriladi.

Ma'lumki, respublikamizda hozirgi kunda 3 ta neftni qayta ishlash zavodi bor. Ularning birinchi XIX asr oxirida Farg'ona vodiysi neft zahiralari asosida Oltiariq (Vannov, Hamza) zavodi, sobiq Ittifoq davrida Farg'ona (Qirguli) va mustaqillik yillarida Buxoro (Qorovulbozor) zavodlari barpo etilgan. Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi mustaqillik yillarida xorijiy hamkorlar (Yaponiya) bilan qayta ta'mirlanda va modernizatsiya qilindi. Hozirgi vaqtda yirik Qorovulbozor zavodining birinchi navbati ishlab turibdi, u qo'shni Qashqadaryo viloyatining Ko'kdumaloq neft koni asosida ishlaydi. Kelajakda bu korxonada neft-kimy sanoati majmuasini tashkil etish mumkin.

Oltingugurt kislotasi kimyo sanoatining o'ziga xos "noni" hisoblanadi, chunki u turli ishlab chiqarish vositasi sifatida xizmat qiladi. Respublikamizda ishlab chiqiriladigan oltingugurt kislotasining 70 foiziga yaqini Toshkent viloyatiga, qolgan qismi Navoiy viloyatiga to'g'ri keladi. Uning asosiy markazlari Olmaliq va Navoiy shaharlari sanaladi.

Mineral o'g'itlar azot (selitra), fosfor va omuxta o'g'itlar, (ammafos) turlaridan iborat. Jami ishlab chiqarilgan 1,3 mln. tonnadan ortiq o'g'itlarning 80-85 foizini azot o'g'iti tashkil qiladi. Qolgan qismi fosfor o'g'itlarga to'g'ri keladi.

Mineral o'g'itlar Toshkent, Navoiy, Farg'ona va Samarqand viloyatlari korxonalarida ishlab chiqiriladi. Masalan, jami mineral o'g'itlarning 40-42 foizini Toshkent viloyati, 1/3 qismiga yaqinini Navoiy va 25 foizini Farg'ona viloyati beradi. Samarqand viloyatining ulushi esa ancha past. Asosiy sanoat markazlari Navoiy, Farg'ona, Chirchiq, Olmaliq, Qo'qon va Samarqand shaharlari. Navoiy, Farg'ona va Chirchiqda azot, Qo'qon va Samarqandda esa fosfor o'g'itlari ishlab chiqariladi. Avvallri superfosfat qo'shni Qozog'iston Respublikasi Janbul viloyatining Qoratov fosforti konlari asosida ishlar edi. Hozirgi kunda esa ularni mahalliy, ya'ni Navoiy viloyatida topilgan yirik fosforit koni ta'minlamoqda.

Yaqingacha O'zbekistonda kaliy o'g'iti ishlab chiqarilmas edi. Bu o'g'it turi, boshqa o'g'itlar, xususan azot o'g'itiga qaraganda yuqori darajada "xom ashyo talab" hisoblanadi. Hozirgi vaqtda Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'lini qurilish munosabati bilan

Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida yirik kaliy zavodi barpo etilmoqda. U mahalliy tuz konlari asosida ishlaydi. Natijada, Qashqadaryoning respublika gaz va neft kimyo sanoatida tutgan oʻrni yanada mustahkamlanadi. Bu yerda Muborak, SHOʻrtan gaz-kimyo majmualari mavjud.

Lak-boʻyoq sanoati Toshkentda, formatsevtika Toshkent shahri va Surxondaryo viloyatida rivojlangan. Turli xil gerbitsidlar Navoiy elektroximkombinatida, rezina buyumlari Angren va Popda ishlab chiqariladi. Umuman olganda, kimyo va neft kimyo sanoatini joylashtirish va rivojlantirishida yangi, ekologik jihatdan xavfsiz zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, sanoat korxonalarini hududiy tashkil etishda barcha omillarni, ayniqsa shamol va suv (gidrografiya) yoʻnalishlarini, aholi joylashuvi va iqtisodiy geografik oʻrinni eʻtiborga olish zarur hisoblanadi.

Mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoati. Mashinasozlik va metalni qayta ishlash ogʻir sanoat, yaʼni ishlab chiqaruvchi vositalarni ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlaridan biri boʻlib, u muhim oʻziga xos xususiyatlarga ega. Eng avvalo uning tarkibi juda murakkab; ushbu sanoat tarmogʻi mayda mix yoki ignadan tortib muz yorar ulkan kemalar, samolyot, kosmik raketalarigacha boʻlgan mahsulotlarni oʻz ichiga oladi. Chunki bunday mahsulotlarning asosiy xom ashyosi bitta, -yaʼni metal hisoblanadi.

Mashinasozlik va metalni qayta ishlash, xususan uning bevosita mashinasozlik qismi ilmiy texnika taraqqiyotini aks ettiruvchi tarmoqdir. U har qanday mamlakat yoki mintaqa iqtisodiyotining umumiy rivojlanganlik darajasini ifodalovchi oʻziga xos indikatoridir. Bu borada ayniqsa mashinasozlikning hozirgi zamonaviy tarmoqlarini rivojlanganligi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoatida ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllaridan ixtisoslashuv va kooperatsiya nihoyatda katta oʻrin tutadi. Sababi, mazkur sanoat mahsulotlarining koʻpchiligi, uning “yuqori qavatlarini” oʻta murakkabdir. Shu bilan birga, bu sanoat tarmogʻining majmua va rayon hosil qiluvchi ahamiyati ham katta.

Ushbu sanoat tarmogʻining hududiy tashkil etish omillari turlicha; baʼzi mashinasozlik korxonalarini metalni va ishchi kuchini koʻp talab qilsa, boshqalari uchun nisbatan ozroq, ammo malakali kadrlar va sifatli metal zarur boʻladi; baʼzi mashinasozlik zavodlari bevosita isteʼmol rayonlarida (traktor va qishloq xoʻjaligi mashinasozligi, mintaqa iqtisodiyotining ixtisoslashgan tarmoqlari uchun tegishli jihozlar, asbob-uskunalar ishlab chiqarish va b.) joylashtirilsa, ayrimlari (radio va teleapparatura, hisoblash mashinalari, kompyuter va x.k.) yirik innovatsiya salohiyatiga ega boʻlgan markazlarda tashkil etiladi.

Tarkibiy jihatdan mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoati oʻzining ichki tuzilishini turli tumanligi bilan boshqa sanoat tarmoqlaridan keskin farq qiladi. Jumladan, u transport, traktor

va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, elektrotexnika, stanoksozlik va asbobsozlik, priborsozlik kabi yirik tarmoqlardan tashkil topgan. Ular, o‘z navbatida, yanada kichikroq, tor ixtisoslashgan “tarmoqchalardan” iborat. Masalan, transport mashinasozligi samolyotsozlik, avtomobilsozlik, kemasozlik, vagonsozlik va boshqa turlarni, avtomobilsozlikning o‘zi esa yengil va yuk mashinalarini ishlab chiqarishdan tashkil topgan.

O‘zbekistonda dastlabki mashinasozlik korxonalarini oddiy ko‘rinishda bo‘lib, ular qishloq xo‘jaligi uchun har xil vositalar ishlab chiqargan, ko‘proq ta‘mirlash bilan shug‘ullangan. Yirik mashinasozlik zavodlari esa asosan Ikkinchi jahon urushi yillarida sobiq Ittifoqning g‘arbiy rayonlaridan ko‘chirib kelish tufayli vujudga kelgan. Bunday korxonalarining asbob-uskunalari nisbatan qulay transport geografik o‘ringa ega bo‘lgan markazlarda yig‘ilgan (Toshkent, Samarqand, Chirchiq va b.).

Hozirgi vaqtda mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoati jami respublika sanoat mahsulotining 16,2 foizini beradi va u bu borada yoqilg‘i sanoatidan keyingi ikkinchi o‘rinda turadi. Mazkur sanoat tarmog‘ida mamlakat sanoatida band bo‘lgan ishchi xodimlarning 15,0 foizi xizmat qiladi, uning sanoati ishlab chiqarish fondlaridagi ulushi esa 11,0 foizga teng. Shu o‘rinda alohida ta‘kidlash lozimki, mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoati mustaqillik yillarining deyarli barchasida yuqori ijobiy ko‘rsatkichlar kasb etgan.

O‘tgan yillarda mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoati tarkibida muhim o‘zgarishlar yuz berdi; turli xil obyektiv sabablarga ko‘ra ayrim sanoat korxonalarining faoliyati sustlashdi, ba‘zilarida mahsulot ishlab chiqarish to‘xtadi. Jumladan, samolyot, traktor, paxta terish mashinalari kabi og‘ir mashinasozlik mahsulotlarining ishlab chiqarish keskin kamaydi. Ayni vaqtda mustaqil O‘zbekistonda yangi, zamonaviy mashinasozlik korxonalarini barpo etildi. Masalan, Andijon viloyatining Asaka shahrida yirik avtokorxonaning ishga tushirilishi olamshumul ahamiyatga ega bo‘ldi va bu korxonani respublikamizni jahonning 30 ga yaqin avtomobilsozlik rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o‘ringa ega bo‘lishiga xizmat qildi. Shu bilan birga, Asaka avtomobil zavodi O‘zbekiston, xususan Farg‘ona vodiysi sanoatining tarmoqlar va hududiy tarkibining diversifikatsiyalashuvchiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Hozirgi kunda avtomobil ishlab chiqarish uchun kerakli butlovchi qismlarning yarmidan ko‘prog‘i respublikamizning o‘zida yaratilmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda avtobus va yuk mashinalarini ishlab chiqarish ham yo‘lga qo‘yilgan. Dastlab bu korxonani (Samarqand sh.) Turkiya firmalari bilan birga ishlagan bo‘lsa, so‘nggi yillarda u Yaponiya davlati bilan hamkorlik qilmoqda.

2010 yil yakunlariga ko‘ra, mamlakatimizda 217,7 ming dona yengil mashinalar, 1268 ta avtobus, 2539 ta traktor, 2478 dona traktor pritseplari, 832 dona yuk avtomobillari, 18,9 ming

dona sovutgich va muzlatgichlar, shuningdek, turli xil kabel, transformator, ko'targichlar, kultivator va boshqa ko'plab mahsulotlari ishlab chiqarilgan¹. Agar bu ko'rsatkichlar 1995 yilga nisbatan taqqoslanga, jami mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoati mahsulotlari 5,0 marta oshgani holda, priborsozlik 20-24, ko'targich-transport mashinalari 15, stanoksozlik va asbobsozlik 10,0, elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqarish 6-7 barobarga ko'payganligini ko'rish mumkin.

Alohida ta'kidlash joizki, mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoatining geografiyasi respublikamizda uncha keng emas. Uning asosiy markazi Toshkent (samolyotsozlik, stanoksozlik va asbobsozlik, traktor va qishloq xo'jalik mashinasozligi, elektrotexnika va b.), Samarqand (avtobuslar, yuk mashinalari, sovutgich va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish), Asaka (avtomobilsozlik), Chirchiq (qishloq xo'jaligi mashinasozligi, transformatorlar ishlab chiqarish) hisoblanadi. Ushbu sanoatning ayrim korxonalari, shuningdek, Namangan, Farg'ona, Qo'qon, Andijon, Urganch, Kattaqo'rg'on kabi shaharlarda ham mavjud. Bu korxonalar gaz apparaturalari, paxta tozalash zavodlari uchun uskunalar, to'qimachilik mashinalari kabi mahsulotlarni ishlab chiqaradi.

Respublikamizda mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoatini keng miqyosda rivojlantirishda uning metal bazasini mustahkam emasligi, malakali ishchi kadrlarning ozligi birmuncha to'smqlilik qiladi. Kelajakda mamlakatimiz iqtisodiyotini sanoatlashtirish siyosatini amalga oshirish doirasida hamda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonida bu sanoat tarmog'i ham yuqori darajada rivojlanib boradi. Xususan, qishloq xo'jaligi, kommunal-maishiy xo'jalik ehtiyojlari, xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarishga bo'lgan talabning ortib borishi mazkur sanoat tarmog'i rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Shu bilan birga uning O'zbekiston eksport salohiyatini mustahkamlab borishdagi yuqori darajadagi o'rni saqlanib qoladi.

Og'ir sanoatning boshqa tarmoqlari. Yuqorida ko'rilgan sanoat tarmoqlaridan tashqari og'ir sanoat tarkibiga, shuningdek, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz hamda qurilish materiallari sanoati ham kiradi. **O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati**, odatda, turldi variantda joylashtiriladi. Masalan, u bevosita xom ashyo, ya'ni o'rmon zahiralari ega bo'lgan, yog'ochni oqizuvchi daryolar bilan temir yo'llar kesishgan joylarda yoki bevosita iste'mol rayonlarida tashkil etiladi. Ko'pincha yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz ishlab chiqarish xom ashyo rayonlaridan boshqa hududlarda rivojlangan.

¹ 2009 йилда мамлакатимизда 205011 дона енгил ва 722 та юк машиналари, 1317 та автобус, 2737 та трактор, 1852 та культиватор тайёрланган.

Ma'lumki, respublikamizda sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan o'rmon resurslari mavjud emas. Binobarin, ushbu sanoat tarmog'i asosan chetdan keltirilgan yog'och va boshqa yarimmahsulotlar negizida tashkil etilgan. Umuman olganda, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati mamlakatimizning ko'pgina boshqa tarmoqlariga qaraganda tezroq rivojlanmoqda. Jumladan, agar yalpi sanoat mahsuloti 1995-2010 yillarda **2,2 martaga o'sgan** bo'lsa, mazkur tarmoq mahsuloti 8,2 martaga ko'paygan. Xususan 1999 y. va 2004-2010 yillarda yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati barqaror rivojlanib borgan.

Hozirgi vaqtda ko'rilayotgan sanoat tarmog'iga jami respublika yalpi sanoat mahsulotining 1,1 foizi, asosiy ishlab chiqarish fondlarining 0,5 va sanoatda band bo'lgan ishchi-xodimlarning 2,0 foizi to'g'ri keladi. U mebel, karton, qog'oz va boshqa yog'ochdan olingan mahsulotlar ishlab chiqaradi. 2010 yilda 4,0 ming tonnaga yaqin qog'oz, 12 ming tonna atrofida karton mahsulotlari olingan. Kartoning asosiy qismi Toshkent shahri hamda Toshkent viloyati va Namangan viloyatlarida ishlab chiqariladi. Ana shu 3 mintaqada mamlakat bo'yicha yaratiladigan jami mahsulotning 96,0 foizini ta'minlaydi.

Ko'rinib turibdiki, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoatining mavqei O'zbekistonda uncha yuqori emas. Buning asosiy sababi-respublika sanoatida o'rmon zahiralarning ozligidir, iste'mol esa yildan-yilga ortib bormoqda. Kelajakda poligrafiya sanoatining rivojlanib borishi, turli xil zamonaviy va sifatli mebellarga ehtiyojning ko'payishi respublika milliy iqtisodiyotida bu sanoat tarmog'ining mavqeini ham yanada yaxshilashni taqozo etadi.

Qurilish materiallari sanoati og'ir va, umuman sanoat majmuasining o'ziga xos tarkibi hisoblanadi. Bu sanoat tarmog'i yangi o'zlashtirilayotgan hududlarga birinchilar qatorida kirib keladi va investitsiyalar bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Chunki, qurilish bazasisiz yangi ishlab chiqarishni tashkil qilish mumkin emas. Shu ma'noda qurilish bazasi elektr energetika bilan birgalikda hududlar o'zlashtirilishining muhim infratuzilmasi, asosi bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, mazkur sanoat tarmog'i barcha hududlarda bo'lishi shart va, uchinchidan, uning xom ashyo bazasi har xil bo'lganligi sababli hududiy tashkil qilish imkoniyatlari keng.

Qurilish sanoatining yana bir muhim xususiyati shundaki, uning ishlab chiqarish jarayonida chiqindi deyarli qolmaydi, keltirilgan xom ashyo butunlay tayyor mahsulotga aylanadi. Shu sababdan ham qurilish materiallarini ko'proq iste'mol rayonlarida tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Biroq, qurilish materiallari sanoatining asosiy "noni", xom ashyosi – sementni ishlab chiqarish muayyan xarajatlarni talab qiladi. Chunonchi, uning uchun eng avvalo qizil rangli mergeli, uchlamchi davr yotqiziqlari kerak bo'ladi. Bunday xususiyat sement sanoati geografiasining uncha rivojlanmaganligiga olib keladi. Masalan, shunday ulkan Rossiya

Federatsiyasida sement sanoatining asosiy markazlari ko'p emas; ular Novorossiysk, Voljsk, Iskitim kabilardan iborat, xolos. Shu bilan birga, sement ishlab chiqarishini metallurgiya kombinatlari, alyuminiy (glsiozem) zavodlari qoshida yoki yaqinida, ularning chiqindilari asosida ham rivojlantirish mumkin.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda qurilish materiallari sanoatining rivojlanish sur'ati uncha yuqori emas. Bu borada u jami sanoat ko'rsatkichlaridan ham pastroq darajada o'sib bormoqda (1995-2010 yillar umumiy sanoat mahsuloti 2,3-2,5 martaga ko'paygan holda, qurilish materiallari sanoati 1,7-1,8 barobarga oshgan).

2010 yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda jami 2 mingdan ziyodroq qurilish materiallari sanoati korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu sanoat respublika yalpi sanoat mahsulotining 5,0 foizini ta'minlaydi, unda jami sanoat ishchi-xodimlarining 7,4 foizi band, ishlab chiqarishning asosiy fondlari hissasi esa 5,2 %.

Qurilish materiallarining turi ko'p, ularning geografiyasi ham keng. Tabiiyki, g'isht, shlakoblok, beton kabi devorbop mahsulotlarni ishlab chiqarish aksariyat shahar va tumanlarda tashkil qilingan. Qolgan qurilish materiallari esa asosan yirik va o'rta shaharlarda tayyorlanadi.

2010 yil natijalariga qaraganda respublikamizda 6872 ming t. sement, 800 ming kub metr atrofida temir-beton qurilmalari (konstruksiyalari), 7000 ming kub metrdan ortiqroq oyna, 9258 ming kv. m yumshoq tom yopgich materiallari va izol ishlab chiqarilgan. Devorbop materiallar esa 63,8 mln. shartli g'isht donalarini tashkil etadi. Sement sanoati asosan Navoiy, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida rivojlangan. Birgina Navoiy sement zavodi mamlakatimizning 2/5 qism sementini beradi; deyarli shuncha mahsulot Toshkent viloyatining Ohangaron, Bekobod, Angren shaharlarida ishlab chiqariladi (ularning eng yirigi Ohangaron kombinati hisoblanadi). Qolgan qismi Farg'ona viloyatiga (Quvasoy) to'g'ri keladi.

Yaqin kelajakda qurilish materiallari sanoati ham yuqori ko'rsatkichlarda rivojlanib boradi. Bu borada "Qishloq joylar taraqqiyoti va farovonligi" davlat dasturini amalga oshirish, uy-joy, temir va avtomobil yo'llar, yangi sanoat korxonalari, madaniy-maishiy va boshqa infratuzilma shahobchalarini qurish ham katta ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda xorijiy mamlakatlarning moliyaviy ishtiroki bilan Qoraqalpog'istonning janubida 1 mln. t ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan yirik sement zavodi qurilmoqda.

Yengil sanoat. Sanoat tarmoqlari orasida eng qadimgilaridan biri yengil sanoatdir. Hozirgi zamon sanoat ishlab chiqarishining negizini ham aynan shu tarmoq tashkil qiladi. Dastlab *manufaktura* shaklida amalga oshirilib, so'ngra u yirik sanoat industriyasiga asos solgan, sanoat inqilobiga turtki bo'lgan.

Ta'kidlash joizki, sanoat ishlab chiqishining vatani – Angliya sanoatining rivoji ham to'qimachilik sanoatidan boshlangan. U, o'z navbatida, boshqa sanoat tarmoqlari rivojlanishini taqozo etgan. Chunki, to'qimachilik sanoatining taraqqiyoti turli xil asbob uskunalari, to'qimachilik mashinasozligini, u metallurgiyani, metallurgiya esa yoqilg'i (ko'mir) sanoati rivojlanishini talab qilgan va bu jarayon “janjirsimon” yuz bergan.

Yengil sanoat xalq iste'mol mollarini ishlab chiqaruvchi asosiy sanoat tarmog'idir. Uning mahsuloti nisbatan arzon, katta kapital mablag' talab qilmaydi va ishlab chiqarish jarayoni ham texnologik jihatdan uncha murakkab emas. Eng muhimi – yengil sanoat, jumladan, uning yetakchi tarmog'i bo'lgan to'qimachilik sanoati mahsulotining iste'mol qilish “zichligi” juda yuqori. Sababi, bu mahsulotlar barchaga kerak va ko'p kerak; chunki bir kishi bir yilda yoki mavsumda bir necha kiyim-kechak, poyafzal kiyadi. Demak, bunday mahsulotlarning aylanma harakati yuqori. Binobarin, daromad manbai oz bo'lsada, tez ko'payib boradi. Yengil sanoat tarmoqlari kam kapital mablag', ammo ko'p ishchi kuchini talab qiladi. Shu sababdan uning “mehnattalabligi” boshqa sanoat tarmoqlariga qaraganda ancha katta. Ayni vaqtda yengil sanoatning xom ashyo bazasi ham keng – u o'simlik va hayvonot mahsulotlari, shuningdek, kimyoviy tolalar asosida ham rivojlanib boraveradi.

Yengil sanoatning yuqoridagi xususiyatlari uning hududiy tashkil etish jihatlarini belgilab beradi. Mazkur sanoat tarmog'i korxonalarini joylashtirishga quyidagi omillar o'z ta'siri ko'rsatadi:

- xom ashyo omili;
- iste'mol omili;
- mehnat resurslari omili.

Xom ashyo asosan yengil sanoatning birlamchi bo'g'inlarini, masalan, paxta tozalash, jun yuvish, teri oshlash korxonalarini joylashtirishga ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, O'zbekistonda yuzdan ortiq paxta tozalash zavodlari bevosita paxta yetishtiradigan qishloq tumanlarida joylashtirilgan.

Iste'mol omili ta'sirida aksariyat o'rta va yirik shaharlarda tikuv, trikotaj va poyafzal fabrikalari tashkil etilgan. Bu omil mehnat resurslari omili bilan uyg'unlashib, yengil sanoat geografiyasini aniqlab beradi. Mazkur sanoat ko'p mehnat talab qilganligi sababli u ishchi kuchini band qilish maqsadida kichik va o'rta shaharlarda, ba'zan yirik sanoat markazlarida rivojlangan. Shuningdek, og'ir sanoat markazlarida (ko'mirchilar, metallurglar, mashinasozlar shaharlarida ayollar mehnatidan samarali foydalanish uchun ham yengil sanoat, xususan to'qimachilik korxonalarini joylashtiriladi. Bu sohada kichik biznes va hususiy tadbirkorlik ham keng tarqalgan.

Yengil sanoat o'z tarkibiga to'qimachilik, tikuv, trikotaj, poyafzal kabi tarmoqlarni oladi. To'qimachilik yengil sanoatning asosini tashkil qiladi. O'zbekistonda to'qimachilik sanoatining rivojlanishi uzoq tarixga ega. Qolaversa, bu yerda to'qimachilikni rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud: xom ashyo (paxta xom ashyosi, jun, pilla) bazasi keng, mehnat resurslari boy, o'sib borayotgan aholining ehtiyoji ham yuqori. Qolaversa, sanoat tarmog'ida ishlash uchun mahalliy xalq boy tajriba va mehnat malakasiga ega. Shu bois, aytish mumkinki, milliy va mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishda to'qimachilik sanoatining o'rni katta. Jahonning yetakchi industrial mamlakatlarning rivojlanishi asosan aynan shu tarmoq bilan bog'liq bo'lgan.

Hozirgi vaqtda yengil sanoat respublika sanoati ishlab chiqarish fondlarining 8,5, yalpi mahsulotining 13,4 foizini tashkil qiladi. Mahsulot hajmiga ko'ra, yoqilg'i, metallurgiya va mashinasozlikdan keyingi 4-chi o'rinda turadi. Yengil sanoatning o'rni ayniqsa sanoatda band bo'lgan ishchi-xodimlar soni bo'yicha katta – 20,5 % (birinchi o'rinda).

2010 yil 1 yanvar holatiga ko'ra mamlakatimizda 2800 ga yaqin yengil sanoat korxonalari, shu jumladan 1340 ta tikuv va 1150 ta to'qimachilik korxonalari mavjud bo'lib, ularning barchasida 130 ming kishiga yaqin aholi band bo'lgan; nodavlat sektorining ulushi 99,4 %. Mustaqillik davrida yengil sanoatning tezroq rivojlanishi 2000-2001, 2005 hamda 2010 yillarda qayd etiladi.

Paxta tozalash zavodlari respublikamiz hududida XIX asrning 2-chi yarmida barpo etila boshlagan. Masalan, Kattaqo'rg'on paxta tozalash zavodi XIX asrning 70- yillarida ishga tushirilgan. Bu va boshqa korxonalar Rossiya to'qimachilik sanoatiga xom ashyo (paxta tolasi) yetkazib berib turgan. Aynan shu maqsadda dastlabki temir yo'llar ham qurilgan. Hozirgi kunda paxta tolasi respublikamiz tashqi iqtisodiy aloqalarida muhim o'ringa ega; u har yili valyuta tushumining 13-18 foizini ta'minlab turadi.

Yirik to'qimachilik korxonalari sobiq Ittifoq davrida barpo etildi. Chunonchi, Farg'ona to'qimachilik kombinati 1927 ilda, Toshkent to'qimachilik kombinati o'tgan asrning 40-nci yillarida ishga tushirildi. 70-80 nchi yillarda Andijon, Nukus, Buxoro to'qimachilik kombinalari va ularning filiallari tashkil etilgan. Biroq, bu korxonalarining barchasida bor-yo'g'i yetishtirilgan paxta tolasining 9 foizi qayta ishlangan, xolos, qolgan asosiy qismi esa respublikadan chetga chiqarilgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach yengil, shu jumladan to'qimachilik sanoatida ham katta o'zgarishlar yuz berdi. "O'zbekengilsanoat" Davlat aksionerlik kompaniyasi, 80 dan ortiq qo'shma korxonalar ishlab turibdi. Bu korxonalar asosan chet el kompaniyalari bilan birgalikda (Janubiy Koreya, Turkiya, AQSH, Shvetsariya va b.) qurilgan. Hozirgi kelib mahalliy paxta tolasining taxminan 32-33 foizi respublikaning o'zida qayta ishlanadi (kelajakda ushbu

ko'rsatkichning 50 foizga yetkazilishi ko'zda tutilmoqda). 2010 yilda ishlab chiqilgan jami paxta tolasi 1125 ming tonnaga teng. Bu ko'rsatkich har yili paxta hosiliga qarab o'zgarib turadi.

O'zbekistonda yillar davomida to'qimachilik-industrial energiya ishlab chiqarish sikli shakllangan. U o'z tarkibiga paxta va pilla xom ashyosini qayta ishlash, ip va ipak gazlama ishlab chiqarish va uning asosida tikuv hamda trikotaj sanoati rivojlanib bormoqda. Bu sikl, shuningdek, buyoq, par (bug') va to'qimachilik mashinalarini ishlab chiqarish bilan ham bog'liq.

Ta'kidlash lozimki, bozor munosabatlarga o'tish va viloyatlarga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasida katta huquq va keng imtiyozlar berish natijasida to'qimachilik sanoatini joylashtirish ancha o'zgardi. Eng avvalo, bunday sharoitda avvalgi yirik (gigant) to'qimachilik kombinatlarining faoliyati qiyinlashdi va ularning barchasida ishlab chiqarish hajmi keskin kamaydi. Huddi shunday holat ip gazlama kombinatlarida ham yuzaga keldi, qadimgi mashhur mahsulot ishlab chiqarish deyarli to'xtab qoldi. Chunonchi, Farg'ona, Andijon to'qimachilik kombinatlarida mahsulot ishlab chiqarish keskin qisqardi, Buxoroda to'qimachilik kombinati faoliyati esa to'liq to'xtatildi. Buning evaziga qator, zamonaviy texnologiyalar bilan jixozlangan, ixtisoslashgan kichik, jumladan, qo'shma korxonalar barpo etildi.

Qo'shma korxonalar geografiyasi keng; ular Bo'ston, Gurlan, Urganch, Jomboy, Jarqo'rg'on, Shaxrisabz, Olot, Qorako'l, Kosonsoy, Pop, Namangan, To'ytepa, Shaxrixon, Konimex va boshqa shaharlarda tashkil etilgan. Tikuv va trikotaj fabrikalari Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Namangan, Andijon, Qo'qon, Chirchiq kabi shaharlarda joylashgan. Poyafzal ishlab chiqaruvchi korxonalar ham aksariyat katta va yirik shaharlarda mavjud.

1995-2010 yillar mobaynida yengil sanoat mahsulotining hajmi 2,5 marta ko'paydi. Bunda tikuvchilik nisbatan jadalroq rivojlanib bormoqda (11,0 marta). Ammo eng so'nggi yillarda gazlama, chulki-paypoq poyafzal ishlab chiqarish birmuncha qisqardi. Masalan, 2010 yilda ip-gazlama ishlab chiqarish 2004 yilga nisbatan 4 barobar kamaydi va 393,5 mln. kv. metrda 84 mln.kv. metrga tushib qoldi. Chulki-paypoq bu davrda 19,0 mln juftdan 154 mln juftga kamaygan. Umuman olganda, 2010 yilda 1624 ming t. chigit, 246 t. ipak tolasi, 186 ming t. paxta ip kalavasi, 50,5 mln. dona trikotaj mahsulotlari, 655 ming kv. m. gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarilgan¹.

Jami ishlab chiqarilgan gazlamaning asosiy qismi ip gazlamaga to'g'ri keladi. Ipak gazlama ishlab chiqarish esa anchaga kamaygan. Shu asosda mashhur ipak sanoati markazlari – Marg'ilon va Namangan shaharlari hozirgi vaqtda o'ziga xos depressiv holatni boshdan kechirmoqda, biroz bo'lsada, bu soha Samarqand shahrida rivoj topgan.

¹ Таққослаш учун: 2009 йилда 1055 минг т. пахта толаси, 1579 минг т. чигит, 145 минг т. ип-калава, 33968 минг тона трикотаж маҳсулотлари, 89 жуфт чулки-пайпоқ, 2360 минг кв. м. гилам ва гилам маҳсулотлари олинган.

Yengil sanoat ishlab chiqarishida mujassamlashuv jarayoni pasayib, ixtisoslashuv va kombinatlashuv kuchayib bormoqda. Yirik sanoat korxonalarini o'rnini kichik, zamonaviy texnologiya bilan jihozlangan qo'shma korxonalar egallamoqda. Shu bilan birga, mazkur sanoat tarmog'ini rivojlantirish va hududiy tashkil etishda ayrim muammolar ham mavjud. Respublikamizda olib borilayotgan sanoatlashtirish, sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish va modernizatsiya hamda mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish jarayonida bu muammolar bosqichma-bosqich hal etilib boriladi. "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi" hamda "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" Davlat dasturlarini hayotda tadbiriq etish ham qishloq joylarga sanoatni olib kirishni nazarda tutadi. Qolaversa, yengil sanoat, sifatli xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarish va eksport qilish O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lmog'i zarur.

Oziq-ovqat, un-yorma va kombikorm sanoati. Oziq ovqat sanoati ham xalq iste'mol mollarini ishlab chiqaruvchi asosiy tarmoqlardan hisoblanadi. Uning hissasi, vino-arog mahsulotlari bilan birga jami xalq iste'mol mollari tarkibida 38-40 foizga teng. Demak, bundan ko'rinib turibdiki, ushbu sanoat tarmog'ining rivojlanishi va joylanishi, eng avvalo, aholi soni, uning o'sishi va huddiy tarkibiga bog'liq.

Oziq-ovqat sanoatining joylanishini xom ashyo omili ham belgilab beradi. Xom ashyo sifatida turli xil qishloq xo'jaligi mahsulotlari, masalan, paxta chigiti, bug'doy va boshqa g'alla ekinlari, meva va uzum, chorva mahsulotlari kabilar xizmat qiladi. Bu va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash asosida *agrosanoat majmuasi* shakllanadi. Shu o'rinda aytish mumkinki, oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi ko'p jihatdan qishloq xo'jaligiga, qishloq xo'jaligi esa ob-havo, iqlim sharoitlariga bog'liq bo'ladi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston sanoati yalpi mahsulotining 12,6 foizi oziq-ovqat tarmog'iga to'g'ri keladi (2010 y.). Bu tarmoqda jami 90 ming kishi band, ishlab chiqarish fondlarining qiymati esa respublikamizning bu ko'rsatkichini 4,4 foizini tashkil qiladi. Investitsiya hajmi ham uncha ko'p emas, u mamlakat sanoatiga kiritilgan umumiy investitsiyaning 5,5 foiziga teng. Mustaqillik davrida mamlakatimiz bu sanoat tarmog'ining rivojlanishi 1993, 1997, 2002, 2005-2006 hamda 2010 yillarda nisbatan yuqoriroq bo'lgan.

Oziq-ovqat sanoatining mahsulotlari xilma-xil: un va un mahsulotlari, vino, arog, pivo, alkogolsiz ichimliklar, o'simlik va hayvon yog'i, go'sht, sut, kolbasa, sigaret va h.k. Respublikamizda mazkur sanoat rivojlanishi uchun qulay sharoitlar mavjud. Boy xom ashyo bazasidan tashqari demografik vaziyat ham oziq-ovqat sanoatining rivojlanishini taqozo etadi.

2010 yil yakunlariga ko'ra mamlakatimizda 124,6 mln. shartli banka meva-sabzavot konservalari, 286 ming t. shakar, 236 ming t. o'simlik yog'i, 23,0 ming t. makaron mahsulotlari,

1217 ming t. un, 9,6 mln dol aroq va aroq-likyor mahsulotlari, 2,1 mln. dol vino, 25 mln. dol pivo, 21,7 mln dona spirtsiz ichimliklar, shuningdek, ko'p miqdorda mineral suvlar, papiros va sigaretalar ishlab chiqarilgan. So'ngi ikki yil mobaynida faqat meva-sabzavot konservalari, o'simlik yog'i va un ishlab chiqarish biroz kamaygan, qolgan oziq-ovqat mahsulotlarida esa o'sish qayd etiladi¹.

Un-yorma va omuxta yem sanoati respublika sanoati yalpi mahsulotini 2,8 foizini beradi. Ushbu sanoat tarmog'i aholi va chorvachilik ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi.

Oziq-ovqat sanoati geografiyasi, uning joylashish va rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, keng tarqalgan. O'simlik yog'i ishlab chiqaruvchi yirik korxonalar Toshkent, Farg'ona, Yangiyo'l, Guliston, Koson, Xo'jayli, Andijon, Namangan, Kattaqo'rg'on, Uchqo'rg'on va boshqa qator shaharlarda mavjud. Ularning joylashuvi paxta qayta ishlash zavodlari bilan ham bog'liq. Paxta yetishtirish, uni qayta ishlash, paxta chigitdan yog' olish korxonalari birgalikda agrosanoat hududiy ishlab chiqarish majmualarini tashkil qiladi.

Go'sht kombinatlari, kolbasa ishlab chiqarish, sut va sut mahsulotlarini oluvchi sanoat korxonalari o'rta va katta shaharlarda joylashgan. Un kombinatlari Toshkent, Ohangaron, don mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar Jomboy, Xonqa, SHO'rchi, Yangiyer kabi qator kichik shahar va shaharchalarda qurilgan.

O'zbek-Britaniya qo'shma korxonasi Urgut tumanida yetishtiriladigan tamakini qayta ishlash asosida sigaret ishlab chiqaradi; korxonalar Toshkent shahrida joylashgan.

Oziq-ovqat sanoati mahsulotlari deyarli to'laligicha nodavlat sektorida ishlab chiqariladi. Shu bilan birga, kolbasa mahsulotini ishlab chiqaruvchi xususiy korxonalar ham mavjud. Turli xil meva va sabzavotlardan konserva ishlab chiqarish ham rivojlangan. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, bog'dorchilik va mevachilik asosida qayta ishlash sanoatini rivojlantirish istiqbolli yo'nalishlardan hisoblanadi. Xususan, bir vaqtlar dongi ketgan o'zbek vinosi ("Bayan shirey", "Soyaki" va b.), quruq meva konserva sanoatini (masalan, To'raqo'rg'onda shunday korxonalar bo'lgan) yoki anzur piyoz asosida konserva ishlab chiqarishni (bunday sobiq Ittifoqda yagona zavod Shaxrisabzda faoliyat ko'rsatgan) qayta tiklash katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ayni vaqtda bu respublika eksport salohiyatini yuksaltirishda, valyuta tushumini ko'paytirishda ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishda ham qator muammolar mavjud. Jumladan, ushbu sanoat xom ashyo bazasini mustahkamlash (ayniqsa, uzum maydonlarini kengaytirish), qayta

¹ 2009 йил кўрсаткичлари куйидигича бўлган: 20,8 минг т. сут ва сут маҳсулотлари, 275 минг т. 1270 минг т. ун, 223 минг т. ўсимлик ёғи, 9435 минг дол ароқ ва ликёр-ароқ маҳсулотлари, 2107 минг дол узум виноси, 18112 минг дол пиво, 12747 млн дон папирос ва сигаретлар олиган.

ishlash korxonalarining tegishli quvvatini yaratish, investitsiyani jalb qilish asosida qo'shma korxonalarni ko'proq tashkil qilish talab etiladi. Shuningdek, yirik korxonalarni (masalan, Guliston, Koson, Farg'ona, Yangiyo'l, Toshkent yog'-moy kombinatlarini) qayta jihozlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng imkoniyat berish ham dolzarb hisoblanadi.

II BOB. QASHQADARYO VILOYATI SANOAT TARMOQLARI RIVOJLANISHINING IQTISODIY GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

2.1. Viloyat xo‘jaligining umumiy ta‘rifi

Tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida O‘zbekiston xalq xo‘jaligi tarmoqlari, uning iqtisodiy rivojlanish darajasi murakkab yo‘lni bosib o‘tgan. Tarixiy manbalarda berilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston o‘tmishda yer kurrasidagi aholi xo‘jalik faoliyati g‘oyat qizg‘in kechgan eng qadimiy o‘lkalardan biri bo‘lgan. Mamlakatimizning g‘arb bilan sharq o‘tkasidagi iqtisodiy taraqqiyot uchun qulay bo‘lgan geografik o‘rni, sahiy tabiati, boy va rang-barang tabiat resurslari, mehnat va dona halqi umumbashariy taraqqiyotga munosib hissa qo‘shaolgan hudud hisoblanadi. Qashqadaryo viloyati mustaqil O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi va 12 ta viloyatlarning biridir.

Hozirgi paytda O‘zbekistonning xalq xo‘jalik tizimida Qashqadaryo viloyati sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hamda yoqilg‘i resurslarini qazib olish bo‘yicha muhim o‘rin tutadi. Bu sohalarni yanada rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Qashqadaryoda mehnat resurslarining o‘sayotganligi, foydali qazilmalarning xo‘jaligi hamda iqlimining ko‘pgina xususiyatlari (issiqlik miqdorining kattaligi, vegetatsiya davrining uzoq davom etishi va boshqalar) bu yerda issiq sevar o‘simliklar, yuqori sifatli mevalar, uchun subtropik va yong‘oq mevali o‘simliklar, lalmi bug‘doy va urug‘lik uchun beda yetishtirishga imkoniyatlar yaratadi. Viloyat hududida aniqlangan yoqilg‘i mineral xom ashyo resurslari, kon-kimyxo xomashyosi, qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun mavjud xom ashyolarning aniqlanishi. Viloyatda yoqilg‘i-energetika, tog‘-kimyo va binokorlik materiallari ishlab chiqarish kabi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun negiz bo‘la oladi. Shuningdek, viloyat aholisining tez sur‘atlar bilan ko‘payib borayotganligi va azaldan sug‘oriladigan zonada uning zichligi ayniqsa katta ekanligi sababli ishlab chiqarish kuchlarini yanada rivojlantirishni taqozo etadi.

Qashqadaryo viloyatining ishlab chiqarish bo‘yicha ixtisoslashuvi qishloq xo‘jaligining qadimdan tashkil topgan tarmoqlari (paxtachilik, pillakashlik, qorako‘lchilik, bog‘dorchilik va uzumchilik) hamda neft, gaz va kimyo sanoati, paxta tozlasha, o‘simlik moyi, meva-konserva hamda yengil va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bilan belgilanadi. Viloyatda bu ixtisoslashgan tarmoqlarning rivojlanishi sanoatni xomashyo manbalariga va tayyor mahsulotlarni iste‘mol qiluvchi rayonlarga yaqinlashtirishga ko‘maklashadi, ishlab chiqaruvchi kuchlarni mamlakat miqyosida hududiy jihatdan oqilona joylashtirish talablariga javob beradi.

1920 yilga qadar Qashqadaryo Buxoro amirligining iqtisodiy va madaniy jihatdan qoloq qismlaridan biri edi. Aholi g‘allachilik, paxtachilik, tokchilik, bog‘dorchilik hamda chorvachilik bilan shug‘ullangan. Hozirgi Qashqadaryo hududida oltita, ya‘ni Qarshi, G‘uzor, Chiroqchi,

Yakkabog‘, Kitob, Shahrisabz bekliklari mavjud bo‘lib, ular Buxoro, Toshkent, Samarqand bozorlariga paxta, g‘alla, qorako‘l teri, jun, quruq meva, chorva mollari chiqarishgan. Lekin o‘sha davrda rivojlanish imkoniyatlar darjasidan past edi. 1913 yil ma‘lumotlari bo‘yicha 317,6 ming ga maydonda dehqonchilik qilingan, shundan 2 ming gektar maydonda paxta ekilib, har gektardan o‘rtacha 7,3 sentnerdan hosil olingan, donli ekinlarning hosildorligi esa 5 sentnerdan olmagan.

Sanoatda ham asosan kichik yarim gustar korxonalar muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. 1916 yilda Shahrisabzda yagona paxta tozalash zavodi ishga tushirildi. Unda atigi 180 ta ishchi mehnat qilgan. 1924 yilda Qashqadaryo viloyati tuzildi va mavjud eski ishlab chiqarish munosabatlari tugatilib, yangi ishlab chiqarish usullariga o‘tildi.

Qashqadaryoda sho‘rolar tizimi davrida sanoat tarmoqlari bir tomonlama bo‘lsada rivojlandi. Jumladan, Shahrisabz shahrida konserva va vino zavodi, Qarshi hamda qishloq xo‘jalik xom ashyolarini qayta ishlovchi korxonalar, qurilish materiallari yetkazib beruvchi korxonalar bunyod etildi. 1970 yillardan boshlab keng masshtabda Qarshi cho‘lining o‘zlashtirilishi bilan G‘uzor, Koson, Nishon, Kasbi, Qamashi, Chiroqchi tuman markazlarida paxta tozalash zavodlari qurildi.

Viloyat hududida neft va gaz chiqarishning ko‘payishi bilan bog‘liq bo‘lgan Muborak shahrida mahalliy oltingugurtli gaz zaminida yirik gazni qayta ishlovchi korxonalar, qurilish materiallari ishlab chiqaradigan korxonalar hamda meva konserva, go‘sht, sut, un-yorma va non mahsulotlari yetkazib beradigan korxonalar qad ko‘tardi.

O‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab Qashqadaryo viloyatida yangi yerlarni o‘zlashtirish va aniqlangan mineral xom ashyolarni ishga tushirish munosabati bilan viloyatda shahar va shaharchalarda aholi soni o‘sib bordi. Bu esa qurilish sanoatini rivojlantirish, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarini ko‘paytirish, aholiga madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarini yanada rivojlantirish imkonini berdi. Buning natijasida 1970-1990 yillar mobaynida sanoat yalpi mahsulotining o‘sish darajasi Qashqadaryo viloyatida respublika o‘rtacha ko‘rsatkichiga nisbatan ancha yuqori bo‘ldi. Xususan, 1970-1990 yillar maboynida sanoat yalpi mahsuloti O‘zbekistonda 3,6 marta o‘sgan bo‘lsa Qashqadaryoda bu ko‘rsatkich 5,2 martaga teng bo‘ldi. Umuman mamlakat xo‘jaligida 80-yillarning o‘rtalaridan boshlab iqtisodiyotning yangi taraqqiyot davri boshlangan bo‘lsada u sobiq ittifoqning xomashyo yetkazib beruvchi o‘tkasi bo‘lib qolaverdi.

O‘zbekiston 1991 yil 31 avgustda o‘z mustaqilligini e‘lon qildi va o‘zining chinakam yangi taraqqiy davrini boshladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlari mustaqillik yillarida yangicha yo‘nalish oldi va rivojlanishning sifat jihatdan yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Bozor iqtisodiyotining birinchi

bosqichidayoq (1991-1995) iqtisodiy islohotlarga oid qonunlar qabul qilindi, uning huquqiy negizi yaratildi. Islohotlar hayotning barcha jabhalarini qamrab oldi. 1995 yildan boshlab O'zbekiston jamiyatni isloh qilishning ikkinchi bosqichiga qadam qo'ydi. Ushbu bosqich bozor munosabatlariga o'tish tizimlarini shakllantirishni yakunlash, mamlakat xalq xo'jaligini har tomonlama rivojlantirish, milliy valyutani barqarorlashtirish va uning ichki konvertatsiyasini ta'minlash bilan bog'liq. Bu bosqichda davlat mulkini xususiylashtirishni yakunlash hamda iqtisodiyotni xomashyo yetishtirib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, iqtisodiy islohotlarning yuqorida zikr qilingan ikkinchi bosqichida iqtisodiyotni barqarorlashtirish va xalq xo'jaligi o'zak tarmoqlari o'sishini ta'minlash, ishlab chiqarishda aholi keng iste'mol mollari ko'ra ularning ehtiyojini nazarda tutib, o'zgarishlar qilish va boshqa hayotiy masalalar hal qilinmoqda.

Mustaqillik tufayli mamlakat iqtisodiyot tarmoqlarida qator tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, mamlakat xalq xo'jaligining yetakchi sohasi-sanoatda importning o'rnini bosaoladigan tovarlar ishlab chiqarish mulkni davlat tasarrufidan chiqarish orqali turli xil mulkchilik fermalarini shakllantirish neft ishlab chiqarish ko'lamini keskin ko'paytirish hamda g'alla yetishtirish geografiasini kengaytirish orqali iqtisodiyot tarmoqlari va aholining ushbu hayotiy muhim mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, eksportbop tovarlar ishlab chiqarish miqdorini ko'paytirish orqali davlat importi hajmini tushirib berishga erishishga qaratilgan yo'nalishlarga iqtisodiy siyosatda ustuvorlik berilmoqda.

Endilikda mamlakat iqtisodiy salohiyatida turli mulkchilik firmalari shakllanmoqda. Xo'jalik yurituvchi subyektlar tarzida faoliyat ko'rsatayotgan ushbu korxonalarining soni yil-sayin ortib bormoqda.

Hozirgi paytda Qashqadaryo viloyati respublika miqyosida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatgichlariga ko'ra nisbatan orqada tursada, lekin viloyatni industrial viloyatlar qatoriga ko'tarish uchun mavjud yoqilg'i, mineral xomashyolar, yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan sanoat korxonalarini rivojlantirish va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida mustaqillik yillarida katta miqdorda kapital mablag'lar ajratilmoqda. Birgina 2008 yilda 1630735 mln so'mlik kapital mablag'lar ajratildi. Bundan keyin ham qo'shma kichik korxonalarni qurish va mavjud korxonalarni texnik va texnologik qayta jihozlanib modernizatsiya qilish ishlari olib boriladi.

Mustaqillik yillari yoqilg'i-energetika sohasi Qashqadaryo viloyatida eng jadal rivojlantirildi. Eng ko'p investitsiyalar kiritilgan soha bo'ldi. Chunki viloyat respublikaning asosiy yoqilg'i-energetika bazasi hisoblanadi. Viloyat hozirgi kunda qazib olinayotgan tabiiy gazning 97%dan ortig'i, neftning 95, gaz kondensatining 100%i Qashqadaryo hisobiga to'g'ri keladi. Bu

davrda Muborak gazni qayta ishlash zavodida yangi bloklar, Ko'kdumaloq va SHO'rtanda kompressor stansiyalari qurildi, yangi quduqlar foydalanishga topshirildi.

Yoqilg'i-energetika majmuasi mamlakatimiz iqtisodiyotida o'ziga xos o'rin tutib iqtisodiyotning elektr quvvatiga, turli xil motor va pech yonilg'isiga, mashina va uskunalari uchun texnika yog'lariga bo'lgan ehtiyojlarni ta'minlashning moddiy-texnik asosi hisoblanadi. Yalpi ichki mahsulot hajmining o'sishi, ichki bozorning to'yinishini, korxonalar mintaqalar va xorijiy hamkorlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning barqarorligi, mintaqalar iqtisodiy rivojlanishining bir maromda va mutanosib borishi eng avvalo, iqtisodiyotning energetika resurslari bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq.

Yoqilg'i sanoati respublika yoqilg'i-energetika majmuasining asosiy tarmog'ini tashkil etadi va barcha turdagi yoqilg'ini qazib olish, tabiiy gazni tozalash va yetkazib berish, neft mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalaridan iborat. Ular iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga xizmat qiladi.

Yoqilg'i-energetika majmuasining respublikamiz iqtisodiyotida tutgan o'rnini hisobga olgan holda mazkur tarmoq o'zak tarmoqlar jumlasiga kiritilgan. O'zak tarmoqlar milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun eng zarur resurslarni yetkazib beruvchi tarmoqlar majmui bo'lib, ular yirik investitsiyalarni yo'naltirish orqali rivoj topmoqda.

Umuman olganda yoqilg'i-energetika majmuasi nafaqat milliy iqtisodiyotning energetika resurslariga bo'lgan ehtiyoqlarini qondiradi, balki uning bir qismi boshqa mamlakatlarga eksport qilinadi va valyuta tizimining muhim manbasi hisoblanadi. So'ngi yillarda ochilgan neft zahiralari (Mingbuloq va Ko'kdumaloq konlari) neft eksportini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, yoqilg'i-energetika resurslari mineral o'g'itlar sintetik tolalar va iplar, polipropilen, poliztilen, oltingugurt va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish uchun muhim xom ashyo bo'lib xizmat qiladi.

Qashqadaryo viloyati neft va gaz mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha respublikamizda yetakchi o'rinni egallaydi. Viloyatda yirik gaz zahiralarning mavjudligi energetika va kimyo sanoatini rivojlantirish imkonini beradi. Bundan tashqari, viloyat yirik hajmdagi gaz kondensati zahirasiga ega. Unda Ko'kdumaloq koni alohida ahamiyatga ega. Mazkur o'ziga xos gaz konining ochilishi nafaqat viloyat, balki respublikaning yoqilg'i-energetika bazasini mustahkamlash imkonini berdi.

E'tiborlisi shundaki, chet elliy sarmoyadorlar viloyatning nafaqat neft-gaz va energetika sohasiga, shuningdek, oziq-ovqat, yengil sanoat va boshqa tarmoqlarga ham investitsiyalar kiritmoqda. Masalan, G'uzor tumanidagi 30 ming tonna bug'doyni qayta ishlaydigan un

kombinatiga “Yakkabog‘teks”, “Shahrisabzdagi”, “Oqsaroyto‘qimachi LTD”, Qarshi shahridagi “Cottop Roaa” korxonalariga chet el sarmoyalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat kafolatisiz kiritilgan.

Shu bilan birga viloyatda qurilish sanoati hamda qishloq xo‘jalik maxsulotlarini qayta ishlash korxonalarini modernizatsiya qilish va texnologik qayta jihozlash, yangilarini barpo etish bo‘yicha ham dasturlar amalga oshirildi. Masalan, 2006 yilda 2000 yilga nisbatan pishiq g‘isht ishlab chiqarish 3,3 martaga, yig‘ma-temir beton mahsulotlari 3,7 martaga, kalava 7,2 martaga, tozalangan o‘simlik yog‘i 60,1%ga, go‘sht va go‘sht mahsulotlari 47,9%, sut va sut mahsulotlari 42,7%ga, non va non mahsulotlari 2,6 martaga, un ishlab chiqarish esa 26%ga o‘ydi. ¹Bu esa iste‘mol mollari ishlab chiqarishning tahlili oziq-ovqat, yengil, kimyo mahsulotlari va qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmlarining yildan-yilga ortib borayotganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston xalq xo‘jaligi tizimida Qashqadaryo viloyati paxta, g‘alla, pilla, qorako‘l teri, jun, neft, go‘sht, polijtelin, oltingugurt va boshqa ko‘plab mahsulotlar yetkazib beradigan viloyatdir. Shu bilan birga viloyatda qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish imkoniyatlari katta, chunki o‘zlashtirish mumkin bo‘lgan yerlarning mavjudligi, ekin ekilayotgan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, kompleks mexanizatsiyani amalga oshirish evaziga hosildorlikni ko‘paytirish va chorva mollarning mahsuldorligini oshirish yo‘li bilan viloyatning qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishdagi mavqeini yanada oshirish mumkin.

Viloyatda tashkil etilgan yirik ishlab chiqarish birlashmalari (sanoat, dehqonchilik sanoati hamda sanoat birlashmalari, xalq xo‘jaligini hududiy tashkil etish va boshqarishning asosiy shakllari bo‘lib qoldi. Birlashmalarning afzalligi shundaki, ular fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishda, ishlab chiqarishning yangi texnika bilan qayta jihozlashning barcha iqtisodiy, omillaridan hamda moliyaviy va mehnat resurslaridan unumli foydalanishni tezlashtiradi.

Hozirgi kunda Muborak, SHO‘rtangaz va Qarshi neft ishlab chiqarish boshqarmalari, Qurilish industriyasi, tikuvchilik hamda non mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari va dehqonchilik sanoati majmualari faoliyat ko‘rsatmoqda. Birlashmalar tarkibidagi korxonalar neft, tabiiy gaz, oltingugurt, suyultirilgan gaz, polietelin, qurilish materiallari, tayyor kiyimlar, mebel, paxta tolasi, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib beradi.

Qashqadaryo viloyati ishlab chiqarish kuchlarini yanada rivojlantirish uchun katta moddiy texnika baza, mineral, yer hamda mehnat resurslariga ega. Shu boisdan, Qashqadaryo viloyati O‘zbekiston xalq xo‘jaligi majmuasi tarkibida muhim iqtisodiy mavqega ega. Mavjud imkoniyatlardan foydalanish kelgusida bu yerda respublika ahamiyatiga ega bo‘lgan yirik dehqonchilik sanoati majmuasini vujudga keltirish imkonini beradi. Viloyatning ishlab chiqarish

¹ Қашқадарё вилояти истиқлол йилларида, Тошкент “Манавият” 2007 йил, 34-бет.

sohasidagi ixtisoslashuvini belgilovchi uch tarmoq majmuasi, paxta-g'allachilik, meva-sabzavotchilik va neft-gaz sanoati rivojlantiriladi.

Kelajakda viloyatdagi tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlar hisobga olingan holda sanoat ancha rivojlantiriladi, sanoat korxonalarini oqilona joylashtirish, mehnat resurslaridan to'laroq foydalanish, xalq xo'jaligini malakali kadrlar bilan ta'minlash kabi vazifalar hal etiladi. Qishloq xo'jaligida esa dehqonchilik bilan chorvachilikni yanada rivojlantirish, aholini chorva, bog'dorchilik va uzumchilik, poliz hamda sabzavot mahsulotlari bilan to'la-to'kis ta'minlashga alohida ahamiyat beriladi.

2.2. Viloyat sanoat tarmoqlari shakllanishi va rivojlanishining geografik jihatlari

Qashqadaryo viloyatining iqtisodiyoti rivojlanib borayotgan agrar-industrial yo'nalishga ega. Yaqin kelajakda uning industrial-agrar xususiyatini olishiga tegishli imkoniyatlar mavjud. Hozirgi vaqtda viloyat yuksak iqtisodiy salohiyatiga ega bo'lgan mintaqalardan biri hisoblanadi. U respublika milliy iqtisodiyotida o'ziga xos "lokomotiv" vazifasini bajaradi. Bu yerda neft-gaz, tog'-kon kimyosi, paxta, g'alla, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish yaxshi rivojlangan. Xususan, neft va gaz, paxta va g'alla yetishtirishda u mamlakatimizda birinchi, kimyoviy mahsulotlar (polietilen va b.) hamda chorvachilik bo'yicha ham oldingi o'rinlarning birini egallaydi.

2010 yil yakunlariga ko'ra, mintaqa yalpi hududiy mahsulotining 40,7 foizini sanoat ishlab chiqarish ta'minlagan. (2009 yilda – 46,1 %). Qishloq xo'jaligining ulushi 18,4 %, qurilishniki 7,0; transport va aloqa YAHM-ning 4,5 %, savdo va umumiy ovqatlanish 4,3 foizini ta'minlaydi.

Boshqa hududlarda bo'lganidek, bu yerda ham bozor islohotlariga katta e'tibor berilmoqda. Ammo viloyat sanoatini xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish o'ziga xos xususiyatga ega. Sababi sanoatning asosan yoqilg'i-energetikaga ixtisoslashganligi, ya'ni strategik ahamiyat kasb etishi tufayli nodavlat sektori bu sohada nisbatan pastroq.

2010 yilda kapital qo'yilmalarning umumiy hajmi 1598 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkichlarning eng katta qismi Muborak (28,0 %) Mirishkor (16,9 %) va tumanlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, G'uzor (12,3 %) tumani va Qarshi shahrining (11,0 %) investitsion salohiyati ham yuqoriroq bo'lgan. Eng so'nggi yillarda Dehqonobod tumanida respublikamizda yagona kaliy zavodini qurish munosabati bilan bu hududga yo'naltirilgan investitsion mablag'lar ham ortib bormoqda (7,7 %). Shu bilan birga, Chiroqchi, Kasbi, Qamashi, Kitob qishloq tumanlarida 2010 yilda tahlil etilayotgan ko'rsatkichlar ancha past bo'lgan (100-jadval).

Sanoat-moddiy ishlab chiqarishning eng yirik yetakchi tarmog'idir. Unda mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste'mol tovarlarining ko'pchilik qismi yaratiladi. Mashina va mexanizmlarning barcha turlari, bino va inshootlarning konstruktiv elementlari ishlab

chiqariladi, yer osti boyliklari qazib olinadi, mineral, o'simlik va hayvon xomashyosiga ishlov beriladi, keng iste'mol mollari tayyorlanadi va boshqalar.

Sanoat xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini ishlab chiqarish vositalari mehnat qurollari bilan ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyot, fan, ma'orif, madaniyat, sog'loqni – saqlash, sport, turizm va boshqa sohalar rivoji sanoatning taraqqiyoti darajasiga bog'liq.

Ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari taraqqiyotida sanoatning tarixiy roli beqiyosdir. Shu sababli uning rivoji va samaradorligi qanchalik yuqori bo'lsa, davlatning mavqei shunchalik kuchli bo'ladi va aholi turmush darajasini yanada yaxshilanib boradi.

Sanoat jamiyatning yetakchi kuchi bo'lgan ishchilar sinfini o'zida birlashtiradi. Sanoat rivoji tufayli unda band bo'lgan hodimlarning soni ko'payadi, ularning bilimi va ilmi, mahorati ortadi, kadrlar salohiyati yuqori darajaga ko'tariladi.

Sanoat sohasida mehnatni ijtimoiy tashkil qilishning eng oliy turi konsentratsiyaning yuqori darajasi va shu asosda ijtimoiy ishlab chiqarishni uyushtirishning ilg'or usullari ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish va kombinatlashtirish, ishlab chiqarishni potok tizimi yordamida uzluksiz tashkil etish ustunlik qiladi.

Sanoat va ayniqsa, uning eng muhim sohasi bo'lgan og'ir sanoat mamlakatda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosi hisoblanadi. U moddiy-texnika vositalarini o'zi va boshqa tarmoqlar uchun takror ishlab chiqarish bilan bir vaqtda jamiyat a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirib ham boradi.

Sanoat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni qayta qurishning negizi hisoblanadi. Uni yangi texnika bilan ta'minlash orqali fermer, shirkat, dehqon xo'jaliklarini va boshqa shakllarda faoliyat ko'rsatayotgan subyektlarni iqtisodiy va madaniy jihatdan yuqori darajaga ko'tarishga, shahar bilan qishloq o'rtasidagi muhim tafovutlarni yo'qotishga, dehqon mehnatini industrial mehnatga aylantirishga yordam beradi.

Sanoat – mamlakat mudofaa qobiliyatining moddiy manbai, dunyoda tinchlikni saqlashning muhim omili, mamlakatlar mustaqilligini va birdamligini ta'minlovchi muhim sohadir. Chunonchi, mamlakatimizda mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda sanoatning roli muhim.

Sanoat moddiy ishlab chiqarishning bosh tarmog'i, iqtisodiyotning poydevoridir. Milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qayta qurishga qodir bo'lgan yirik mashinalashgan sanoatgina mustaqillikning birdan-bir moddiy negizi bo'lishi mumkin.

O'zbekiston iqtisodiyotida sanoat ishlab chiqarish yetakchilik qiladi. U mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutib, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun moddiy – texnika vositalarini to'xtovsiz takror ishlab chiqarish manbai sifatida faolit ko'rsatadi. Iqtisodiy

rayonlashish, viloyatlarning, ijtimoiy ishlab chiqarish texnikaviy darajasini belgilab hamda moddiy va mehnat resurslaridan foydalanishning holatiga ta'sir ko'rsatadi. Mustaqillik yillarida respublikada sanoatni ustuvor sanoatni ustuvor rivojlantirishga katta ahamiyat berildi. Ichki va xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish, yangi korxonalar qurish, eskilarini qayta jihozlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, korxonalar mulk texnologiyalarni joriy etish, korxonalar mulk shakllarini o'zgartirish, resurslardan oqilona foydalanish va hokazo. Sanoatning barqaror rivojlanishini ta'minlamoqda.

O'zbekistonda sanoat tarmoqlarida mulk shakllarini o'zgartirish, xususiy mulkning mavqeini oshirish va tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirishga qaratilgan islohotlar mamlakat iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashni, mamlakatimizning kelajakda sanoati rivojlangan mamlakatlar qatoriga chiqishi va jahon xo'jaligidagi mavqeining oshirilishini ta'minlaydi.

O'zbekistonning siyosiy mustaqillikka erishishi, sanoat taraqqiyoti, milliy ishlab chiqarishni sanoatlashtirish muammolariga butunlay yangicha yondoshish imkonini berdi. Mamlakatning mavjud tabiiy xom-ashyo va mehnat resurslariga tayangan holda aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan asosiy ehtiyojlarini qondirishga imkon beruvchi sanoat korxonalarini barpo etish uchun shart-sharoit yuzaga keldi.

Milliy sanoat rivojlanishining yangi davrini makroiqtisodiy vaziyat, bozor munosabatlarini shakllantirish, tarkibiy o'zgarishlarning tavsifi va sanoatlashtirish strategiyasidan kelib chiqib bir necha bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich (1991-1995 yillar) mavjud sanoat salohiyatini saqlab qolish, strategik muhim ahamiyatga ega xom ashyoni qazib olish va birlamchi qayta ishlash, import o'rnini bosuvchi o'zak tarmoqlarni rivojlantirish chora-tadbirlari bilan tavsiflanadi. Bu davrda sanoatning o'zak tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ichki bozorni proyeksionizm vositalari orqali himoya qilish, energiya tashuvchilari narxini boshqarish orqali asosiy sanoat ishlab chiqarish korxonalarini rentabelligini ta'minlash, kichik sanoat korxonalarini xususiylashtirish kabilar amalga oshirildi.

Ikkinchi bosqich (1995-2000 yillar) iqtisodiy mustaqillik asoslarini tashkil etuvchi sanoat tarmoqlarini ustun rivojlantirish import o'rnini bosuvchi sanoatlashtirish strategiyasini keng miqyosda amalga oshirish, qayta ishlash tarmoqlariga investitsiyalar oqimini ko'paytirish, xususan, mashinasozlik, yengil sanoat, kimyo va oziq-ovqat tarmoqlarida kapital quyilmalarni ko'paytirish bilan tavsiflanadi. Byudjet mablag'lari bu davrda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Uchinchi bosqichda (2000 yildan boshlangan) importning o'rnini bosuvchi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish negizida eksportga yo'naltirilgan sanoat sohalarini barpo qilish va rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Bu bosqich yirik sanoat korxonalarini xususiylashtirish, davlat

korxonalarining monopol mavqeini chegaralash, xususiy sektorning sanoatdagi rolining oshishi, samarasiz faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini tugatish jarayonlarining tezlashishi, korxonalarni boshqarishning tashkiliy tuzilmasini isloh qilish, mahalliyashtirish jarayonlarining jadallashishi bilan tavsiflanadi.

O'zbekistonda ayniqsa gaz, neft, kimyo, mashinasozlik, rangli metallurgiya, yoqilg'i sanoati tarmoqlari jadal sur'atlar bilan o'sdi. Sanoat taraqqiyotini jadallashtirish – valyuta moliyaviy, xalq xo'jaligining tashqi bozorga qaramliligini zaiflashtiradi. Sanoatning iste'mol buyumlari bilan o'zini-o'zi ta'minlashi esa xalq turmush darajasini ko'tarishni kafolatlaydi.

Mamlakatimiz viloyatlari ichida Qashqadaryo viloyati sanoati boshqa viloyatlarga nisbatan xomashyo tarmoqlarini ishlab chiqarish nisbatan rivojlanganligi bilan farq qiladi. Chunki o'tmishda Qashqadaryo Turkiston o'lkasining kam rivojlangan qoloq qishloq xo'jaligi rayoni edi. Bu yerda faqat bir nechta mayda hunarmandchilik korxonalari, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik korxonalar hamda Shahrisabz paxta tozalash korxonasi mavjud edi.

Qashqadaryo viloyatida sanoat korxonalarini barpo etish va uni rivojlantirish sobiq ittifoq davrida boshlandi. Urushdan keyingi besh yilliklarda sanoatning qishloq xo'jaligi xomashyolari birlamchi ishlov beruvchi tarmoqlari rivojlantirildi.

Hozirgi vaqtda viloyatda 100 dan ortiq yirik korxonalar ishlamoqda. Ayniqsa, mustaqillik yillari yoqilg'i-energetika sohasi Qashqadaryo viloyatida eng jadal rivojlangan, eng ko'p investitsiyalar kiritilgan soha bo'ldi. Bu tabiiy edi, chunki viloyat respublikaning asosiy yoqilg'i-energetika bazasi hisoblanadi. E'tiborlisi shundaki, chet ellik sarmoyadorlar viloyatning nafaqat neft-gaz va energetika sohasiga shuningdek, oziq-ovqat, yengil sanoat va boshqa tarmoqlariga ham investitsiyalar kiritilmoqda. Masalan, G'uzor tumanidagi 30 ming tonna bo'g'doyni qayta ishlaydigan un kombinatiga, "Yakkabog'teks", Shahrisabzdagi "Oqsaroy-to'qimachilik LTD", Qarshi shahridagi "Cotton Road" korxonalariga chet el sarmoyalari to'g'ridan-to'g'ri davlat kafolatisiz kiritilgan.

Viloyat sanoati tarmoqlari ichida yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'rinda yoqilg'i sanoati turadi. Hozirgi vaqtda bu tarmoq ulushiga ishlab chiqarilayotgan barcha ichki yalpi mahsulotning 84,8%i ishchi va xizmatchilar va asosiy ishlab chiqarish jamg'armalarning 76,2%i to'g'ri keladi. Undan keyin yengil sanoat tarmoqlari (7,8,10,8,28,6) hamda oziq-ovqat sanoati (3,5,7,4,12,6) muhim o'rin tutadi. Mustaqillik yillarida viloyatda yoqilg'i, qurilish, mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmoqlarining o'sishi natijasida sanoat tizimida og'ir sanoatning salmog'i o'sib bordi. Jumladan, 1990 yilda og'ir sanoatning ulushi 52,3%ni tashkil qilgan bo'lsa 2009 yilda bu ko'rsatgich 87,9%ni tashkil etdi.

Hozirgi vaqtda viloyat sanoat tarmoqlari orasida gaz va neft qazib chiqarish, tabiiy gazni qayta ishlash natijasida polietelin, oltingugurt ishlab chiqarish, paxta tozalash, ip-kalava ishlab chiqarish, o'simlik moyi va konserva ishlab chiqarish yetakchi tarmoqlardir. Sanoatning bu tarmoqlari salmog'i yalpi sanoat mahsulotining 95,6%ini tashkil etadi. Shuning uchun ham bu tarmoqlar respublika ahamiyatiga ega bo'lib, rayonlararo tovarlar almashinuvida ishtirok etadi.

Viloyatda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish 1970 yillardan boshlab ancha katta zahiraga ega bo'lgan gaz va neft konlarining foydalanishga topshirilishi hamda Qarshi cho'lida quriq yerlarning o'zlashtirilishi munosabati bilan tez o'sdi. 1970-1990 yillarda respublikada sanoat yalpi mahsuloti ishlab chiqarish 3,6 marta o'sgan holda, Qashqadaryoda 5,2 marta o'sdi.

Yoqilg'i-energetika sanoati viloyat sanoatining muhim tarmog'i bo'lib, neft va gaz qazib olish, elektroenergetika ishlab chiqarish hamda gazni qayta ishlash sohalarini o'z ichiga oladi. Viloyatda gaz sanoatining vujudga kelishi va rivojlanishi mamlakat yoqilg'i-energetika bazasini mustahkamlashga imkoniyat yaratadi. Natijada chetdan yoqilg'i keltirish hamda buning uchun ketadigan transport va boshqa harajatlar keskin kamaydi.

Viloyatda gaz va neft qazib olish 60-yillardan boshlandi, 1965-yilda viloyatda 164,2 mln m³ gaz, 29 ming t neft qazib olingan bo'lsa, 1970 – yilda 3232 mln m³ gaz, 334 ming t neft va 1520,1 ming t kondensat olindi.

Hozirgi paytda Qashqadaryo viloyati O'zbekistonda qazib olinadigan gazning 88%ini, kondensatning 100%ini, neftning 92%ini beradi. Qashqadaryoda qazib olinadigan gazning asosiy qismi quvurlar orqali viloyatdan tashqarida joylashgan iste'molchilarga yetkazib berilmoqda. Umuman Qashqadaryo viloyati gaz va neft sanoatining istiqboli ancha porloq. Chunki, hozirgi paytda viloyat hududida ko'plab istiqbolli gaz konlari aniqlangan. Bu yerda topilgan gaz konlari kondensatli bo'lib, tozalashni talab qiladi. Shu maqsadda 1972-yili Muborak gazni qayta ishlash zavodi qurildi. Hozirgi kunda bu korxonada 36,1 mlrd m³ gazni qayta ishlash natijasida xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan 188,4 ming t oltingugurt olinmoqda. SHo'rtangazini quvurlar orqali Taxiatosh GRESiga yetkazib berilishi natijasida har yili chetdan 100 ming t mazutni olib kelishga chek qo'yildi. Qoraxitoy-Qarshi gaz quvurining ishga tushirilishi Qarshi, Koson va Beshkent aholi punktlarini tabiiy gaz bilan ta'minlash imkonini berdi.

1985-90 yillarda viloyatda gaz qazib olish taxminan 1,5 marta, neft 1,7 martadan ko'proq va yoqilg'i sanoatining yalpi mahsuloti 1,5 martaga o'sdi. Qashqadaryo viloyatida tabiiy gazning sanoat zahiralari O'zbekistonda aniqlangan gaz zahiralarning asosiy qismini tashkil etadi. Gaz konlarining ko'pchiligida qimmatli kimyoviy xomashyo va yengil neft mahsulotlari olish manbai bo'lgan gaz kondenseti bor.

Qashqadaryo viloyati yoqilg‘i sanoatining ayrim ko‘rsatgichlari

Ko‘rsatgichlar	1990	2009
Yapli mahsulot mln so‘m	650.3	3460437.3
Gaz qazib olish mlrd kub	38.9	54231.5
Neft qazib olish ming t.	775.8	2001.6
Yoqilg‘i sanoatida band bo‘lgan ishchi va xizmatchilar soni kishi	2467	3639

Mustaqillik yillarida iqtisodiyot tarmoqlarini va aholi ehtiyojini o‘zimizda ishlab chiqarilgan energetika resurslari, sifatli neft mahsulotlari hisobiga ta‘minlash masalasi tubdan hal qilindi. Bunga asosan, Qashqadaryoda ishlab chiqarilgan neft va gaz mahsulotlari hisobiga erishildi. Aynan Qashqadaryoda mavjud yirik neft va tabiiy gaz zahiralari hisobiga mustaqillik yillarida respublikamizda neft va gaz kondensati ishlab chiqarish qariyb uch barobarga oshdi. Agar 1990 yilda O‘zbekistonda iste‘mol qilinadigan neftning 70%dan ortig‘i va neft mahsulotlarining yarmi import qilingan bo‘lsa, bugungi kunda ular importining ulushi deyarli to‘xtatildi. Shu bilan birga mamlakatimiz neft importidan uning eksportiga aylandi.

Islohotlar yillarida tabiiy gaz ishlab chiqarish ham mutassil o‘sish tendensiyasiga ega bo‘ldi. Agar 1990 yilda 38,9 mlrd m³ tabiiy gaz ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2009 yilga kelib bu ko‘rsatgich 54,2 mlrd m³ ga yetdi, ya‘ni ushbu davr mobaynida qariyb 1,4 martaga ko‘paydi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda qazib olinayotgan gazning 88%i, neftning 92%i Qashqadaryo viloyati ulushiga to‘g‘ri kelmoqda.

So‘ngi yillarda ham, Qashqadaryo viloyatida neft va gaz ishlab chiqarish barqaror saqlanib qolmoqda. 2002 yilda viloyat bo‘yicha 56,3 mlrd.m³ tabiiy gaz ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2009 yilda bu ko‘rsatgich 54,2 mlrd m³ ga yetkazildi. Mazkur yillar davomida neft ishlab chiqarish kamayib bordi. Shuningdek, 2009 yilda Qashqadaryo viloyatida 5387,2 mln kvs elektroenergiya, 2003 ming t gaz kondensati, 2618 ming t oltingugurt, 139,9 polietilen granulasi ishlab chiqarildi.

Keyingi yillarda yoqilg‘i-energetika majmuasi rivojlanishiga yirik miqdorda xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi, ilg‘or texnika va texnologiyalarning joriy etilishi majmuada ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatini bermoqda. Xususan, 2007 yilda tashqi savdo aylanmasi 2461655,8 ming AQSH dollari miqdorida amalga oshirilgan bo‘lsa, shuning 2068678,5 ming AQSH dollarini eksport tovarlari tashkil qildi. Eksport tarkibida 7,6%i miqdorida paxta tolasi, 88,1% miqdorida energetika manbalari eksport qilingan.

Qashqadaryoda hozirgi kunda neft va gaz qazib olish va qayta ishlash sohasida Muborak neft va gaz unitar sho‘ba korxonasi, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, SHO‘rtan neft-gaz unitar

sho‘ba korxonasi va SHO‘rtangazkimyo majmuasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Viloyatdagi yoqilg‘i-energetika majmuasiga qarashli korxonalar jahonning eng rivojlangan kompaniyalari bilan hamkorlikda qilmoqda.

Xususan, Muborak gazni qayta ishlash zavodi AQSH, Fransiya, Germaniya, Chexiya, Rossiya, Yaponiya, Ukraina davlatlari bilan iqtisodiy aloqalar o‘ratgan bo‘lib, ular tomonidan absorbentlar, katalizatorlar, kimyoviy reagentlar, kimyoviy, reaktivlar, kimyoviy asbob-uskunlar yetkazib berilmoqda.

Nafaqat viloyat, balki butun respublika yoqilg‘i-energetika majmuasining eng yirik korxonasi hisoblangan SHO‘rtangazkimyo majmuasining 2001 yil 20 dekabrda ishga tushirilishi davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, mamlakatimiz sanoatining yanada barq urib rivojlanishi uchun ulkan imkoniyat yaratdi. Korxonada yiliga 125 ming t polietilen, dunyo bozorida haridorgir bo‘lgan 137 ming t suyultirilgan gaz, 130 ming t yengil kondensat 4,2 mlr m³ gaz maxsulotlari va 4 ming t dan ko‘proq oltingugurt ishlab chiqarish quvvatiga ega. Mazkur korxonada ko‘plab yirik halqaro kompaniyalar ishtirokida barpo etildi. Majmuada o‘rnatilgan uskunalarning qiymati 650 mln AQSH dollarini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 5 sentabrdagi 342-sonli “2005 yilgacha bo‘lgan davrda mahalliy xom ashyo negizida buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, viloyatda “Termoplast” zavodida SHO‘rtangazkimyo majmuasida ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yiladigan xomashyo asosida yiliga 288 ming pgm polietilen gaz va suv quvurlari ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish ko‘zda tutilgan bo‘lib, 2007 yil yakuniga ko‘ra SHO‘rtangazkimyo majmuasida 108,2 ming t gaz kondensati, 1,7 ming t oltingugurt, 139,9 ming t polietilen granulatsiya, 121,4 ming t suyultirilgan gaz ishlab chiqarildi.

Elektr-energetika sohasida ham viloyatda respublika ahamiyatiga ega bo‘lgan Talimarjon issiqlik elektrostansiyasining birinchi 800 MGvt quvvatli bloki ishga tushirildi. Uning barcha to‘rt bloki 3,2 MGvt quvvatga ega bo‘ladi. Taqqoslash uchun o‘z vaqtida butun o‘rta Osiyoda yirik hisoblangan Nurek GESi quvati 1,2 MGvt ekani eslash kifoyadir.

Bugungi kunda Talimarjon GESi 6 mlrd kVt / soat elektroenergiya ishlab chiqarilmoqda.

Hozirgi vaqtda Qashqadaryo viloyatining janubi-g‘arbiy qismida joylashgan va zahirasining kattaligi jihatdan mamlakatimizda tengi yo‘q SHO‘rtanda gaz majmui qurilgan hamda oltingugurt kamroq bo‘lgan tabiiy gazni energetika ehtiyojlari uchun mintaqalarga uzatish uchun SHO‘rtan-Sirdaryo-Toshkent gaz quvuri ishga tushirilgan. Shuningdek, Gazli-Chimkent gaz quvuri qurilib foydalanishga topshirildi. SHO‘rtan gaz majmuida jahonda birinchi bo‘lib molekulyar elaklar qo‘llanilmoqda.

Yoqilg'i-energetika majmuasining bundan keyingi rivoji viloyatda amalga oshiriladigan geologiya-qidiruv ishlarining samaradorligi, majmuamahsulotlarini qayta ishlash darajasiga bog'liq. Shu munosabat bo'lgan keyingi yillarda viloyatda Zevarda, O'rtabuloq va Janubiy Tandirchi konlarini o'zlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoat og'ir sanoatning muhim tarmog'i bo'lib, uning rivojlanishi halq xo'jaligining barcha tarmoqlarida mehnatni yengillashtirish, mehnat unumdorligini oshirish hamda ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Hozirgi paytda Qashqadaryo viloyatida transport va qishloq xo'jalik mashinalarini ta'mirlash kichik korxonalar mavjud. Bu korxonalar qishloq xo'jalik mashinalarini hamda avtomobillarni ta'mirlash va texnika ta'miri uchun turli xil detal va jihozlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

Viloyatda mashinasozlik korxonalarining vujudga kelishi va uning kelajakda rivojlanishi xo'jaliklarda traktor va avtomobil saroylarining kengayishi hamda ularning moddiy-texnika bazasining o'sishi bilan bog'liqdir. Hozirgi davrda bu tarmoq viloyat sanoati yalpi mahsulotining 0,4%ini beradi.

Qurilish materiallari sanoati tarkibiga kiradigan asosiy korxonalar XX – asrning 70-yillaridan keyin tez rivojlandi. Chunki viloyat hududida yangi yerlarning o'zlashtirilishi, irrigatsiya inshootlarining barpo etilishi sanoat korxonalarini, uy-joy, madaniy-maishiy, obyektlarning barpo etilishi ko'plab qurilish materiallari ishlab chiqaradigan korxonalarini qurishni taqozo etdi. Shu bilan birga viloyatda bu korxonalarini barpo etish uchun kerakli xom ashyo resurslarining bo'lishi bu masalani hal etishga obyektiv zamin yaratadi. Qurilish materiallaridan marmar, g'isht ishlab chiqarish uchun xom ashyolar, shag'al, qum mergel gips zahiralari mavjud. Bu resurslar asosida yirik qurilish industriyasi vujudga keldi.

Hozirgi kunda Kitobda "Qashqadaryo" marmar ishlab chiqarish birlashmasi, Qarshi ixtisoslashtirilgan qurilish birlashmasiga qarashli qurilish materiallari ishlab chiqaradigan korxonalarini hamda mustaqillik yillarida chet el texnologiyasiga asoslangan xususiy g'isht zavodlari ko'plab qurilgan. Bu korxonalarining mahsuloti viloyat miqyosida iste'mol qilinadi. Qurilish materiallari ishlab chiqaradigan korxonalar 2009 yilda 87,3 mln dona g'isht, 74,6 ming m³ yig'ma temir-beton buyumlari hamda 748 m³ noruda materiallari ishlab chiqarildi. Sanoatning bu tarmog'i viloyatda ishlab chiqarilayotgan sanoat yalpi mahsulotining 1%dan ko'prog'ini beradi.

Yengil sanoat mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. U qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan yengil va oziq-ovqat sanoat korxonalarini o'z ichiga oladi. Mamlakat yengil sanoati uning tarkibida paxta tozalash zavodlari, to'qimachilik korxonalarini,

trikotaj va shoyi to‘qish, tikuvchilik va ko‘n-poyabzal gilamchilik, chinni-fayans buyumlari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini o‘z ichiga oladi. Mustaqillik yillarida sanoatning bu tarmog‘i ancha rivojlantirildi.

Yengil sanoat-viloyatning sanoat tarmoqlari ichida yalpi mahsulot ishlab chiqarish jihatdan ikkinchi o‘rinda turadi. Xom ashyo yoqilg‘i-energetika hamda mehnat resurslarining yetarli darajada mavjudligi viloyatda yengil sanoatni rivojlantirish va joylashtirishga asosiy ta‘sir ko‘rsatadigan omillardir. Bu tarmoq korxonalarini 2007 yilda 317,7 mlrd so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqargan bo‘lib, taxminan 55%i paxta tozalash korxonalarini to‘g‘ri keladi.

Qashqadaryo viloyatidagi yengil sanoat korxonalarini qishloq xo‘jalik mahsulotlariga dastlabki qayta ishlov beradigan paxta tozalash, pillakashlik tarmoqlari hamda aholi va xalq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun keng iste‘mol mollari ishlab chiqaradigan tarmoqlardan iborat. Qishshloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan tarmoqlar ichida ko‘p tarmoqli paxta ishlab chiqarish majmuasining tarkibiy qismi bo‘lgan paxta tozalash korxonalarini muhim o‘rin tutadi.

1965 yilga qadar viloyatda Qarshi, Yakkabog‘ va Shahrisabz paxta tozalash zavodlarini mavjud bo‘lib, ular har yili 64 ming t paxta tolasi ishlab chiqargan. Keyingi yillarda Qarshi cho‘lining o‘zlashtirilishi, paxta ekiladigan maydonlarning kengaytirilishi va yalpi hosilning ko‘payishi munosabati bilan Koson, G‘uzor, Qamashi, Jeynov, Chiroqchi, Mug‘lon, Nishon va Beshkent paxta tozalash korxonalarini qurildi. Hozirgi paytda viloyatda 12 paxta tozalash korxonalarini ishlab turibdi. Bu korxonalarining paxta ekiladigan maydonlarga bevosita yaqin joylashtirilishi yetishtirilgan xom ashyoni isrof qilmasdan to‘la qayta ishlash imkoniyatini bermog‘da. Bu korxonalarining asosiy mahsuloti paxta tolasi bo‘lib, viloyatda 1990 yilda 173,1 ming t tola ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2009 yilda bu ko‘rsatgich 148,3 ming t ni tashkil etdi. Tola ishlab chiqarishning kamayishi qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarning borishi bilan bog‘liq, chunki, mustaqillik yillarida paxta yakka hokimligiga chek qo‘yildi. Natijada paxta maydonlarini qisqartirilib g‘alla, sabzavot, poliz hamda yem-hashak ekinlarini maydonining kengaytirilishi bilan bog‘liqdir.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotiga chuqur va keng ko‘lamli tarkibli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Respublika hududlarini ilg‘or asosan xom ashyo yetkazib bergan bo‘lsa, endi ko‘proq raqobatga bardoshli tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan va eksport qiladigan mintaqalarga aylanmoqda.

Qashqadaryo viloyatida dastlab Qarshi shahrida “Kashteks” majmuasi (hozirgi cotton Rood), keyinroq Shahrisabz shahrida “Oqsaroy-to‘qimachi LTD” O‘zbek-Yapon-Turk, Yakkabog‘da “Yakkabog‘teks” o‘zbek-nemis qo‘shma korxonalarini, Qamashi ip-yigiruv korxonasi qurildi. Sobiq ittifoq davrida O‘zbekistonda yetishtirilgan paxtaning 7%i qayta ishlangan bo‘lsa,

respublikaning o'sha paytda 10-11% paxtasini beradigan Qashqadaryoda atigi 2 ming t paxta toladan kalava ipi yigirilgan xalos.

Yaqin kelajakda yuqoridagi korxonalar qatoriga yana boshqa yangi korxonalar qo'shilishi mo'ljallanmoqda. G'uzor tumanida yiliga 10 ming t kalava ip ishlab chiqarish quvvatiga ega "G'uzorteks", Qarshi, Mirishkor tumanlarida 4 ming t kalava ip ishlab chiqaradigan ip-yigiruv fabrikalari, Qarshi shahrida 41 mln kv m ip-g'alama to'qimachilik kombinati qurilishi loyihalashtirilgan. Kitob ip-yigiruv fabrikasi modernizatsiya qilinmoqda. Unga hukumat qaroriga binoan jami 15,5 mln AQSH dollaridan ortiq investitsiya kiritiladi.

Viloyatda qabul qilingan sanoatni rivojlantirish dasturiga ko'ra Qashqadaryoda yaqin yillarda yana 43 ta kichik yengil sanoat korxonalarining ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

Tabiiyki, iqtisodiyotdagi bunday tarkibiy o'zgarishlar xalqimizning kasb-hunar va ishlab chiqarish salohiyatini tez o'stirmoqda, bilim va malakasini boyitib, yangi iste'dod va qobiliyatlarini yuzaga chiqarmoqda. Bugungi kunda o'zbek yigit-qizlari eng zamonaviy va murakkab texnologiyalarni o'zlashtirib, jahon bozorida raqobatga bardoshli mahsulotlar ishlab chiqara olishga qodir ekanligini namoyish etmoqda.

Hozirgi paytda yengil sanoat korxonalari koni xalq iste'moli buyumlarini yetarli darajada ishlab chiqarish quvvatiga ega emas. 2009 yilda viloyatda ishlab chiqarilgan yalpi sanoat mahsulotida yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlarining ulushi 7,8%ni tashkil etadi, uning asosiy qismini qishloq xo'jalik mahsulotlariga birinchi ishlov beradigan korxonalar tashkil etadi. Viloyatda xom ashyo, yoqilg'i, mehnat resurslari va boshqa omillar yetarli bo'lsada, u yerda to'qimachilik, yirik tikuvchilik, poyafzal galanteriya va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar yo'q.

Kelajakda viloyatda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va aholining o'sishi aholi uchun keng xalq iste'moli buyumlari ishlab chiqaradigan korxonalarni qurish va ishga tushirishni taqozo etadi. Shu maqsadda kelajakda viloyat hududida ip-yigiruv, to'qimachilik, tikuvchilik poyafzal, galanteriya va qishloq joylarda keng xalq iste'mol mollari ishlab chiqaradigan kichik korxonalar barpo etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni chiqqandan so'ng viloyatda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiq oqibatlarini bartaraf etish, iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlari va makroiqtisodiy mutanosibligini hamda tarmoq korxonalarining barqaror ishlashning ta'minlashga yo'naltirilgan ustuvor vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Natijada aholi bandligini ta'minlashga e'tibor qaratilib, eksport qiluvchilar va tarmoq korxonalari

hamda kichik biznesni aniq manzilli qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari amalga oshirilmogda. Xususan, birgina 2009 yil yakuniga ko‘ra 66100 yangi ish o‘rinlari yaratildi. Shuning 15835 tasi kasanachilik asosida yaratilgan yangi ish o‘rinlari hisoblanadi.

Keyingi yillarda viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarini modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashga qaratilgan, ayniqsa, gaz-kimyoy, yengil sanoat, oziq-ovqat, yoqilg‘i-energetika va elektr energetikasi yo‘nalishlariga investitsiyalarni jalb qilish yuzasidan katta ishlar olib borilmoqda. Natijada viloyatda 2007 yilda 4 trln 827,9 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Birgina 2006-2007 yillarda iste‘mol mollari va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaradigan 30 ga yaqin korxonalar modernizatsiya qilindi yoki zamonaviy texnologiyalar bilan qayta jihozlandi. Bu tadbirlar keng ko‘lamda davom ettirilmoqda. Masalan, “SHo‘rtangazkimyo” majmuasida 2008-2010 yillardagi modernizatsiya hisobiga polietelin ishlab chiqarish hozirda 125 ming t dan 225 t ga yetkaziladi.

Vazirlar Mahkamasining “Respublikada to‘qimachilik tarmog‘iga investitsiyalar jalb etish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq viloyatning 5 ta korxonasiga 39 mln AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritish mo‘ljallangan. Shundan “Kitob ip-yigiruv” aksiyadorlik jamiyatiga 15,5 mln AQSH dollari, “Jeynov ip-yigiruv” korxonasiga 18,1 mln AQSH dollari “Nasaf” fabrikasiga 2,45 mln AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, viloyatning 2006-2008 yillarda to‘qimachilik sanoati korxonalarini texnik qayta qurollantirish va modernizatsiya qilish hududiy dasturiga binoan, 5 ta korxonaga 5 mln AQSH dollari miqdorida zamonaviy texnologiyalar keltirildi.

Qishloq xo‘jaligi rivojlangan Qashqadaryo hududida oziq-ovqat sanoat tarmoqlari qadimdan shakllangan va rivojlanish bosqichini davrlararo o‘tgan. Dastlab suv tegirmonlarida un, juvozlarda o‘simlik moyi, novvotxonalarda nonlar tayyorlangan, qandolanchilar turli xil shirinliklar, uzumdan musallas va boshqa sharbatli suyuq ichimliklar tayyorlaganlar.

Bugun viloyat xo‘jaligida oziq-ovqat sanoatining ulushi katta bo‘lmasadi aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashda uning salohiyati katta. Sanoatning mazkur turi asosan mahalliy (qishloq xo‘jaligi) xomashyoga tayanadi. Hozirgi kunda viloyatda ishlab chiqarilgan sanoat yalpi mahsulotining 3,5%dan ko‘prog‘i oziq-ovqat tarmog‘i hissasiga to‘g‘ri keladi. Tarmoq ko‘p xil. Unda sut va go‘sht, yog‘-moy, un va un mahsulotlari, meva, sabzavot konservalari, uzum va mevalar, vino va chanqoqbosar ichimliklar va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish yo‘nalishlari yo‘lga qo‘yilgan. Viloyat oziq-ovqat sanoat tarmoqlari ichida o‘simlik moyi, un va un mahsulotlari, meva-konserva va vino ishlab chiqarish ancha rivojlangan va viloyat hududidan tashqariga ham bu tarmoqlarning ko‘plab mahsulotlari chiqariladi. Viloyatda

sanoatning bu tarmog'ini yanada rivojlantirish uchun paxta chigiti, don, sabzavot, meva va uzum hamda boshqa qishloq xo'jalik xom ashyolari yetarlidir.

Qarshi va Koson shaharlarida yog'-moy elektraksiya zavodlari asosan chigitdan o'simlik moyi tayyorlaydi. 2009 yilda bu korxonalarda 28,3 ming t o'simlik yog'i tayyorlandi. Umuman oziq-ovqat sanoati yalpi mahsuloti 142,6 mlr so'mni tashkil etdi. O'simlik moyi viloyat aholisining ehtiyojiga ishlatiladi hamda boshqa mintaqalarga ham jo'natiladi. Shahrisabz shahridagi konserva vino zavodlarining salmoqli ulushi bor. Bu korxonalar tomat-pasta, meva sharbatlari, shinni, qiyom, murabbo va boshqa xo'l mahsulotlar tayyorlaydi. Bu korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi yil-sayin ko'paymoqda. 2009 yilda 140 mln dona shartli korserva bankalari tayyorlandi. Hozirgi paytda viloyatda tayyorlanayotgan meva-sabzavot konservalarning asosiy qismi mol ayirboshlash asosida Rossiya Federatsiyasining Ural, G'arbiy Sibir, Sharqiy Sibir, Uzoq Sharq o'lkalariga jo'natilmoqda. Keyingi yillarda viloyatda meva-sabzavot ekinlari maydonlarining kengayishi bilan bog'liq holda Kasbi tumanida konserva, Qarshi shahrida spirtsiz ichimliklar ishlab chiqaradigan kichik korxonalar ishga tushirildi.

Oziq-ovqat sanoatining mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari aholining kundalik ehtiyojlari uchun go'sht, turli xil kolbasalar sosiska, mol va qo'y yog'lari ilik va boshqa mahsulotlar tayyorlaydi. Bunday korxonalar viloyat shaharlarida joylashgan bo'lib, mahalliy xomashyo bazasida faoliyat ko'rsatadi. Oziq-ovqat sanoat korxonalari 2009 yilda 142,6 mlrd so'mlik turli xildagi aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqardi. 2007 yilda 28,3 ming t o'simlik yog'i, 27,2 ming t go'sht mahsulotlari, 40 ming t sut mahsulotlari, 182,0 ming t un, 142,3 ming t non mahsulotlari hamda 3145 t makaron mahsuloti ishlab chiqarildi.

Viloyatda chorvachilikni rivojlantirish maqsadida 3 ta omuxta yem ishlab chiqaradigan "Dunyo-M" aksiyadorlik jamiyati hamda Yakkabog' va G'uzor tumanlarida un tortish tegirmonlari bunyod etildi. 2009 yil yakuniga ko'ra viloyatda 61,5 ming t omuxta yem ishlab chiqarildi. Bunday mahsulotlarning ishlab chiqarilishi viloyatda chorvachilikni rivojlantirish, aholining go'sht, sut va boshqa chorva mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Viloyatda non-bulka, qandolat mahsulotlari ishlab chiqaradigan Qarshi, Nishon, Shahrisabz shaharlaridagi korxonalari hamda tuman markazlarda turli xildagi non mahsulotlari, shirinliklar ishlab chiqaradigan kichik korxonalar va sexlar faoliyat ko'rsatmoqda. 2009 yilda 142,3 ming t non mahsulotlari tayyorlandi.

Viloyatda mahalliy hunarmandchilikning rivojlanishi bilan aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan turli xildagi mahsulotlar ishlab chiqarish o'sib bormoqda. Kelajakda ham aholi sonining

oʻsib borishi va aholining turmush darajasining yaxshilanishini hisobga olgan holda Koson, Gʻuzor, Yakkabogʻ, Nishon, Kasbi, Mirishkor tuman markazlarida aholi ehtiyoji uchun zarur boʻlgan keng xalq isteʼmoli ishlab chiqaradigan kichik korxonalarni qurish hisobiga yangi ish oʻrinlarini yaratish boʻyicha maʼlum bir tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Bu tadbirlarning amalga oshirilishi mavjud boʻlgan xom ashyoni isrof qilmasdan qayta ishlash va aholini oziq-ovqat va boshqa isteʼmol tovarlari bilan taʼminlashni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

Sanoat korxonalari viloyat hududida ancha notekis joylashgan. Hozirgi kunda ancha notekis joylashgan. Hozirgi kunda asosiy sanoat korxonalari Muborak, Gʻuzor, Qarshi, Shahrisabz shaharlarida joylashgan. Bu shaharlarda joylashgan sanoat korxonalari butun viloyatda ishlab chiqarilayotgan sanoat yalpi mahsulotining 80%dan koʻprogʻini bermoqda. Mavjud sanoat korxonalari Qarshi-Gʻuzor, Muborak hamda Shahrisabz-Kitob sanoat tugunlarida joylashgan.

Kelajakda oʻsib borayotgan mehnat resurslarini ish bilan taʼminlash maqsadida tuman markazlari va yirik aholi punktlarida meva-sabzavot, goʻsht, sut mahsulotlarini qayta ishlaydigan, mahalliy xom ashyo bazasida qurilish materiallari ishlab chiqaradigan, tikuvchilikka asoslangan kichik xonalarni bunyod etish toʻqimachilik, ip-kalava ishlab chiqaradigan korxonalarni ishga tushirish hamda kasanachilik, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini rivojlantirish lozim.

Sanoati. Qashqadaryo viloyati Oʻzbekiston Respublika sanoati mahsulotining 7,8 foizini beradi. 2010 yil yakunlariga koʻra, sanoatining ichki tuzilishi quyidagicha: yoqilgʻi sanoatining ulushi (mahsulot qiymati boʻyicha) 79,9 foiz, yengil sanoat – 9,0, oziq-ovqat 4,8, un-krupa, omuxta yem sanoati – 3,3 foiz. Taqqoslash uchun: 2000 yilda yuqoridagi koʻrsatkichlar, mos holda, 56,4; 18,1; 9,2; va 2,6 foizni tashkil qilgan. Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, soʻnggi 10 yil davomida mintaqa sanoati tarkibida ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish yoki ogʻir sanoat tarmoqlari jadal rivojlanib borgan. Bu ham boʻlsa viloyat iqtisodiyotini industriyallashtirishning natijasi sanaladi.

Qashqadaryo viloyati yalpi hududiy mahsulotining ichki tarkibi ham uning iqtisodiyotini tobora industrial-agrar yoʻnalishga oʻtib borishini asoslab beradi. Jumladan, 2008 yilda yalpi hududiy mahsulotning 33,0 foizi sanoat ishlab chiqarishiga toʻgʻri kelgan boʻlsa, 2010 yil u 40,7 foizga barobar boʻlgan. Boshqa mintaqalarga qaraganda bu yerda qishloq xoʻjaligining ulushi pastroq – 18,4 %, vaholanki, bu koʻrsatkich Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlarida bundan 2 marta ziyod. Ayni vaqtda bu yerda mashinasozlik sust rivojlangan; kimyo va elektr energetika sanoatiga esa katta eʼtibor qaratilmoqda. SHoʻrtangaz majmuasi, Dehqonobodda qurilayotgan kaliy zavodi, birinchi navbatida ishga tushirilgan Tolimarjon IES

fikrimizga dalil bo'la oladi. Shuningdek, viloyat energetika bazasida Muborak issiqlik energetika markazi ham muhim o'rin tutadi.

2009 yilda sanoat mahsuloti 2008 yilga nisbatan taqqoslama narxlarda 16,5 foizga ko'paydi¹. Ana shu yilda viloyatda jami 116 ta sanoat korxonalari mavjud bo'lib, yiriklari 41 ta. Bir yilda taxminan 1,6-2,0 mln. t neft, 50-55 mlrd. m³ tabiiy gaz, 1,5-2,0 mln. t atrofida gaz kondensati (suyultirilgan gaz), 300 tonnaga yaqin oltingugurt, 129 ming t polietilen, 2 mln. m² ip-gazlama, 146-150 ming tonna paxta tolasi, 20-25 ming tonna o'simlik yog'i, 25-26 mln. shartli banka konserva, 190 ming t un va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Nisbiy ko'rsatkichlarda hisoblaganda Qashqadaryoga O'zbekistonda qazib olinadigan neftning (gaz kondensati bilan birga) 95 foizi, tabiiy gazning 92 va oltingugurtning deyarli 100 foizi to'g'ri keladi. Shu o'rinda qayd etish joizki, bundan 9 yil muqaddam mutloq ko'rsatkichlarning ba'zilari ancha yuqori bo'lgan. Masalan, 2000 yilda neft qazib olish 3,6-4,0 mln. t, suyultirilgan gaz 3,5 mln. t, ip-gazlama 5,0 mln. kv metrdan ziyodroq, konservalar 75 mln shartli bankani tashkil qilgan; faqat paxta tolasi va o'simlik yog'ini ishlab chiqarish bu davrda ko'paygan.

Bundan xulosa qilish mumkinki, viloyatning yoqilg'i sanoatidagi "siljishlar" respublika umumiy yoqilg'i - energetika sanoati holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, ip-gazlama hamda meva-konservalar ishlab chiqarish hajmining qisqarishini ham ijobiy baholab bo'lmaydi. Paxta hosilining, jumladan, paxta tolasini ishlab chiqarishni ortib borishiga qaramasdan uni qayta ishlash hajmi, ip-gazlama mahsulotlarini tayyorlash ancha katta miqdorda qisqargan. Albatta, bu yerda ham vaziyat qoniqarli emas.

Sanoatning hududiy tashkil etilishida Qarshi, Shahrisabz tugunlari katta ahamiyatga ega; Muborak (IEM, gaz - kimyo majmuasi), Koson (yog'-ekstrakt, paxta tozalash, g'isht zavodi), SHO'rtan (neft-gaz-kimyo), Tolimarjon (IES), Ko'kdumaloq (neft), Chiroqchi (konserva zavodi) va boshqa sanoat punktlarining ahamiyati ham oshib bormoqda. Qarshi, Qamashi va Shahrisabzda to'qimachilik

¹ 2010 йилда, турли сабабларга қўра вилоятда саноат ишлаб чиқариш ҳажми олдинги йилга нисбатан пасайган. Бу, энг аввало, ёқилғи саноати туфайли юз берган.

Qashqadaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hududiy jihatlari
(2010 yil, jamiga nisbatan foizda)

Shahar va tumanlar nomi	Sanoat mahsuloti	XIM	Qishloq xo'jalik mahsuloti	Kapital qo'yilmalar	Pudrat ishlari	Chakana savdo	Pullik xizmat	Eksport	Import
Qarshi sh.	16,9	40,9	0,01	10,9	27,7	41,5	27,6	9,4	28,7
tumanlar:									
Dehqonobod	0,6	0,6	3,8	7,7	2,6	2,9	3,3	2,3	25,1
Kasbi	1,2	0,8	8,8	1,5	3,3	1,8	2,2	9,3	-
Kitob	0,5	4,7	7,4	1,8	5,3	7,2	12,2	0,02	0,6
Koson	2,5	12,7	10,6	2,9	7,9	7,4	7,4	11,6	0,9
Mirishkor	1,1	1,2	7,9	17,0	2,5	2,0	2,5	8,4	0,2
Muborak	43,2	1,5	4,5	28,0	6,5	2,2	7,4	3,4	11,2
Nishon	1,2	1,5	7,2	5,6	3,4	3,3	3,3	9,4	6,7
Chiroqchi	0,7	3,6	10,9	1,7	3,7	4,3	4,7	4,2	0,7
Shahrisabz	2,6	22,6	7,1	3,6	8,0	8,4	6,8	6,1	3,8
Yakkabog'	0,9	4,1	8,8	2,6	5,1	6,1	4,8	4,2	0,3
Qamashi	1,2	2,8	8,7	1,4	3,3	5,8	7,2	6,2	0,3
Qarshi	1,3	2,0	7,9	3,0	7,8	3,1	6,7	5,9	2,6
G'uzor	26,1	1,0	6,3	12,3	12,9	4,0	3,9	19,3	18,9
Viloyat bo'yicha	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

korxonalari (“Oqsaroy - to‘qimachi” QK, ipakchilik), aksariyat tuman markazlarida paxta tozalash zavodlari mavjud.

Viloyatda gaz kondensatini Muborak neft-gaz konlari, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, “SHo‘rtan neft-gaz” sho‘ba korxonasi, SHo‘rtangaz kimyo majmuasi hamda “Hisor neft-gaz” qo‘shma korxonalari ishlab chiqaradi. Ularning orasida gaz kondensati bo‘yicha Muborak neft-gaz konlari boshqarmasi va SHo‘rtan neft-gaz, neft va tabiiy gaz qazib olishda Muborak neft-gaz konlari yetakchilik qiladi¹. Suyultirilgan gazning yarmiga yaqinini SHo‘rtangaz kimyo majmuasi yetkazib beradi, ikkinchi o‘rinda SHo‘rtan neft-gaz sho‘ba korxonasi turadi. Oltinugurtning deyarli 100 foizga yaqinini Muborak gazni qayta ishlash zavodi ta‘minlaydi.

Jami sanoat mahsulotining 16,9 foizi viloyat markazi - Qarshi shahriga to‘g‘ri keladi. Muborak tumanida sanoat mujassamlashuv ko‘rsatkichi bundan ham yuqori – 43,2 foiz. Shuningdek, G‘uzor tumanida ham sanoat ishlab chiqarishi yuqori darajada – 26,1 %. Demak, bu ikki qishloq tumani viloyat markazi bilan birgalikda jami sanoat mahsuloti hajmining 86,2 foizini beradi (100- jadval). Qolgan hududlarda sanoat sust rivojlangan. Bu borada biroz Shahrisabz va Koson tumanlari ajralib turadi, Dehqonobodda esa ushbu makroiqtisodiyot tarmog‘i yaqin yillarda rivojlanib boradi.

Qashqadaryo viloyati demografik vaziyati, aholisining tez ko‘payib borishi xalq iste‘mol mollari ishlab chiqarish ko‘lamini oshirishni taqozo etadi. 2010 yilda aholi jon boshiga 129 ming so‘m hajmida iste‘mol mollari ishlab chiqarilgan bo‘lib, u oldingi yilga nisbatan 108,8 foizga ko‘paygan. Agar aholi sonining bu davrdagi 2,2 foizga ortganini hisobga olsak, iste‘mol mollarini ustuvor darajada ko‘payib borishining guvohi bo‘lamiz.

Ko‘rilayotgan yilda mebel, xo‘jalik sovuni, go‘sht va go‘sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, mineral suv ishlab chiqarish hajmi ancha ko‘tarilgan. Xususan, trikotaj mahsulotlari tez ko‘paygan (2010 yilda 2009 yilga nisbatan 4,8 marta). Biroq o‘simlik yog‘i 2008 yildagi 35,1 ming tonnadan 2010 yilda 18,6 ming tonnaga kamaygan.

XIM ishlab chiqarish bo‘yicha Qarshi shahri, Shahrisabz va Koson tumanlari oldinda. Aynan shu hududlarda yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlari yaxshiroq rivojlangan. Ularning hissasiga 76,2 % viloyatda olingan XIM to‘g‘ri keladi (jumladan, Qarshi shahriga – 40,9 %). Bu soha, ayni paytda Dehqonobod, G‘uzor, Kasbi tumanlarida juda sust. Aholi jon boshiga viloyatda 129,5 ming so‘m miqdorida XIM ishlab chiqarilgani holda, Kasbi tumanida u atigi 11,9, Dehqonobodda 16,2, G‘uzor tumanida 20,8 ming so‘mni tashkil etgan. Viloyatning bu boradagi “o‘rtacha” ko‘rsatkichi asosan Qarshi shahri (386 ming so‘m) va Shahrisabz tumani (255 ming

¹ Чироқчи туманида ҳам оз миқдорда бўлсада нефть қазиб олинади.

so‘m) hisobidan shakllangan. Koson tumanida ham bu ko‘rsatkichlar ancha yuqori – 191 ming so‘m.

2.3. Sanoat tarmoqlari rivojlanishining asosiy muammolari va istiqbolli yo‘nalishlari

Qashqadaryo viloyatida, eng avvalo, ikkita shakllangan asosiy ichki iqtisodiy rayon ajratiladi. Quyi mintaqqa yoki Qarshi mintaqasi paxta va g‘alla, chorvachilikka, neft-gaz, tog‘-kon hamda elektr energetikaga ixtisoslashgan. Uning tarkibiga Qarshi shahri, Qarshi, Nishon, Muborak, Koson, G‘uzor, Kasbi va Mirishkor tumanlari kiradi.

Yuqori yoki Shahrisabz mintaqasida ko‘proq agrosanoat majmuasi rivojlangan. U Shahrisabz, Yakkabog‘ va Kitob tumanlarini birlashtiradi. Bu ikkita - shakllangan rayonlardan tashqari Qashqadaryo geografi M.Yangiboyev yana ikki Shimoliy (Chiroqchi tumani) va Janubiy (Dehqonobod va Qamashi tumanlari) rayonlarni ham ajratgan. Albatta, bu yangi rayonlarda hududiy ishlab chiqarish majmuasi endi shakllanib bormoqda. Balkim, Dehqonobod, Qamashi va Chiroqchi tumanlarini oraliq yoki O‘rta iqtisodiy rayon sifatida ajratish haqiqatga yaqin bo‘lar.

Viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ichki tafovutlar qishloq tumanlari miqyosida yanada aniqroq ko‘zga tashlanadi (-jadval).

Qashqadaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy indikatorlari
(aholi jon boshiga, 2010 yil)

Shahar va tumanlar nomi	Sanoat mahsuloti	XIM	Qishloq xo'jalik mahsuloti	Kapital qo'yilmalar	Pudrat ishlari	Chakana savdo	Pullik xizmat
Qarshi shahri	1,860	2,979	0,083	1,205	3,043	4,548	3,010
Dehqonobod	0,132	0,125	0,835	1,706	0,581	0,634	0,743
Kasbi	0,179	0,092	2,059	0,262	0,561	0,302	0,377
Kitob	0,058	0,577	1,273	0,221	0,644	0,896	1,520
Koson	0,245	1,472	1,229	0,336	0,916	0,856	0,859
Mirishkor	0,262	0,344	0,958	4,719	0,704	0,536	0,674
Muborak	18,140	0,568	1,244	10,582	2,472	0,817	2,794
Nishon	0,254	0,166	2,726	1,305	0,797	0,767	0,767
Chiroqchi	0,051	0,298	0,905	0,138	0,306	0,357	0,388
Shahrisabz	0,190	1,965	0,618	0,317	0,698	0,731	0,589
Yakkabog'	0,100	0,509	1,024	0,324	0,636	0,764	0,605
Qamashi	0,136	0,343	1,073	0,169	0,403	0,714	0,883
Qarshi	0,152	0,278	1,072	0,402	1,053	0,418	0,905
G'uzor	3,709	0,161	1,021	1,998	2,094	0,645	0,634
Viloyat bo'yicha	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, asosiy ishlab chiqarish sohalari, ya’ni sanoat va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha Muborak va G‘uzor tumanlari ajralib turadi. Ijtimoiy sohalar Kitob, Muborak hamda Nishon tumanlarida nisbatan yaxshiroq rivojlangan. Hozircha eng sust rivojlangan qishloq tumanlari Dehqonobod va Chiroqchi hisoblanadi.

Yaqin kelajakda ishlab chiqarishni to‘g‘ri hududiy tashkil etilishini takomillashtirish, mehnat resurslari, rekreatsiya hamda turistik imkoniyatlardan foydalanish, to‘qimachilik va qurilish sanoati bazasini mustahkamlash, transport va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Qishloq sanoati va ijtimoiy holatini yaxshilash, aholini toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta‘minlash, geoekologik vaziyatni sog‘lomlatirish ham mintaqaviy muammolar sirasiga kiradi.

So‘nggi yillarda Tolimarjon IES va Toshg‘uzor – Boysun – Qumqo‘rg‘on temir yo‘lining qurilishi mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ular viloyat iqtisodiy geografiyasiga katta o‘zgarishlar kiritadi.

Shu bilan birga, kelajakda yangi ichki temir va avtomobil yo‘llarini qurish bunday katta hududga ega bo‘lgan mintaqa uchun zarurdir. Jumladan, Yakkabog‘ va Ayritom bekatlarini birlashtiruvchi yangi temir yo‘l qurilsa, viloyatning ikkinchi shahri - Shahrisabz respublika markaziy rayonlari bilan qisqaroq masofada bog‘lanish imkoniyatiga ega bo‘ladi va transport harajati kamayadi, Qarshi stansiyasining “yuki” biroz yengillashadi. Qolaversa, bu yo‘l viloyatning ichki hududlarini rivojlanishiga turtki beradi, natijada Qashqadaryoning asosiy iqtisodiy o‘zagi (qovurg‘asi) Qarshi – G‘uzor – Qamashi – Yakkabog‘ (Shahrisabz) – Chiroqchi – Ayritom halqasi yoki to‘rtburchagi shakllanadi. Ayni vaqtda G‘uzorning transport tuguni sifatidagi ahamiyati kuchayadi, Dehqonobod tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi faollashadi va u Qashqadaryoni Surxondaryo viloyati bilan bog‘lashga xizmat qiladi, shu asosda yagona Janubiy iqtisodiy rayon shakllanib boradi. Shahrisabz tugunining rivojlanishi, dovonning ikki tomonida joylashgan Urgut va Kitob tumanlar iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish esa Qarshi – Buxoro – Samarqand uchburchagini, respublikamiz janubi-g‘arbiy qismining o‘zagini yanada mustahkamlaydi.

Demak, istiqbolda G‘uzor, Yakkabog‘, Ayritom, Qarashina, Chin, Kitob kabi o‘shish nuqta va markazlari vujudga keladi, Qarshi va uning aglomeratsiyasi takomillashadi, xuddi shunday aholi va xo‘jalikni hududiy tashkil etish shakli Shahrisabz negizida ham paydo bo‘ladi.

Iqtisodiyot va uning yetakchi tarmog‘i xisoblangan sanoat ishlab chiqarishida chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlarning muhim strategik vazifasi xisoblanadi. Sanoat tarkibiy tuzilishini tubdan o‘zgartirish milliy manfaatlarini ta‘minlovchi iqtisodiy o‘shishga yo‘l beruvchi va aholi farovonligini muttasil oshib borishiga olib keluvchi yangicha ishlab chiqarish tuzilmasini yaratishdir.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar uning xom ashyo etishtirishdan iborat bir tomonlamaligiga chek qo'yish, tarmoq tarkibini tubdan o'zgartirish, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda yo'l qo'yilgan nomutanosibliklarga barham berish, iste'molga tayyor, tugallangan mahsulot ishlab chiqarishga o'tishi, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini jaxon bozori talablari darajasiga yetkazib, mamlakat eksport salohiyatini oshirish, mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlash, yangi texnologiyalarga o'tish, xalqimizning milliy va tarixiy an'alariga mos keladigan yangi soxalarni barpo etish, mavjud mineral va qishloq xo'jalik xom ashyolarini chuqurroq qayta ishlashga qaratilmog'i lozim.

Iqtisodiy islohatlarning yangi bosqichi — iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida vujudga kelayotgan shart-sharoitlar va bozor munosabatlari talablarini hisobga olgan holda yangi sanoat siyosatini ishlab chiqish zarur. Mazur siyosat birinchidan ulqan texnika va ishlab chiqarish salohiyatiga tayanishi, ikkinchidan xorijiy investisiyalarning jalb etishning yirik imkoniyatlaridan foydalanishga shart sharoit yaratishi, uchinchidan, ilmtalab va mehnat siimi yuqori bo'lgan tarmoqlar rivojlanishiga ustivorlik berishi, to'rtinchidan, har bir mintaqa o'z ishlab chiqarish salohiyatlarini namoyon qilishi uchun keng imkoniyatlar barpo etishi, beshinchidan ekologik talablarni hisobga olgan holda rivojlangan ishlab chiqarishni barpo etishga (chiqindisiz ishlab chiqarishni tashkili etish, chiqindilarni qayta ishlash asosida) qaratilishi maqsadga muvofiq.

Sanoat ishlab chiqarishida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish respublika va har bir viloyat sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishga, moliyaviy axvolning yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xisob-Kitoblar shuni ko'rsatadiki. mashinasozlikning ilmtalab tarmoqlarining. yengil va oziq-ovqat sanoatini ustun darajada rivojlantirish yalpi ichki mahsulotning fond, energiya va suv sigimini pasaytiradi.

Respublika esa viloyatlar sanoat ishlab chiqarishida maqsadga muvofiq tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda o'rta va uzoq muddatli bashorat ko'rsatkichlarini ishlab chiqish muhim o'rin tutadi. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida bashoratlash nafaqat istiqboldagi qarorlarni qabul qilish, balki muhim hududiy tarmoq muammolarini xal etish yullarini asoslash vositasi xisoblanadi.

Mintaqa sanoati rivojlanishi va undagi tarkibiy o'zgarishlarni bashoratlashga makroiqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qismmi sifatida qarash lozim, chunki istiqbolda mintaqa sanoatini rivojlanishi makroiqtisodiy jarayonlar, jamiyat iqtisodiy salohiyati rivojlanishning holati va istiqbollari bilan belgilanadi. O'z navbatida mintaqa sanoati taraqqiyot makro iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadi.

Shuni alohida ta'qidlash lozimki, mintaqa sanoatidagi tarkibiy o'zgarishlar bashorat qilinayotganda sanoat hududiy va tarmoq tarkibidagi o'zgarishiga o'zaro bog'liqlikda qaralishi

zarur. Negaki, sanoat ishlab chiqarishining tarmoq tarkibidagi o'zgarishlar uning hududiy tarkibiga u yoki bu yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi va aksincha.

Ma'lumki, o'tish davri sharoitida iqtisodiyotning shu jumladan, sanoat tarmog'ining istiqboldagi rivojlanishi juda ko'p omillarga bog'liq bo'ladi. Bu esa sanoat ishlab chiqarishi bashorat ko'rsatkichlarining shartli bo'lishiga olib keladi. Shu munosabat bilan bashoratlashning bir necha variantlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lib, har bir variant turli xil omillar ta'sirini o'zida aks ettirishi lozim.

Sanoat tarmoq tarkibidagi o'zgarishlarning muhim yo'nalishlaridan biri kimyo va neft kimyosi sanoati bilan bogliq. Davlat investisiya Dasturi asosida qo'rilgan Sho'rtan gaz-kimyo majmuining ishga tushirilishi natijasida viloyatda har yili 127 tonna polietilen, 137 ming tonna suyuqlashtirilgan gaz va 103 ming tonna gaz kondensati ishlab chiqarila boshlaydi. Ushbu majmua respublikada yangi soxa—polietilen ishlab chiqarish tarmog'ini rivojlanishiga yo'l ochib berish bilan birga ijtimoiy ahamiyatga ham egadir. Mazkur majmuaning ishga tushirilishi natijasida 2000 ishchi o'rni yaratiladi va bu ishchi o'rinlarining 175 tasi ayollar uchundir.

Kimyo" sanoatning rivojlanishi ko'p jixatlan Tubegatan koni zaxiralarn asosida ko'rilishi mo'ljallanayotgan kimyo korxonasi bilan bo'liq Bu yerda 500 ming tonna osh tuz va 500 ming tonna qaliy o'g'iti ishlab chiqaruvchi zavodni ko'rish Davlat investisiya Dasturiga qiritilgan. Ushbu loyixaning amalga oshishi respublika qishloq xo'jaligining kaliy o'itiga bo'lgan extiyojini to'la kondirish bilan bir qatorda uning bir qismini quoshni mamlakatlarga eksport qilish imkoniyatini beradi. Xisob-Kitoblarga ko'ra, har yili kaliy o'g'iti eksportidan 21-26 mln. AQSh dollari miqdorda valyuta tushumi olish mumkin.

Mamlakatimiz energetika mustaqilligini mustaxkamlash maqsadida yoqilg'i sanoati rivojlanishiga davlatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Davlat investisiya Dasturiga muvofiq Sho'rtan, Muborak gazni qayta ishlash zavodlarining o'zluksiz ishlashini ta'minlash uchun yirik mablaglar sarflanmoqda. Sho'rtan gaz konini jixozlash maqsadida 1999-2005 yillar davomida 40220 mln.so'm mablag ajratildi. Neft va gaz sanoatini rivojlantirish dasto'ri asosida 2007-2008 yillarda Sho'rtan gaz konlar majmuasiga 8430 mln.so'mliq mablag ajratish muljallangan. Ushbu tadbirlarning amalga oshirilishn natijasida Sho'rtangaz kondan bir yilda 24 mlrd kub metr gaz qazib olinadi. 2471 nafar kishi, shu jumladan. 502 nafar ayol ish bilan ta'minlanadi.

Bundan tashqari Davlat investisiya dasto'rida Muborak atrofidagi 23 konlarini pzlav topish uchun 2001-2003 yillarda 7700 mln.so'm qratilishi belgilab qo'yilgan. Xisor-Kitoblarga ko'ra, viloyatda neft, gaz kondensati va gaz azib olish 2005 yilga kelib muvofiq ravishda 6,0 mln.tonna, 5,4 mn.tonna va 60 mlrd.kub m.ga, 2010 yilga esa 6.4 — 6,6 mln.tonna, 6,3 — 5 mln. ton na va 63 — 64 mlrd. kub. m.ga etadi.

Viloyat tarmoq tarkibiy siyosatning ustuvor yo`nalishlaridan biri ilmtalab va yuqori texnologiyani ishlab chiqarish to`rlarini rivojlantirishdan iborat bo`lishi lozim.

Sanoatning mashinasozlik, priborsozlik, elektronika, elektrotexnika kabi tarmoqlarini ustun darajada rivojlantirmasdan turib sanoat taraqqiyotida yuqori natijalarga yerishib bo`lmaydi. Viloyat sanoatining respublika sanoati siyosatidagi o`rni sanoat loxiyatining ustuvor jixatlari. ishlab chiqarish kuchlarining yavojlanish darajasini hisobga olgan xodda. shuningdek, bugungi kunda shakllangan ishlab chiqarish to`rlari va yunalishlaridan kelib chiqib istiqbolda Qashqadaryoda mashinasozlikning qishloq xo`jaligi mashinalarini ta`mirlash, qishloq xo`jalik mashinalarga uchun detallar yashlab chiqarish, kimyo neft va neft kimyosi mashinasozligi rivojlanadi. Shu bilan bir qatorda maishiy buyumlar, elektronika mahsulotlari ishlab chiqarishga asoslangan qo`shma korxonalar barpo etish maqsadga muvofiq. Ushbu chora tadbirlarni amalga oshirish natijasida viloyatda mashinasozlik tarnog`ining o`shish suratlari 2000-2005 yillarda 169 foizni, 2000-2010 yillarda esa 272 foizni tashkili qiladi.

Viloyat iqtisodiyotida chuqur iqtisodiy islohotlarni amalga oshirilishi, aholi sonishshg yuqori suratlarda o`shishi natijasida uy-joyga bo`lgan talabning ko`payishi, ijtimoiy va ishlab chiqarish tuzilmasi ob`ektlarining ko`plab qurilishi va boshqa chora tadbirlar, qurilish materiallari sanoatining yuqori suratlarda: o`shishini talab qiladi.

Qurilish materiallari sanoatining rivojlanishi istiqbolda juda xom ashyo resurslaridan oqilona foydalanishga asoslanadi.

Xususan, yaqin besh yilda Pachkamar konidan yiliga 10 ming tonna Gsmzit xom ashyosi qazib olishni yulga quyish qo`zda tutilmoqda. Bu esa agshi keramzit mahsulotlari ishlab chiqarish zavodining o`zluqsizlashiga imkoniyat yaratadi. Qoratut konida sement zavodi quriladi da har yili 1000 tonna sement ishlab chiqariladi.

Bir kunlik, Bodomzor kabi marmar va granit konlaridan olinadigan koshinkorlik mahsulotlari 2005 yilda 60 ming kub.m, 2010 1da 90 ming kub.m.ni tashkili qiladi. Oxak ishlab chiqarish 2005 yilda tonnaga, 2010 yilda esa 200 tonnaga etadi. Devorbob materiallar ishlab chiqarish 2005 yilda 35 mln.shartli donani. 2010 yilda 45 mln. shartli donani tashkili etishi ko`zda tutilmoqda.

Bu chora tadbirlar natijasida qurilish materiallari ishlab chiqarish 2006 yilga nisbatan 2009 yilda 70 foizga, 2010 yilda esa 188,8 foizga o`sadi. Uning yalpi sanoat mahsulotdagi ulushi 2010 yilda 2,7 zeizni tashkili etadi.

Istiqbolda mavjud ishlab chiqarish korxonalarini texnik ro`yxatdan qayta qurollantirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar jixozlash va xorijiy kapital ishtirokida yangi korxonalar o`rinish asosida engnl sanoatni yuqori suratlarda rivojlantirish ko`zda tutilmoqda. Bunda asosiy e`tibor paxta va ipakni qompleks qayta ishlashga qaratiladi. 2002 yilda "Oqsaroy" qushma

korxonasining pshga tushirilshp 6100 tonna paxta tolasini qayta shlash imkonini beradi. "Kashteks" korxonasining to`la quvvat bilan ishlay boshlashi hisobga keyingi o`n yillikda bir nechta qo`shma korxonalar, kichiki va o`rta korxonalarining ishga tushirilishi viloyatda ishlab chiqariladigan paxta tolasining 30 foizgachasini qayta ishlashga imkoniyat yaratadi.

Shuningdek, viloyatda junni qayta ishlash asosida matolar ishlab chiqarish, junchilik, poyafzal, qayta ishlash, gilam ishlab chiqarish rivojlantirildi. Buning natijasida maxalliy xom ashyodan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ortadi. Ushbu chora-tadbirlar engil sanoat mahsulotlar ishlab chiqarishning 2005 yilda 2000-yilga nisbatan 60,4 foizga o`shirishini ta`minlaydi. 2010 yilda esa ushbu tarmoqda mahsulot ishlab chiqarish 2000 yilga nisbatan 3 barobarga oshdi. Xisob-Kitoblar shuni ko`rsatadiki, 2005 yilgacha engil sanoat tarmoqlarida 20 ming, 2010 yilgacha 30-40 ming ishchi o`rni yaratildi.

Oziq-ovqat mustaqilligini taminlash tarkibiy o`zgarishlar oldidagi muhim strategik vazifalardan biri xisoblanadi. Meva-sabzavotlarni qayta ishlash, un-yorma sanoatida xorijiy firmalar ishtiroqidagi korxonalarni barpo etish orqali ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va yangilash, oziq-ovqat xom ashyosini qayta ishlash hajmi ni ko`piyitiri, o`z ishlab chiqarishi hisobiga aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta`minlashni yaxshilash imkoniyatini beradi. Oziq-ovqat sanoatidagi tarkibiy o`zgarishlar raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishdab chiqarishni ta`minlaydigan ilgor texnologiyalarni joriy etishni talab qiladi. Oziq-ovqat sanoatida kichiki va o`rta korxonalar barpo etishni ragbatlantirish, maxalliy tadbirkorlarni qo`llab-quvvatlash mahsulot ishlab chiqarishni ko`piyitirishning muhim yunalishlaridan xisoblanadi.

Viloyatda shu yunalishda muayyan ishlar amalga oshirilishi qo`zda tutilgan. Xususan. 2000 yidan boshlab Qdrshi shahrida kichiki xajmdagi. idishlarda mo`rabbo, djem. konditer mahsulotlari ishlab chiqaradigan konserva zavodlari qo`rilishi boshlab yuboriladi.

2009 yildan boshlab esa bu korxonalar yiliga 2000 tonna oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqara boshlaydi va uning deyarli 70 foizi eqsportga yunaltiriladp. Tarmoqdagi qo`rilishi qo`zda tutilgan yirik ob`ektlardan biri Kasbi umanidagi tomat pastasi ishlab chiqarish zavodidir. Bir sutkada 200 tonna pomidorni qayta ishlaydigan bu korxonaning qo`rilishiga 1,7-mln. AQSh dollari yo`naltiriladi.

Viloyat oziq-ovqat sanoatiga yo`naltirilishi belgilangan investisiyalar tarkibida, gematogen va konfetlar ishlab chiqarish (Qarshi shahri), bolalar iste`mol mahsulotlari ishlab chiqarish (Shahrisabz tumani), sabzavot va mevalarni qayta ishlaydigan (Shahrisabz tumani), sutni qayta ishlashdigan (Shahrisabz tumani) yiliga 25 mln, shisha chashma suvi ishlab chiqaradigan sex va birqancha kichiki korxonalar qo`rilishi qiritilgandir. Bu korxonalarining ishga tushirilishi hisobga mavjud oziq-ovqat korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish hisobiga 2005 yilgacha 35-40 ming ishchi o`rinlari barpo etiladi. XXI asrning

birinchi besh yilligida viloyat oziq-ovqat sanoatida o`shish surati 164 foizni. iqqinchi besh yilliqda esa 289,3 foizni tashkili etadi. Viloyatda tarkibiy o`zgarishlar oldiga qo`yilgan vazifalarni xal etish bevosita bozor isloxotlarining yanada chuqurlashuvi bilan bogliq. Ko`p uqladli iqtisodiyot va xaqiqiy mulqdorlar sinfinnig shakllanishi xalq iste`moli mollari ishlab chiqarishni uzluksiz rivojlantirish va respublika hisobga mintaqaviy iste`mol bozorlarini to`ldirish uchun real shart-sharoit yaratadi.

Kichik va o`rta tadbirkorlikning rivojlanishiga keng yo`l ochib berish, xalq badiiy xunarmandchiligi soxalarini qayta tiklash mehnat resurslarini yuqori suratlarda o`sgan sharoitda bandlik muammosini xal etishga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Sanoat tarmoq tarkibiy siyosatining strategik yo`nalishlari istiqbolda uning hududiy tarkibi shakllanishiga bevosita ta`sir ko`rsatadi.

Shuni alohida ta`kidlash lozimki, sanoatning tarmoq va hududiy tarkibi o`zaro bog`liq bo`lib, sanoat ishlab chiqarishida tarkibiy o`zgarishlarni amalga oshirishda hududiy nomutanosibliqlarga barham berish, tumanlar iqtisodiyoti va ijtimoiy xayotini yuqsaltirish muhim ahamiyatga ega.

Korxonalar iqtisodiy yerqinliqlarini kengaytirish, tadbirkorlik shakllarini rivojlantirishga yunaltirilgan iqtisodiy islohatlarning yangi bosqichi ushbu masalalarni xal etishga keng yul ochib beradi. Iqtisodiyotni yiriklashtirish sharoitida har bir tuman o`z mavjud imkoniyatlarini imkon qadar namoyon qilish, aholisi turmush darajasini muttasil ustirib sorish uchun real shart-sharoitga ega bulishi lozim.

Iqtisodiyotni, shu jumladan sanoat ishlab chiqarishini tarkibiy jihatdan qayta ko`rishning strategik yo`nalishlaridan kelib chiqqan holda Qashqadaryo viloyati sanoat ishlab chiqarishini hududiy jihatdan tashkili etishning asosni tamoyillari quyidagilardan iborat bo`lishi maqsadga muvofiq:

- ❖ tumanlar sanoat rivojlanishining ijtimoiy yo`naltirilganligi. Bunda asosiy e`tibor oqilona bandlikni ta`minlash, istemol tovarlari va xizmatlarning mintaqaviy bozorlarini shakllantirishga qaratilmogi lozim;
- ❖ tumanlar sanoatining tarmoq tarkibini tubdan qayta tuzish va unda tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ustivorlik berish;
- ❖ tumanlar tabiiy-iqtisodiy sharoitlariga muvofiq ularda sanoatning oqilona ixtisoslashuvini shakllashirish va tamanlararo integrasiya ni rivojlantirish;
- ❖ sanoat korxonalarini joylashtirish va amal qilishning muhim sharti sifatida infra tuzilma, shu jumladan bozor infra tuzilmasini rivojlantirish;
- ❖ tuman iqtisodiyotining sanoatlashuvini jadallashtirish. Ma`lumki, har bir tuman ishlab chiqarish omillari bilan to`rlidarajada ta`minlangan. Bu esa u yoki bu ishlab

chiqarish turlarini tashkili etishga turli yo`nalishlarda ta`sir etadi. Bunday holat uzoq muddatli istiqbolda viloyat sanoatining hududiy rivojlanishiga tabaqalashgan holda yondashishni va ustuvor yunalishlarni belgilab olishni taqozo etadi.

Viloyat: sanoatining hududiy tarkibini shakllantirishning quyidagi strategik yo`nalishlarini ajratib ko`rsatish mumkin;

- ❖ tabiiy resurslarni o`zlashtirish evaziga Go`zor, Dehqonobod, Kitob, Yakkabog` tumanlarida sanoat ishlab chiqarishining muayyan to`rlarini joylashtirishda bosqichma-bosqich ijobiy o`zgarishlarga yerishish;
- ❖ tabiiy-iqtisodiy sharoitlar. yaratilgan ishlab chiqarish salohiyati, ekologik talablarga muvofiq Qarshi shahri sanoatining tarmoq tarkibini taqomilashtirish, uning ilmtalab va yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini kuchaytirish;
- ❖ aholi va mehnat resurslariga boy tumanlarda (Shahrisabz, Qarshi, Chiroqchi, Koson, Yakkabog`, Qamashi) mehnat sig`imi yuqori sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga ustivorlik berish;
- ❖ viloyatning barcha tumanlarida qishloq xo`jaligi xom ashyosini qayta ishlashga asoslangan ishlab chiqarish turlarini shakllantirish;
- ❖ sanoat taraqqiyoti past tumanlarni (Baxoriston, Dehqonobod) sanoatlashtirish. Ushbu yo`nalishlardan kelib chiqqan holda Qashqadaryo viloyati sharti sifatida infrato`zilma, shu jumladan bozor infratuzilmasini rivojlantirish;
- ❖ tuman iqtisodiyotining sanoatlashuvini jadallashtirish. Ma`lumki, har bir tuman ishlab chiqarish ularini omillari bilan turlidarajada ta`minlangan. Bu esa u yoki bu ishlab chiqarish tashkili etishga turli yo`nalishlarda ta`sir etadi. Bunday holat uzoq muddatli istiqbolda viloyat sanoatining hududiy rivojlanishiga tabaqalashgan holda yondashishni va ustuvor yo`nalishlarni belgilab olishni taqozo etadi.

Viloyat: sanoatining hududiy tarkibini shakllantirishning quyidagi strategik yo`nalishlarini ajratib ko`rsatish mumkin;

- ❖ tabiiy resurslarni o`zlashtirish evaziga G`uzor, Dehqonobod, Kitob, Yakkabog` tumanlarida sanoat ishlab chiqarishining muayyan turlarini joylashtirishda bosqichma-bosqich ijobiy o`zgarishlarga erishish;
- ❖ tabiiy-iqtisodiy sharoitlar. yaratilgan ishlab chiqarish salohiyati, ekologik talablarga muvofiq Qarshi shahri sanoatining tarmoq tarkibini taqomilashtirish, uning ilmtalab va yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini kuchaytirish;
- ❖ aholi va mehnat resurslariga boy tumanlarda (Shahrisabz, Qarshi, Chiroqchi, Koson, Yakkabog`, Qamashi) mehnat sig`imi yuqori sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga ustivorlik berish;

- ❖ viloyatning barcha tumanlarida qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlashga asoslangan ishlab chiqarish turlarini shakllantirish:
- ❖ sanoat taraqqiyoti past tumanlarni (Baxoriston, Dehqonobod) sanoatlashtirish.

Ushbu yo'nalishlardan kelib chiqqan holda Qashqadaryo viloyati tumanining viloyat yalpi sanoat mahsulotidagi ulushining 2008 yilda 0.64 foizdan 2009 yilda 9.7 foizga 2010 yilda 12,6 foizga etishini ta'minlaydi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarishida birmuncha diversifika siyalashgan ishlab chiqarish tarkibiga ega Qarshi shahrining yalpi sanoat mahsulotidagi ulushi 2005 va 2010 yillarda deyarli o'zgarmaydi. Istiqbolda bu xududda yuqori psixologiyaga asoslangan mashinasozlik korxonalaridan neft va gaz kimyo ilmiy tekshirish instituti, engil va oziq-ovqat mashinasozligining tajriba konstruktorlik byurolari joylashadi. Viloyatda sanoat ishlab chiqarish nisbatan sust rivojlangan— Baxoriston va Dehqonobod tumanlarida sanoatning yuqori darajada rivojlanishi va sanoati rivojlangan mintaqalar — Qarshi shahri hisobga Muborak tumanlarida sanoat mahsulotlari o'sish suratlari viloyat ko'rsatkichidan past bulishi natijasida sanoat ishlab chiqarishining konsentrasiyam va tumanlar sanoat rivojlanishi o'rtasidagi tafovutlar birmuncha qisqaradi. Agar 2000 yilda Qarshi shaxri va Muborak tumanining viloyat yalpi sanoat mahsulotidagi birgalidagi ulushi 79 foizni tashkili qilgan bo'lsa, 2005 yilda bu ko'rsatkich 70,4 foizni 2010 yilda esa 64,2 foizni tashkili etishi ko'zda tutilmoqda.

Xuddi shunday sanoat rivojlanishida eng yuqori ko'rsatkichga ega Muborak tumani va eng past ko'rsatkichga ega Baxoriston tumani sanoat mahsulotlari xajmlari o'rtasidagi nisbat 2000 yilda 1425.8 ga teng bo'lgan bo'lsa, 2005 yilda bu ko'rsatkich 842.6 ga 2010 yilda esa 507.6 ga teng bulishi qutiladi.

Mobilizasion variant 2007 va 2010 yillarda viloyatning barch tumanlarida sanoat rivojlanishini belgilab beradi va quyidagilarni qo'zdatutadi:

- ❖ uzoq tarmoqlarni (elektroenergiya, gaz. neft qazib olish, neftni qayta ishlash va boshqalar) ustivor darajada rivojlantirish bo'yicha dasturlar va loyihalarni amalga oshirish:
- ❖ sanoat korxonalarining o'z resurslaridan to'laroq foydalanish va shu asosda qushma korxonalar barpo etish, faoliyat qo'rsatayotgan sanoat korxonalarini o'rtasida raqobat muxitini kuchaytirish;
- ❖ ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish va yangi tsxnologiyalarni joriy etish, korxonalar mahsulotining raqobatbardoshligini oshirish:
 - ❖ hududiy tuzilmalarda sanoatning tarmoq tuzilishini yaxshilash;
 - ❖ sanoat ishlab chiqarishini hududiy tashkil etishning ilg'or shakllarini jadal rivojlantirish;
 - ❖ investision loyihalarni amalga oshirish.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi tarkibiy o`zgarishlar, ishlab chiqarishni intensivlashtirish evaziga sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishga imkon beradi. Bizning xisob-Kitoblarimizga ko`ra, mobilizasion variant shart-sharoitlarining bajarilishi quyidagilarga imkon beradi;

- ❖ tumanlarda mavjud bo`lgan tabiiy-iqtisodiy salohiyat, ichki imkoniyatlar va iqtisodiy o`shishning hududiy omillaridan oqilona foydalanish;
- ❖ amaliyotda respublika, viloyat va tumanlar manfaatlarini uyg`unlashtirish, respublika va mintaqaviy bozorlar shakllanishini jadallashtirish;
- ❖ tumanlar sanoati rivojlanishida hududiy moliyaviy resurslar ahamiyati va maxalliy boshqaruv organlari rolini bosqichma-bosqich oshirib borish;
- ❖ ishlab chiqarishii hududiy tashkili etishning ilgor shakllari intensiv omillar hisobiga sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish;
- ❖ tumanlarda kichiki va o`rta biznesni ustivor tarzda rivojlantirish, kichiki va o`rta sanoat korxonalarini yirik firma va konsernlar filiallarini joylashtirish;
- ❖ oqilona bandlikni ta`minlash va yangi ish joylarini barpo etish;
- ❖ aholi daromadlarini ko`paytirish va tumanlarning ijtimoiy yo`naltirilganlik darajasini ko`piyatirish.
- ❖ ekologik vaziyatni yaxshilash;
- ❖ tumanlar sanoati tarkibida iste`mol tovarlari va tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari ulushini oshirish;
- ❖ viloyat tumanlarida sanoat taraqqiyoti o`rtasidagi tafovutni qisqartirish.

XULOSA

Milliy iqtisodiyotni yuksaltirish viloyatlarda iqtisodiy isloxlarni ishchilik bilan amalga oshirish asosida aholining turmush darjasini yaxshilash, iqtisodiy geografik jihatdan tahlil qilish katta ilmiy ahamiyatga egadir. Bu borada iqtisodiyotning negizi hisoblangan sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va ularning hududiy joylashishni o'rganish o'sib boryotgan aholining isti'mol mollarga bo'lgan ehtiyojini to'la o'rganish

Bitiriv malakaviy ishida viloyat sanoatini hududiy tashkili etish nazariy va amaliy masalalarni o'rganib tahlil qilishga harakat qilindi.

Olib borilyotgan tadqiqotlar quydagi xulosa va takliflarni chiqarishga imkon berdi.

1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida sanoati mahsulotlarini an'anaviy holda ishlab chiqarish nuqtai nazaridan o'rganilgan, biroq hozirgi bozor munosabatlariga o'tish sharoitida maqroiqtisodiyotning ushbu tarmoqlari xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish hisobga aholini ushbu mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish jihatidan etarlicha tadqiq etilmagan.

2. Viloyat sanoatning tarmoqlar tarkibini yanada takomillashtirish uchun transport ijtimoiy va infratuzilma tuzilishi yanada rivojlantirish.

Qashqadaryo viloyat sanoat salohiyati respublikada o'rta darajada. Viloyat O'zbekiston Respublika jami aholisining 7,2 foizini mujassamlatirgan xolla, yalpi ichki mahsulotining 2,2 foizini, beradi.

Mintaqada sanoatning tarmoqlar tarkibi rivojlanmagan, u asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan tarqoq joylashgan yengil va oziq — ovqat sanoati korxonalaridan iborat. Ayni vaqtda energetika va qurilish bazasiga bo'lgan talab oshmoqda transport ijtimoiy va infratuzilma tizimi yetarli darajada rivojlanmagan, qo'shma korxonalarini qurish uchun qulay investisiya soxani rivojlantirishga yanada yordam beradi.

3. Viloyatda ishlab chiqarilayotgan yalpi sanoat mahsulotining foizi yengil va oziq—ovqat sanoati tarmoqlariga to'g'ri keladi.

Sanoatda ishlab chiqarilayotgan yalpi mahsulotning asosiy qismini paxta tozalash sanoati, oziq —ovqat sanoatida esa yog` — moy va un sanoati tashkil etadi. Demak, ishlab chiqarishning uzluksiz texnologik tizimiga asoslangan energiya ishlab chiqarish ishlari bu yerda to'laqonli shakllanmagan.

4. Mintaqada engil va oziq —ovqat sanoatining kelajagi ko'pi jihatdan qishloq xo'jaligi tarmoqlarining intensiv tarzda rivojlanishiga hisobga mavjud xom ashyo resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, yangi korxonalar va ish o'rinlarini yaratishga bog'liq. Shu nuqtai nazardan viloyat qo'shma korxonalarini sonini qo'aytirish ham katta ahamiyatga ega.

5. Qashqadaryo viloyatida etarli paxta tolasini resurslari mavjud bo'lsada, uning atigi 5 foiziga yaqin kiem ip gazlama sanoatida qayta ishlanmoqda, xolos. Yaqin kelajakda amerikalik

ishbilarmonlar bilan ko`rib ishga tushirilgan "Qashteks" qo`shma korxonasining ishlab chiqarish quvvatini oshirish, unda ishlab chiqarishni kombinatlashuv yo`nalishida tashkil etish hisobiga tayyor iste`mol mollari ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish industrial siklni to`liq shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

6. Viloyat oziq —ovqat sanoatining yetakchi tarmog`i yog` —moy sanoatida vujudga kelgan xom ashyo (texnik chigit) ta`minoti muammosini ijobiy xal etish, avvalambor dehqonchilik tarmoqlarida moyli ekinlar (zig`ir, kunjut, soya) etishtirishni yo`lga qo`yishni va ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishni talab qiladi, Shu bilan birga bu yerda yangi yog` —moy sanoati korxonasini tashkil etish ham zarur bo`lib qoldi. Ushbu muammo viloyatning istiqbolli tarmoqlaridan biri — konserva sanoatiga ham tegishlidir.

7. Viloyat sanoatning hududiy tarkibini hisobga olib sanoat tarmoqlarini Chiroqchi, Kasbi, Yakkabog`, Dehqonobod, Shahrisabz tumanlarida ko`plab qurish ta`minlash uchun birinchi galda tarmoqda xom ashyo muammosini xal etish hisobga xom ashyo yetyazib beruvchi xo`jalik sub`ektlari bilan barqaror xquqiy xo`jalik shartnomalarini tuzish, shuningdek, tarmoqqa xorijiy sarmoyalarni jalb etish orqali ichki iste`molbozrini sifatli go`sht va sut mahsulotlari bilan ta`minlashga erishish lozim.

8. 2011 yil "Kichik biznes va tadbirkorlik yili" munosabati bilan tadbirkorlikni rivojlantirish sanoat korxonalarini ko`paytirish munosabatlari bilan tashkil qilingan yangi ishchi o`rinlarini yaratish.

9. Viloyat hududida yirik sanoat korxonalarining mavjudligini hisobga olib ekologik barqarorlikga erishish va boshqalar.

Qashqadaryo viloyati o`ziga xos demografik xususiyatlarga ega Bu yerda aholining tabiiy ko`payishi, uning tug`ilish ko`rsatkichlari mamlakatda eng yuqori va bu ko`rsatkichlarning jarayoni nisbatan sust kechmoqda. Xususan viloyatning Kasbi Nishon tumanlarida aholining tug`ilishli past ko`rsatkichga ega

Viloyat qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarini eng avvalo maxalliy talab va extiyojlar hamda geosiyosiy o`rni, demografik va ekologik vaziyati, iqlimiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda rivojlantirish maqsadga muvofiq bo`ladi. Mazkur sanoat tarmoqlari energiya ishlab chiqarish va hududiy majmualar shaklida tashkili etilsa, ularning iqtisodiy samaradorligi yanada oshadi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan taklif va tavsiyalarni xayotga tadbiiq etish kelajakda Qashqadaryo viloyati sanoatini rivojlantirish imkonini beradi va bu mintaqa hamda milliy bozorni iste`mol mollari bilan ta`minlashda, mamlakatning eksport salohiyatini oshirishda katta ahamiyatga ega bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O‘zbekiston, 2011. – 440 b.
- Karimov I.A. Jahon moliyaviy–iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. T., “O‘zbekiston” 2009
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. “O‘zbekiston” 1997
3. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz–vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. T., “O‘zbekiston” 2010
4. Abdullayev O. Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti. T., “Yangi asr avlodi” 2009
5. Ahmedov E. O‘zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. T., “Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti” 2002
6. Asanov G.R. O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo‘g‘rofiyasi. T., Nabixonov M. “O‘qituvchi”, 1994, 209 bet
- Safarov I.
7. Asanov G.R. Sotsial-iqtisodiy geografiya: termin va tushunchalar izohli lug‘ati. T., “O‘qituvchi”, 1990, 248 bet
8. Ziyodullayev S.K. Regionalniye problemi ekonomiki Uzbekistana. T., 1986
9. Soliyev A.S. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. T., 1999
- Qarshiboyeva L.
10. Soliyev A.S. Mintaqaviy iqtisodiyot. T., “Universitet” 2003
- Ahmedov E.
- Mahamadaliyev R. va boshqalar
11. Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov SH. O‘zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi T., “MUMTOZ SO‘Z” 2010
12. Sadikov A.M. Osnovi regionalnogo razvitiya: territoriya, metodologiya, praktika. T., “Iqtisod-moliya” 2005
13. Ekonomicheskaya, sotsialnaya i politicheskaya geografiya: mir, regioni, strani. Pod.red. prof.I.A.Rodionovoy –M: Elits–Inform, 2008
14. Hakimova M. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. T., 1997
- Xo‘jayev X.

Mahmudov B.

15. www.ziyonet.uz

16. www.nur.uz

17. www.googl.uz

18. www.geog.uz

QASHQADARYO VILOYATI SANOAT TARMOQLARI RIVOJLANISHINING GEOGRAFIK JIHATLARI

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB. O‘ZBEKISTON SANOAT TARMOQLARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....

1.1. Respublika xo‘jaligining umumiy ta’rifi.....

1.2. Mamlakat sanoati va uning tarmoqlar tarkibi.....

1.3. Og‘ir, yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlanishining hududiy jihatlari.....

II BOB. QASHQADARYO VILOYATI SANOAT TARMOQLARI RIVOJLANISHINING IQTISODIY GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI...

2.1. Viloyat xo‘jaligining umumiy ta’rifi.....

2.2. Viloyat sanoat tarmoqlari shakllanishi va rivojlanishining geografik jihatlari.

2.3. Sanoat tarmoqlari rivojlanishining asosiy muammolari va istiqbolli
yo‘nalishlari.....

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....